

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги

Термиз давлат университети
“Умумий педагогика” кафедраси

Педагогика назарияси ва тарихи фанидан маърузалар матни

Тузувчилар:

п.ф.н. Бозорова М
Ўқ. Бобомуродов

Термиз 2009 й

Ushbu ma'ruzalar matni pedagogika fakultetining № sonli “_____”
“_____” dagi ilmiy kengashida tasdiqlangan .

Taqrizchi:

dots. A.E Kenjaboev

Ushbu ma'ruzalar matnini DTS talablariga, namunaviy o'quv dasturidagi talabalar asosida pedagogika nazariyasi va tarixiga oid eng s'nggi ma'lumotlarga tayanib, ayrim o'rinlarda amaliy jarayonlar bilan bog'liq xolatda tayyorlandi. Mazkur ma'ruza matnidan universitetning barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari foydalanishlari mumkin.

1-MAVZU: Ta'lim sohasidagi islohatlar. Pedagogika fanining maqsad va vazifalari

Reja:

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.
2. Jamiyat va olam rivojida pedagogikaning mohiyati.
3. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari va tushunchalari.
4. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi va pedagogika fanlari tizimi.

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish zarurati

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatda sodir bo'layotgan demokratik o'zgarishlar, yangi jamiyat barpo etish yo'lidan dadil etaklovchi, harakatlantiruvchi ichki kuchga aylanmoqda. «Ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, odamlar ongini, demakki, ularning turmush tarzini ham o'zgartirish mumkin emas» - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.Karimov.

Yurtboshimiz ta'lim-tarbiya islohotining zarurligi va muhimligi haqida o'zining qator nutqlarida ham qayta-qayta to'htab o'tadi. 1997 yil Oliy Majlis IX sessiyasida so'zlagan nutqida shu vaqtgacha amalga oshirilgan tadbirlar talabga javob bermayotganligini, eski sho'rolar zamonidan qolgan ta'lim-tarbiya tizimiga hos mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan to'liq qutila olmaganligimiz, ikkinchidan, o'zgarishlar yuzaki bo'lib, ta'lim-tarbiya va o'quv jarayon-larining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolarini echib bermaganligi, uchinchidan, bizning amaldagi ta'lim-tarbiya tizimimiz bugungi zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmasligi... kabilar ham bu islohotni zarurligini ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasi (1997 yil 29 avguts) da "Ta'lim to'g'risidagi"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy datsuri" qabul qilindi. Bu qonun hujjatlariga asosan, respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, uni yangi zamon talabi darajasiga ko'tarish, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazishning qonuniy asoslari belgilab olindi. Bu borada bir qancha ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Ana shu sessiyada Prezident I.A.Karimov "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" mavzusida nutq so'zlab, quyidagi g'oyalarni ilgari surgan edilar:

Maktablarning moddiy bazasini mutsahkamlash.

Bilimli, mahoratli tarbiyachi o'qituvchilarni tayyorlash, ularning hayotiy talablarini qondirish.

O'quv jarayoniga tegishli bo'lib boshlang'ich sinflarda va undan keyingi

bosqichlarda o`qiyotgan bolalarga qaysi sinfda nimani o`qitish maqsadga muvofiqligini ilmiy nuqtai nazardan asoslash. Boshlang`ich ta'limga ikkinchi darajali ish deb qaramaslik, chunki bolaning dunyoqarashi, didi salohiyati shakllanadigan boshlang`ich sinflarga eng etuk, eng tajribali murabbiylar biriktirib qo`yilishiga katta e'tibor berish.

Respublikamiz mutsaqillikka erishgach ijtimoiy tuzum o'zgardi. Ijtimoiy tuzumning o`zgarishi shu tuzumning maqsadi, vazifalariga mos keladigan va uni amalga oshiradigan kadrlar tayyorlash vazifasini qo'ydi. Demak, ta'lim-tarbiyaning tashkiliy-uslubiy asoslarini yaratish davr talabi bo`lib qoldi. Ana shu davr talabiga muvofiq barkamol avlodni tayyorlab voyaga etkazishning qonuniy asosi bo`lmish "Ta'lim to`g`risidagi"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy datsuri" qabul qilindi.

Hozirgi kun jamiyat rivojida pedagogikaning o`rni

XXI asrda ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bslmoqda. Shuning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosida huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurilishining bosh tamoyili sifatida maydonga chiqdi. O`zbekitson Respublikasining "Ta'lim to`g`risida"gi Qonunida ta'lim davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida utsivor deb e'lon qilinishi pedagogika fani zimmasiga juda katta mas'uliyatli ulug`vor vazifalarni yukladi. Juda boy ilmiy, ma'naviy, madaniy, diniy merosimiz qayta tiklana boshlandi.

Har bir mutsaqil fan o`zining predmeti va metodologik asoslariga egadir. Jumladan, pedagogika fan sifatida shakllanib, o`zining predmetiga ega. Boshqa fanlar kabi pedagogika ham fan sifatida paydo bo`lar ekan, u avvalo jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida vujudga keldi. Shu sababli tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash lozim. Chunki tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib, jamiyatni, uning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin.

Pedagogika atamasi qadimiy bo`lib, "bola etaklovchi" degan ma'noni bildiruvchi grekcha "paydogogos" so`zidan kelib chiqqan. Tarixiy manbalarda ko`rsatilishicha, qadimgi Yunonitsonda o`z ho`jayinlarining bolalarini sayr qildirgan, ehtiyot qilgan tarbiyachini "pedagog" ("bola etaklovchi") deb atashgan. Keyinchalik esa bu tushuncha keng ma'noda ishlatilib, mahsus bilimlarni egallagan mutahassislarga nisbatan qo`llanila boshlandi. Shu bilan birga ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug`ullanuvchilar kasb-hunar homiylari sifatida ajralib chiqa boshlaydilar. Ularning ta'lim-tarbiya borasidagi faoliyatlari va to`plagan tajribalaridan o`rinli foydalanishlari PEDAGOGIKA fanini vujudga kelishiga olib keldi.

Mutsaqilligimizning datslabki kunlaridanoq siyosiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy va ilmiy hayotimizda ko`plab yangiliklar, umumbashariy jarayonlr bilan bog`liq ijobiy o`zgarishlar sodir bo`ldi.

«Eng muhimi inson va fuqaroning fikrlash va dunyoqarashi o'zgarmoqda, siyosiy va ijtimoiy ongi, uning umumiy saviyasi to'htovsiz o'sib bormoqda-deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.A. Karimov.

Pedagogika nafaqat o'zining o'rganuvchi predmeti, balki tarixiy rivojlanishi bilan ham o'ziga hos fandır.

«Avetso» ta'limoti, «Qur'oni Karim» sabog'i, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buhoriy (810-970), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824-892) kabi hadis ilmining ulug'lari ta'lim-tarbiya jarayoniga ulkan hissa qo'shib, pedagogikaning shakllani-shiga zamin yaratdilar. Ularning pedagogik qarashlari tarixning zarhal sahifalaridan munosib o'rin egalladi.

Ilk o'rta asrlarda Abu Nasir Forobiy (789-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (937-1051), Kaykovus (XI asr), Ahmad Yugnakiy (XI asr), Mahmud Qoshg'ariy (XI asr) kabi allomalar ta'lim - tarbiyaga oid dunyoviy fikrlari bilan shuhrat qozondilar.

O'zbek badiiy tilining asoschisi, buyuk davlat arbobi Mir Alisher Navoiy o'zining tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan noyob asarlari, ilmiy tafakkur va falakiyot ilmi sohasida etuk dunyoqarash sohibi Mirzo Ulug'bek ma'rifiy qarashlari, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa adiblar o'zlarining o'lmas ijodiyoti bilan pedagogika taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shdilar.

Ovro'pa faylasuflari Tertullian (160-222), Avgutsin (354-430), Akvinat (1225-1274) larning pedagogik ta'limoti muvaffaqiyat qozongan bo'lmasada, rotterdamlik Erazm (1466-1536), Italiyalik Viktorino de Feltre (1378-1446), farangitsonlik Fransua Rable (1494-1553) va Mishel Monten (1533-1592)larning insonparvarlik g'oyalari, ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari muhim ahamiyat kasb etdi.

Didaktikaning asoschisi, cheh olimi Yan Amos Komenskiyning ta'lim tamoyillari, shakllari va uslublari to'g'risidagi ilmiy qarashlari, ingliz faylasufi va pedagogi Jon Lokk (1632-1704)ning «jentelmen tarbiyasi» - tadbirkor va ma'rifatli, ishbilarmon va ziyoli, e'tiqodi kuchli shahs tarbiyasiga oid ta'limoti bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotganicha yo'q.

Fransuz ma'rifatparvar mutafakkirlari Deni Didro (1713-1784), K. Gelvetsiy (1715-1771), P. Golbah (1723-1789), Jan Jak Russo (1712-1778)larning demokratik va gumanitsik qarashlari, shveytsariyalik olim Iogann Genrih Petsalotsi (1746-1827)ning O'quvchilarning ma'naviy tarbiyasi va rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi pedagogika sohasini kengaytirdi.

Amerikalik olimlar Iogann Fridrih Gerbart (1776-1841), Jon Dyui (1859-1952), Edvard Torndayk (1874-1949) larning fanga «tarbiyaviy ta'lim», «dars modeli», «rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimi», «eksperimentel pedagogika», «tets usuli» kabi tushunchalarni kiritishlari, noan'anaviy pedagogik ta'limotlari, nemis olimi Fridrih Adolf Ditsserverg (1790-1886) ning tamoyillari muammolariga qarashli nazariyasi insonlarni hanuzgacha originalligi bilan hayratga soladi.

Rus milliy pedagogikasining asoschisi Kontsantin Dmitrievich Ushinskiy (1824-1870)ning o'qitishning halqchilligi nazariyasi, ulug' yozuvchi, olim, pedagog va tanqidchi Lev Nikolaevich Tolstoy (1828-1910)ning o'qitish jarayonidagi hayotiylik tamoyili ta'lim-tarbiya jarayonida o'ziga hos o'rinni egalladi.

Jadidchilik harakatining yorqin namoyondalari: Munawarqori 'Abdurashidhonov, Mahmudho'ja Behbudiy, Saidahmad Siddiqiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Ishoqhon Ibrat, Muhammad-sharif So'fizoda kabilar Turkitson maorifi va ta'lim-tarbiya tizimi rivojiga salmoqli hissa qo'shdilar. Ular o'zlarining sermazmun hayoti va faoliyatlari bilan hanuzgacha yosh avlodga ibrat namunasi bo'lib kelmoqda.

Bugungi kunga qadar pedagogika sohasida yangi-yangi ta'li-motlar, g'oyalar kashf qilindi,' yuzlab risolalar, asarlar yaratildi, bu sihaga oid «Everets cho'qqilari» zabt etildi, ammo tarbiya jara-yonidagi insonni chuqur o'yga cho'mdiradigan muammolar hanuzgacha o'z echimini to'laqonli topganicha yo'q.

Pedagogikaning metodologik asosi yosh avlodni tarbiyalash an'alarini, jamiyatning taraqqiyot bosqichlaridagi o'qitish va ka-mol toptirish tizimlarini, ularning qonun-qoidalarini,qomusiy mu-tafakkirlar, ma'rifatparvar adiblar va pedagoglarning ta'lim-tarbiya, ma'rifatga doir g'oyalarini va ularning rivijlanishini mukammal o'rganadigan fandır.

Zamonaviy Pedagogika ijtimoiy hayot jabhalarida faoliyat ko'r-satayotgan shhslarni bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh bera oladigan, yuksak ongli, mutsaqil fikrlay oladigan, hulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, komil inson etib tarbiya-lashdek muhim masalalarni hal qilishi lozim.

Pedagogika insonshunoslik fani bo'lib, jamiyat va shahs muno-sabatlarini tizimlashtiradigan tarbiya va ta'lim muammolarini o'r-ganadi.

Unda hozirgi zamon fani va metodologiyasining quyidagi umumiy masalalari yoritiladi:

- fan tarixi va taraqqiyoti;
- fan haqidagi asosiy konsepsiyalar;
- hozirgi zamon fanidagi asosiy dolzarb muammolar.

Pedagogikaning rivojiga IH-HVI asrlar (Sharq uyg'onish dav-ri)da yashab ijod etgan Al-Buhoriy, At- Termiziy, Abu Nasir Fo-robiy, Abu Rayhon Beruniy.Abu Ali ibn Sino, Yusuf Hos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Bohouddin Naqshbandiy, Mirzo Ulug'bek, Mir-Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk daholar, HIH asrning ohiri HH asr boshlarida Turkitsonda jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan Abdurauf Fitrat, Mahmudho'ja Behbudiy, Munawarqori Abdura-shidhonov, Abdulla Avloniy, Saidahmad Siddiqiy, Ovro'pa davlatlarining buyuk mutafakkir va pedagog olimlaridan Yan Amos Komenskiy, Jan Jak Russo, I.G.

Petsolotsi, Adol'f Ditserveg, K.D.Ushinskiy, A.S. Makarenko, J. Lokk, Jon Dyui, Edvard Torndayk, S.T. Shaskiy, B.Blumlar ulkan hissa»qo'shdilar.

Pedagogika fan sifatida shakllanib, takomillashib borib, ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, usullari ham-da tashkil etish shakllari haqidagi fanga aylandi.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Har bir fanning mazmun va mohiyatidan kelib chiqadigan, uning asosiy tomonlarini yoritishga hizmat qiladigan va eng ko'p ishlatiladigan asosiy tushunchalari bo'ladi. Huddi shuningdek, pedagogika fanining ham asosiy kategoriyalari mavjud.

Kategoriya - (yunoncha: kategoriya - «ko'rsatma», «dalil», «tu-shuncha») pedagogikada pedagogik jarayonlar hususiyatlarini, mo-hiyat-mazmunini, shahs va jamiyat, shahs va guruh, shhs va jamoa o'rtasidagi, ta'lim va tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy, ahloqiy-etsetik, iqtisodiy-ekologik va h.k., munosabatlarni aks ettiruvchi asosiy tushunchadir. Kategoririya bilish jarayonlarining tarixiy rivojlanishi va jamiyat tajribasi asosida paydo bo'ldi. Kategoriyalar orqali inson borliqni, tavarak-atrofni, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni o'rganadi.

izohi

Shulardan biri va asosiysi sifatida «Pedagogika» atamasidir. (<<Pein» - bola va «agogein» - etaklamoq degan ma'noni bildiruv-chi yunoncha «paydagogos» so'zlaridan paydo bo'lgan). Buning quyidagicha: Eramizdan oldingi III-I asrlarda qadimgi

Yunonitsonda quldorlarning bolasini ovqatlantiradigan, sayrga olib boradigan, tabiat qo'ynida o'ynatuvchi tarbiyachi - qullarni «pedagok» dab atashgan. Bugungi kunga kelib «pedagok» so'zi keng qamrovli, yangicha ma'no kasb etgan.

Pedagogikaning yana bir muhim tushunchalaridan biri - «Di-daktika» so'zidir. Qadimgi Yunonitsonda quldorning bolasiga mak-tabda ta'lim beruvchi kishini «Didaskal» deb atashgan. «Didaktika» - yunoncha «didaktikos» so'zidan olingan bo'lib, «o'qitish», «o'r-gatish», «bilim berish» ma'nolarini anglatadi, Qadimgi yunonlar o'qi-tish faoliyatiga nisbatan «didasko», o'qituvchi o'rnida «didaskal», o'quvchiga nisbatan «didaskale» atamalarini ishlatishgan. Ammo «di-daktika» termini o'zining datslabki ma'nosidan ancha uzoqlashgan. Hozir bu tushunchalarning hajmi va mazmuni ancha boyigan va kengaygan bo'lib, u faqat o'qituvchining faoliyatini emas, shu bilan birga o'quvchining faoliyatini ham o'z ichiga qamrab olgan

Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga ta'lim, tarbiya, ma'lu-mot, rivojlanish, pedagogik faoliyat, pedagogik jarayon, bilish, o'rgatish, ta'lim-tarbiya metodlari, prinsiplari va boshqalar kiradi. Biz ularni pedagogik tushunchalar ham deb ataymiz.

Tarbiya - tarbiyachi o'zi hohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun ularning ruhiyatiga ma'lum maqsadga ko'ra tizimli ta'sir ko'rsatishiga aytiladi.

Jahon pedagogikasida «tarbiya» atamasi keng qamrovli tu-shuncha sifatida baholanganligi tufayli, uning mohiyati hususida turli nazariyalar mavjud. Tarbiyani kattalar (o'qituvchilar, murab-biylar va ota-onalar)ning bolalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni sifatida tushunish eng ko'p tarqalgan tendensiyadir. Bu o'rinda kattalar to'g'ri deb hisoblaydigan, baholaydigan ideallar, maqsadlar, vazifalar, normalar va talablarga muvofiq tarzda ta'sir ko'rsatish ko'zda tutiladi, albatta.

Tarbiyani bunday tushunish haqiqatga yaqinroq, biroq u bir tomonlama hususiyatga ega bo'lib, mazkur jarayonning faqat muay-yan qismini aks ettiradi, holos. Tarbiyaga bunday ta'rif berishda bolaga kattalarning ta'siri yo'naltirilgan obekt sifatidagina qaraladi. Pedagogika ham tashabbuskor va mutsaqil shahslarni tarbiyalashni nazarda tutadigan bo'lsa, u tarbiyalanuvchiga pedagogika jarayoni-da faol harakat qiluvchi subekt rolini beradi.

Shahsning o'zi, o'z hulq-atvori hususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavur qilish orqali hosil bo'lgan obraz - «Men»-obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi insonning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini belgilaydi va barkamollik mezonlari bo'lib hisoblanadi.

«Men»-obrazining ijtimoiy psihologik ahamiyati shundaki, u shahs tarbiyasining va uning tarbiyalanganlik darajasi omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qargalanda, «...tarbiyani shahsning o'zi va o'z sifatleri to'g'risidagi tasawurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin». Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri anglasa, tasavur qilsa, unda jamiyatning ahloq normalariga zid harakat qilish ehti-moli ham shunchalik kamayadi.

Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy gulitson yohud ahloq» asa-rida inson kamolotida tarbiyaning o'rnini alohida ta'kidlab, «Ja-nobi haq insonlarning asl hilqatda itse'dod va qobiliyatli, yaqshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga etkazmoq tarbiya vositasida bo'ladir. Agar bola yaqshi tarbiya topib, buzuq hulqdan saqlanib, go'zal hulqlarga odatlanib katta bo'lsa, bahtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, ahloqi buzilib o'ssa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har hil buzuq ishlarni qiladigan nodon, johil bir rasvoi odam bo'lib chiqadi»-deb ta'kidlaydi. Shunday ekan, bugungi kunda pedagogik nazariya va amaliyot muammolarini tadqiq qilish va echimini topishda pedagogik diagnotsika hamda korreksiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim - mahsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkazila-digan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollan-tiradigan bilim qobiliyatlarini o'tsiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir.

Ma'lumot - ta'lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtiril-gan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir.

Pedagogik faoliyat - etsetik, ahloqiy, siyosiy, iqtisodiy kabi maqsadlarga

muvofoiq ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aqlan o'ylab ko'rilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo'lgan mehnatining o'ziga hos turidir.

Pedagogik jarayon - ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan kat-talarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan hamda tarbiyachining yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli natijasida bolaning o'z-o'zini taraqqiy ettirishidir.

Har qanday fan ham yakka holda o'zi mukammalikka erisha olmaydi. U boshqa fanlar bilan aloqada, ularning yutuqlaridan foy-dalangan holda mazmunan boyib boradi. Huddi shuningdek, peda-gogika fani ham hozirgi kunimizda umumbashariyat tomonidan yaratilgan bilimlar va kelajak haqidagi ma'lumotlarga tayanadi. U tabiat va jamiyat rivojlanihsi qoidalari to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanadi, o'zi ham ijtimoiy fan sifatida rivojlanib, insonning ijtimoiy kamolotiga xizmat qiladi. U falsafa, tarix, iqtisod, psiho-logiya, etika va etsetika, biologiya va madaniyatshunoslik, siyosat-shunoslik va boshqa fanlar bilan uzviy aloqadadir.

Har bir yurtning fuqarosi bo'lmish o'qituvchi-tarbiyachi va o'quvchi yoshlar o'z ona yurti tarixini bilishlari, vatanparvar bo'-lishlari lozim. Ta'lim-tarbiya tarixi, pedagogika tarixi fanidan ha-bardor bo'lmay turib, o'qituvchilik qilish mumkin emas.

O'qituvchi o'quvchilarga bilim berish, ma'lumotli qilish, tar-biylash maqsadida unga tizimli ta'sir ko'rsatadi. Bunda psixologiya va ijtimoiy omillarga asoslanadi. Ya'ni ta'sirning samarasini bilish uchun o'quvchining sezgi, idroki,tasawur, diqqat va tafakkur -fikrlash jarayonining qanday kechayotganini bilishga asoslanib ta'sir ko'rsatish rejasini belgilaydi. Ayniqsa, yosh davriari psixologiyasini o'qituvchi chuqur bihshi talab etiladi Buni yaqshi bilgan o'qituvchi esa har bir bolaning yosh va individual hususiyatlarini hisobga olgan holda bolaga yondashadi va unga samarali ta'sir ko'rsata oladi. Ma'lum ma'noda o'qituvchilarga xizmat qiladigan psiholo-giya turkumidagi fanlarni ham pedagogika fanlari tizimiga kiritish mumkin.

Falsafa pedagogika fani uchun metodologik asos boiib xizmat qiladi. Falsafa pedagogikani ilmiy uslublar bilan qurollantiradi, ta'lim va tarbiyaning obektiv qonun-qoidalarini ishlab chiqishga manba bo'ladi.

Etika va etsetika fanlari pedagogikaning tarbiya nazariyasi bo'-limi bo'yicha ma'lumot beradi. Bu fan o'quvchining hulqi, odobi me'yoriarini aniqlash, belgilash hamda go'zallikni chin ma'noda tushuntirish, o'quvchi ongida hayotning jozibali, nafis qiihalariga bevosita rag'bat uyg'otish borasida pedagogika fani bilan aloqa-dordir.

Fanlarni o'qitish yo'llari didaktikaga aloqador, chunki har qanday fanni o'qitish usuli shu fanning mazmuni, tizimini o'quv-chilar tomonidan o'zlashtirilib olinishiga xizmat qiladi. Demak, pedagogika fani bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi, bolalar gigienasi va pediatriya kabi fanlar bilan ham mutsahkam aloqada, bu fanlar bir-biriga chambarchas bog'liqdir.

Turli sohada bilim oluvchi o'quvchilarni o'qitish va tarbiya-lashning nazariy hamda amaliy tomonlarini pedagogika fani tar-moqlari yoritib beradi. Pedagogikaning quyidagi tarmoqlari mavjud:

- umumiy pedagogika (maktab yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalash va o'qitish haqida);
- maktabgacha tarbiya pedagogikasi (maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash bilan shug'ullanadi);
- madaniy-oqartuv pedagogikasi (madaniy-ma'rifiy ishlarni boshqarish muammolarini o'rganadi);
- kasb-hunar ta'limi pedagogikasi;
- harbiy pedagogika (armiya sardorlari va o'quvchilarini vatanimizning shon-sharafi va ornomusi uchun etuk kurashchi, har biy qurol-yaroqlardan samarali foydalana oladigan yoshlarni tarbiyalash yo'nalishi);
- oila pedagogikasi;
- mahsus pedagogika (oligofreno-aqli zaiflarga, tiflo-ko'zi ojiz bolalarga tarbiya berish), metodika.

Zamonaviy pedagogika ijtimoiy hayot jabhalarida faoliyat ko'r-satayotgan shahslarni bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bar-dosh bera oladigan, yukasak ongli, mutsaqil llkrlay oladigan, hulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, komil inson etib tarbiyalashdek muhim masalalarni hal qilishi lozim.

MUSTAQIL ISHLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi «...donolar bisotidan...» deb nomlanmish hikoyatlardan parchalarni o'qing va mushohada qiling.

Ilm o'rganish fazilatlari haqida

Allohning erdagi elchisi Rasululloh aytmishlarki, ilm o'rga^ nish har bir mo'min va muslima uchun farzdir. Ilm tolibi uchun borliq mavjudot, hatto dengizdagi baliqlar ham (o'z) gunohlarini so'rab itsig'for aylaydilar.

Ilm ibodatdan afzaldir, chunki u dinni tutib turuvchidir. Bilim olmoq ikki toifaga bo'linur, ya'ni biri qalban ilmga tashnalikdur, bu foydali ilmdur. Bunday ilm kishi hayotini toabad nurafshon qiladur. Ikkinchi hildagi ilm esa faqat tildagidur.

Savol: Bu hikoyatda qanday ilm to'g'risida fikr bildirilyapti?

2. Farosat uchun maosh

Bir savdogarning ikki mirzasi bor ekan. Savdo-tijorat ishlarida barcha yumushlarni har ikkalasi ham birdek bajarishar, savdogarga sidqidildan hizmat qilisharkan. Lekin maosh masalasida anchagina farq bo'lib, biri ko'p, biri esa ozroq haq olar ekan. Bu ahvol anchagina davom etibdi. Maoshi oz mirza ancha vaqt hojasining og'zini poylab yuraveribdi. Biroq savdogar bu haqda hech ham gap ochmas, har kuni odatdagi o'z ishlari bilan mashg'ul bo'lar ekan.

Sabr kosasi to'lgan mirza bir kun payt topib yuragidagi dardini hojasiga

to'kib solibdi.

- Mana qanchadan beri indamay hamma ishlaringizni qilib kelyapman. Ishyoqmaslik qilib, biror vazifadan bo'yin tovlagan erim yo'q. Anavi mirza bilan bajaradigan ishimizda shuncha ku-zatib biror farqni anglay olmadim. Lekin maoshimiz nega turlicha ekanligiga aslo aqlim etmayotir, - debdi.

Hoja mirzaning so'zini eshitib miyig'ida kulibdida, uning da'vosi to'g'ri ekanligini tan olibdi va bu haqda keyinroq gap-lashajagini aytib, hozir zarur bir yumushni ado etib kelishini buyuribdi.

- Bosh utsiga! - debdi mirza tavoze bilan o'rnidan turarkan.
- Bo'lmasa eshiting - debdi hoja. - Karvonsaroyga Bog'doddan savdogarlar tushishibdi. Borib ulardan so'rang-chi, bisotlarida bahmal matosi bormikan?

Mirza ko'ksiga kaftini qo'yib: «Ho'p bo'ladi», debdi va hojasi huzuridan chiqibdi. Hech qancha vaqt o'tmay, u karvonsaroyga borib kelibdi.

- Taqsir, bog'dodlik savdogarlarda bahmal mato bor ekan! - debdi.
- Rangi qanaqa ekan bilmadingizmi? - debdi hoja.
- Yo'q! Rangini so'ramabman.
- Rangini bilib keling! - deb buyuribdi hoja mirzaga.

Mirza yana karvonsaroyga qarab ketibdi va fursat o'tib yana hojasi yoniga kirib kelibdi.

- Bildim, taqsir! Rangini so'rab bildim! Pitsamagiz ekan, bahmal rangi!
- Yaqshi, - debdi hoja.
- Bahmalning gazini necha so'mdan sotarkanlar Bog'dodlik birodarlar?

Tili lol mirza bahmal narhini bilib kelish uchun yana karvonsaroyga zing'illabdi va u erdan bahmal narhini ham aniqlab kelibdi. Lekin hojasi tushmagur mirzaga yana: «Hammasi bo'lib qancha bahmallari bor ekan, bilmadingizmi?» - degan savolni ko'ndalang qilib, uni mulzam etibdi. Mirza bahmalning qancha ekanligini bilib kelish uchun yana karvonsaroyga junayotgan ekan, hoja uni to'h-tatibdi.

- To'htang, - debdi va ikkinchi mirzani chaqirtirib, birinchi mirzaga aytgan datslabki topshiriqni aytibdi. Ikkinchi mirza ham karvonsaroyga qarab ketibdi va bir fursat o'tgach, hoja va birinchi mirza o'tirgan erga kirib kelibdi.
- To'g'ri taqsir! Karvonsaroyga Bog'doddan savdogarlar kelishibdi. Bisotlarida bahmal matolari ham bisyor emish, - debdi.
- Rangi qanday ekan uning?
- Rangi pitsamag'iz, sifati ham soz!
- Har gazini qanchadan deyishmoqda?

Ikkinchi mirza bahmal narhini ham aniq aytib beribdi. U hojasining «Hammasi bolib qancha bahmallari bor ekan?» degan savoliga ham aniq javob qilibdi.

Shu paytdan hoja ikkinchi mirzaning hizmati uchun unga minnatdorchilik aytib, javob beribdi va birinchi mirzaga yuzlanibdi:

- Mirzam, endi tushungandirsiz, maoshingizdagi farq sababini? Maosh belgilashda hodim farosati ham e'tiborda tutilur. Kishi farosatining maoshi bebahodir! - debdi.

Savol: 1) Mazkur hikoyat nima uchun shunday nomlangan? Fikringizni izohlab bering. 2) Mutsaqil fikrlovchi inson bo'lib shakllanishda farosatning o'rni qanday? Sizning fikringizcha, halq manfaatini ko'zlashda, vatan ravnaqini yuksaltirishda mutsaqH fikrlash ko'nikmalari zarurmi? Javobingizni asoslab bering .

Mavzu yuzasidan tetslar

1. Quyidagi ta'rif to'g'ri belgilangan qatorni toping: «Pedagogika - inson faoliyati sifatida maqsad sari qilingan harakat, hohish itsagi va ehtiyojlaridan kelib chiqqan fan»

A. Umumpedagogik.

V. Umummetodik.

S. Umumfalsafiy.

D. Pedagogika tarixi ta'rifi.

2. Abu Nasir Forobiy ta'limning milliy harakteri nimaga bog'liq deb e'tirof etadi?

A. Farosatga.

V. Millatga hos belgilarga.

S. Tilga.

D. Idrokka.

3. Jahon tarixiy pedagogik jarayoni va uning hozirgi bosqichi qanday masalalarni har tomonlama o'rganishni taqozo etadi?

A. Global masalalarni.

V. Tarbiyaviy masalalarni.

S. Ta'limiy masalalarni.

D. Umuminsoniy va milliy masalalarni.

4. Pedagogikaning fan sifatidagi vazifasi nima?

A. O'rgatadi.

V. O'rganadi.

S. Ta'lim - tarbiya obekti.

D. Ta'lim - tarbiya tizimi.

5. O'zbek pedagogikasining vazifasi nima?

A. Respublikamizda yashovchi turli millat va elatlarning orzu-itsaklariga monand ta'lim-tarbiyaning ham nazariy, ham amaliy muammolarini milliy qadriyatlar asosida to'g'ri hal etib berish.

V. O'zbek halq pedagogikasi taraqqiyotini o'rganish.

S. O'zbek halqining orzu-itsaklariga monand ta'lim-tarbiya qonunlarini ishlab chiqish.

D. Milliy qadriyatlarni o'rganishda pedagogikadan foydalanish.

6. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari to'g'ri belgilangan qatorni ko'rsating:

A. Bilim, ilm, fan.

V. Ta'lim, tarbiya, ma'lumot, rivojlanish.

S. O'qish, mutsaqil ish, ma'lumot berish.

D. Pedagogika, metodika, fanlar.

7.«Pedagogika» atamasi qanday ma'noni bildiradi?

A. Lotincha «pedagog» so'zidan kelib chiqib, «o'qitaman» ma'nosini bildiradi.

V. Yunoncha «paydogogos» so'zidan kelib chiqib, «ta'lim bera-man» ma'nosini bildiradi.

S. Yunoncha «paydogogos» so'zidan kelib chiqib, «bola etak-lash» ma'nosini bildiradi.

D. Yunoncha «didaskal» so'zidan kelib chiqib, «bola etaklov-chi» ma'nosini bildiradi.

8. Ta'lim nima?

A. Sinfda dunyoqarash tarkib toptiradigan jarayon.

V. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchining birgalikdagi tarbiyaviy sifatlarini shakllantirish jarayoni.

S. Mahsus tayyorlangan kishilar raqbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarda dunyoqarash hosil qiladigan jarayon.

D. Mahsus tayyorlangan kishilar raqbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilim qobiliyatlarini o'tsiradigan, dunyoqarashni tarkib toptiradigan jarayon.

9. Tarbiya nima?

A. O'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan aqliy kamolot, bilim, malaka va ko'nikmalardir.

V. Tarbiyachi hohlagan sifatlarni tarbiyalovchi ongiga sing-dirish uchun ular ruhiyatiga maqsadli ta'sir etish jarayoni.

S. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi bilim, malaka, ko'nikma hosil qilish jarayoni.

D. Tarbiyachi hohlagan sifatlarni bolada paydo qilish jarayoni.

10. Tarbiya turlari to'g'ri belgilangan qatorni ko'rsating:

A. Iqtisodiy, jismoniy, madaniy va h.k.

V. Ekologik, iqtisodiy, rag'batlantiruvchi.

S. Jismoniy, ruhiy, ekologik va h.k.

D. Jismoniy, ekologik, vatanparvarlik, ahloqiy, iqtisodiy, etse-tik.

11. O'quv bilish faoliyatini tashkil qilishning asosiy jihatlari to'liq ko'rsatilgan qatorni belgilang:

A. Pedagogik, psixologik, kibernetik, didaktik.

V. Matematikaviy, fiziologik, iqtisodiy.

S. Amaliy, didaktik, ixtisosiy.

D. Pedagogik, psixologik.

E. Avtomatlashtirish, individuallashtirish.

12. Abu Ali ibn Sinoning qaysi asari ispan adibi Ibn Tufaylning «Yakzon o'g'li Hayya», Fransuz mutafakkiri Jan Jak Russoning «Emil' yoki tarbiya haqida» povetlarining yozilishiga asos bo'ldi?

A. «Risolai ahloq».

V. «Donishnoma».

S. «Hidoyat».

D. «Tadbiri Manozil».

E. «Hay ibn Yakzon qissasi».

13. Pedagogik texnologiya usulining ilmiy-metodik asoslari bu

A. Ta'lim - tarbiya qonuniyatlari.

V. Biheviyortsik ta'limot.

S. Kognitivitsik ta'limot.

D. Ishlab chiqarish texnologiyasi.

E. Pedagogik tizim nazariyasi.

14. O'zbekitsonni rivojlantirishning ma'naviy-ahloqiy negizlari Prezidentimiz I. A. Karimovning qaysi asarida o'z aksini topgan?

A. «Yangi uy qurmay turib eskisini buzmay» (1996).

V. «Yo'limiz mutsamil davlatchilik va taraqqiyot yo'li» (1994).

S. «O'zbekitsonning o'z itsiqlol va taraqqiyot yo'li» (1992).

D. «O'zbekitson XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» (1999).

15. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik deganda nimani tushunasiz?

A. Halqimizning ma'naviy merosini mutsahkamlashni.

V. Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishini.

S. Ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirishni.

D. Halqimizning adolat, tenglik, ahil qo'shniichilik, insonpar-varlik kurtaklarini avaylab kelishi.

16. Halqimizning ma'naviy merosi nima?

A. Halqimizning ma'naviy ruhi bo'lib, insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi.

V. Ota-onamunasi.

S. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik.

D. Shahs imkoniyatlarining erkin namoyon bo'lishi.

17. Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi nimalarda ko'rinadi?

A. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikda.

V. Insonning o'zi va oilasining baht-saodati yoiida mehnat qilishga shahsan tayyor ekanligida.

S. O'zi hoqlagan Har qanday ishni bajara olishida.

D. Ota-ona o'gitlarini bajarishida.

18. O'zbekitson fuqarosining vatanparvarligi nimalarda namoyon bo'ladi?

A. O'z oilasini sevishida.

V. Davlat ramzlarini hurmat qilishida

S. O'z eri, tabiati, o'lka tarixi, madaniyati, an'analari bilan fahrlanishi, ularni himoya qilishida.

D. Yuqoridagilarning barchasida.

Mavzu yuzasidan savollar

1. «Kadrlar tayyorlash Milliy datsuri»ning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Prezident I.A.Karimovning «Barkamol avlod - O'zbekitson taraqqiyotining poydevori» nutqida qanday g'oyalar ilgari surilgan?
3. «Pedagogika» so'zining kelib chiqishi va ma'nosi.
4. Pedagogika fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat? Uning jamiyat rivojidadagi o'rnini qanday tushunasiz?
5. Pedagogikaning asosiy tushuncha (kategoriya)lariga nimalar kiradi?
6. Pedagogika qaysi fanlar bilan aloqada rivojlanib, boyib boradi?
7. «Pedagogika fanlari tizimi» deganda nimani tushunasiz?

Ahborot manbalari

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekitson taraqqiyotining poydevori. - T.: «Sharq», 1998.
2. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psihologiya. - M., «Logos», 2002, 7-11-betlar;
3. Pedagogika. Munawarov tahriri otsida), -T: «O'qituvchi», 1996. 3-9-betlar.Podlasiy I.P. Pedagogika. - M.: «Vlados», 2003. 10-11-betlar.
4. Tursunov I.Y., Nishonaliev U. Pedagogika kursi. - T.: «O'qituvchi», 1997. 7-26- betlar.
5. G'ulomov S.S. Ta'lim tizimiga ahborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishdagi srategik va utsuvor yo'nalishlar. - T., 2003.

2-MAVZU: O'qituvchilarda milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasini tarbiyalash.
Tarbiyada shahsning genetik fiziologik va psihologik asoslari.

Reja.

1. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari va mohiyati.
2. Milliy istiqlol g'oyasi va fuqorolik tarbiyasi.
3. Shahsning biologic va psihologik rivojlanishi.
4. Shahs shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar.
 - a) Irsiyat biologik omil
 - b) muhit (ijtimoiy omil)
 - v) ta'lim va tarbiya
 - g) faoliyat va faollik

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari va mohiyati

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi: «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish» dan iboratdir. Uning asosiy g'oyalari quyidagilar:

1. Vatan ravnaqi.
2. Yurt tinchligi.
3. Halq faravonligi.
4. Komil inson.
5. Ijtimoiy hamkorlik.
6. Millatlararo totuvlik.
7. Dinlararo bag'rikenglik.

Insonning o'zligini anglashi uning nodir va betakrorligini anglashdan boshlanadi. Insonning nodir va betakrorligini anglash **birinchidan**, uning o'ziga yashiringan imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchun asos bo'lib, itsakni shakllantirsa, **ikkinchidan**, unda boshqalarni ham betakror ulug' siymoligini anglash orqali o'zgalarni hurmat qilishni, ulug'lashni keltirib chiqaradi. **Uchinchidan**, boshqalarning ham nodir, betakrorligiga ishonish, ularni hurmatlash, qalbni g'arazdan poklaydi. **To'rtinchidan** esa, har bir kishining betakrorligini anglash asosida kishilarda boshqalar bilan muomala va munosabatning moddiy, ilmiy, ma'naviy-madaniy manfaat kasb etishni insoniyat ijtimoiyligiga tabiiy zarurat tug'iladi. Shu yuqoridagi sifatlaming shakllana borishi komillik sifatlarining asoslaridan iboratdir.

Komillik sifatlarini to'laqonli shakllantirish uchun esa faqat nasihatlar, da'vatlar etarli emas. Insonning ma'naviy faolligi amaliy - kasbiy faolligi bilan uyg'unlashganda barkamollik sifatleri tabiiy shakllanadi, rivojlanadi. Aynan ana shu yuqoridagi tushunchalarni to'g'ri anglash ta'lim-tarbiyaning metodologik asoslarini to'g'ri tan-lashga yordam beradi. Chunki ta'limning subektivlik, demokratik, huquqiy, insonparvarlik asoslari insonlarning nodir, betakrorlikla-rini ro'yobga chiqarishdir.

Insonlarning nodir va betakrorligini dunyoviy, diniy ilmlarni uyg'unligida tushuntirib berish mumkin. Har bir kishi azaliy yaqshi taqdir, ezgu niyatlar bilan,

ma'lum o`ziga hos ulug' maqsad va vazifalar bilan yaratilgan. Ammo inson asli yaratilishda ozod va erkindir.

Insonning ozod va erkinligi shunchalikki, hatto uning iymon -e'tiqodi, Olloh taolo tomonidan majbur qilinmaydi. Bu haqda Qur'oni Karim Shuaro surasining 4-oyatida "...Zero, iymon -e'tiqod nochor, noilojlikdan emas, balki qalb qanoati bilan ihtiyoriy bo`lishi lozimdir", - deyilgan. Chunki kishilar bu ulug' hislatlar faqat insonlar foydasi uchunligini, ularga amal qilish insonlar uchun ham ma'naviy, ham moddiy manfaatlarning asosi ekanligini ongli tushunib, ularga amal qilsalar bu ishlar ular uchun huzur -halovat va bahtiyorlik bag'ishlaydi. Vijdon kishilarning ongi, ong otsi va qalbi mutanosibligini amalga oshiruvchi ma'naviy-insoniy tuyg'u, sifat. Agar vijdonni sodda qilib tushuntirish lozim bo`lsa, vijdon - insonning qalb amri bilan bajargan ishlarining (faoliyatini) ruhiy mezonidir.

Dono halqimiz, ota-bobolarimizning "Hudo qalbingda bo`lsin, bolam", degan gaplari bejiz emas. Shuning uchun vijdon har bir kishining qalbidagi Hudodir, deyilishi bejiz emas. Kishi hayotidagi qilgan ishlari do`yicha vaqti-vaqti bilan o`z vijdoni oldida hisob berib turadi. Bu muloqot haq muloqot bo`lishi lozim. Ayrim vaqtda nohaq ishni haq deb isbotlash o`z vijdonini, bu esa hudoni aldash bilan teng kuchdir. Bunda ong otsi (haqiqat) ishga tushib kishining ongli va ong otsi orasida nomutanosiblik boshlanib, kishini ruhiy hatsalikka olib keladi. Ruhiy hatsalik esa jismoniy hatsalikka olib keladi, ayrim hollarda boshqa ko`ngilsiz voqealarga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, g`oya insonni va jamiyatni maqsad sari etak-laydigan, ularni harakatga keltiradigan, safarbar etadigan kuchdir.

Mafkura-muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g`oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir.

«O`zbekiston jamiyatining milliy itsiqlol mafkurasi, o`z mohi-yatiga ko`ra, halqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalay-digan, uning o`tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan asriy orzu-itsaklarini amalga oshirishga hizmat qiladigan g`oyalar tizimidir*.

Mustaqillik sharofati bilan halqimizning milliy ongi, milliy g'ururi, siyosiy madaniyati o`sib bormoqda. Agar milliy ongimiz to`htovsiz yuksala bormasa, mustaqilligimizning ma'naviy zamini mutsahkam bo`lmaydi. Halqimizning, jumladan, yoshlarimizning milliy jihatdan o`z-o`zini anglashiga, ularda milliy iftihor tuyg'u»usini shakllanishiga erishishimiz lozim. Milliy ong va o`zligini anglash u yoki bu millatga mansubligini his qilish, uning tarixi, madaniyati, urf-odat va an'alarini chuqur bilish bilangina chegaralanmaydi. Milliy o`z-o`zini anglash millatning hozirgi ahvoli, uning oldida echimini kutayotgan muammolarni bilish va ularni hal qilishda faol harakat etishni talab etadi.

Mana shu faoliyatda ishtirok etishda har bir kishining o`ziga hos uquvi,

qobiliyati, harakteri, uning nodirligi va betakrorligi na-moyon bo`ladi. Demak, inson nodirligi va betakrorligining, uning yutuq va muvaffaqiyatlarining birinchi garovi o`z uquvi, qobiliyati va qiziqishlariga doir faoliyat, hayot yo`li hunar, kasb tanlashidadir. Yutuqning ikkinchi garovi shu o`ziga mos tanlangan hayot yo`lidan donolik, aql bilan faoliyat ko`rsatish, eng ko`p moddiy va ma'naviy mahsulot olishidadir. Soha bo`yicha itsiqbolli ma'naviy fikr inson yutug'ining uchinchi garovidir.

O`zining uquvi, qobiliyatini ro`yobga chiqarish asosida bu-nyodkorona mehnat qilib, moddiy-ma'naviy mahsulotlar yaratib o`zini, oilasini pok, halol luqma bilan boqib, davlatni, halqni moddiy-ma'naviy boyitishga hizmat qilgan kishi so`zda emas, amalda ham haqiqiy iymonli kishi bo`ladi.

3-MAVZU: PEDAGOGIKA FANINING ILMIY -TADQIQOT METODLARI REJA

1. Pedagogika fanining ilmiy- tadqiqot metodlari.
2. Ilmiy- pedagogik tadqiqot usullarining ilmiy manbalarini o`rganishdagi o`rni.
3. Ilmiy-pedagogika tadqiqotlarning tarkibi.

Aniq izlanish predmetiga ega bo`lgan pedagogika fani ham o`zga fanlar singari o`z mohiyatini yoritish va materiallar to`plash uchun mahsus uslublar va vositalardan foydalanadi. Ular fanning metodlari deb yuritiladi.

Fanning saloqiyati va nufuzi, awalambor, mazkur metodlar yordamida to`plangan ma'lumotlarning obektivligi va ishonchliligiga bog`liq bo`ladi.

Metod (lotincha «metodos»-«yo`l») tadqiqot yo`li, nazariya, ta'limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida "metod" so`zi keng ma'noda muayyan maqsadga erishish yo`lini, tor ma'noda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari hamda qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish usulini bildiradi.

Pedagogikada shunday mahsus metodlar mavjudki, ular yordamida ta'lim-tarbiya jarayoniga oid muhim faktlar, turli pedagogik vaziyatlar mohiyatlari, mehanizmlari, hususiyatlari o'rganiladi.

Pedagogik tadqiqot bosqichlari quyidagilardan iborat: ma'lu-motlarni yig'ish, hulosalarni jamlash, tadqiqot bo`yicha miqdoriy tahlil o`rtacha miqdoriy raqamlarni aniqlash, korrelyatsiya koeffitsienti grafiklarini tuzish, hulosalarning To`g`riligini ta'minlovchi ma'lumotlarni yig'ish: (buning uchun turli hil metodlar qo'lla-niladi), ta'lim-tarbiya jarayoniga oid ishchi farazni ilgari surish, uni nazariy va amaliy jihatdan sinovdan o`tkazish mahsus metodikasini ishlab chiqarish va boshqalar.

Obektiv dunyoni bilish, nazariyada nimani 'rganish va o'rga-tish kerak, kimni va qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo`lib, ular o`zaro uzviy bog`liqdir.

Pedagogika fani o`z mazmun mohiyatini boyitishda, yangi-lashda mavjud

pedagogik hodisa va nazariyalarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan uslublari bilan o'rganadi. Ushbu ilmning ilmiy tadqiqot uslublari deganda yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlariga hos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo'llari, usullari va vositalari majmui tushuniladi.

Asosiylari			
Kuzatish		Tajriba	
Ilmiy pedagogik tadqiqot metodi bo`lib, pedagogik voqea va hodisalarni ilmiy asoslashga tayanadi.		Ta'lim tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqu jarayonlarini aniqlash maqsadida o`tkaziladi.	
Oddiy kuzatish:	Ilmiy pedagogik tadqiqot:	Laboratoriya o`tkaziladigan tajriba:	Tabiiy holatda o`tkaziladigan tajriba:
Hayotiy voqea hodisalarni tahlil qilish bilan cheklanadi	Pedagogik voqea hodisaning ichki qonuniyatlarini, mohiyatini ilmiy asoslab beradi, mahsus kuzatish natijalari qayd etib boriladi.	Mahsus ajratilgan honalarda, didaktik vositalar yordamida o`tkaziladi.	Shahs rivojlanishining turli bosqichlarida o`tkaziladi.
		Tahliliy	
		Shahs faoliyatining ayrim jihatlarini o'rganiladi.	Shakllantiruvchi ta'limiy tarbiyaviy
Yordamchi			
Faoliyat turiga qarab o`tkaziladigan tajriba irsiy belgilarga tayanib o'tkaziladigan tajriba	- Anketa tarqatish - Sotsiometriya - Modellashtirish		

Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari qanchalik To'g'ri tan-lansa ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yaqshilanadi, pedagogika fani ham boyib boradi.

Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari:

Kuzatish metodi ta'lim-tarbiya jarayonlarining amaldagi holati bilan tanishtiradi, ularning oqibat natijalarini bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yig'ish imkonini tug'diradi. Bu usul ancha murakkab bo'lib, nazarda tutilgan maqsad qanday amalga oshayotganligini aniqlash, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun ham qo'llaniladi.

Tabiiy kuzatish orqali O'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning hulq-atvori va «muammolaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi.

Ilmiy kuzatishlar esa nafaqat O'quvchilarning tabiiy faoliyatini balki ularning ilmiy dunyoqarashlari shakllanishi, fikrlash jarayoni kuchi, hulosalar chiqarishdagi faolliklarini aniqlaydi, ularni tahlil etadi. Bunday kuzatishlar ogibat natijada pedagogika fani mazmu-nini boyishiga sabab bo'ladi.

Pedagogik tadqiqotda suhbat metodining o'rni ta'lim -tarbiya jarayonini yaqshilash yoki yaratilgan ilmiy farazlarning qanchalik To'g'ri ekanligini aniqlash maqsadida suhbat usulidan foydalani-ladi. Odatda, suhbat usuli maktab o'qituvchilari va O'quvchilar ja-moasi bilan, ota-ona va keng jamoatchilik bilan yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Bunda suqbat usulini tatbiq etishdan oldin reja tuziladi, uni amalga oshirish yo'llari belgila-nadi, natijalar tahlil qilinadi va tegishli hulosaga kelinadi.

Bolalar ijodini o'rganish bolalar ijodini o'rganishda maktab O'quvchilarining o'ziga hos individual tartibdagi faoliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi, muayyan hulosalarga kelinadi. Bunda O'quvchilarning turli yozma daftarlari, tutgan kundaliklari, yozgan hatla-ri, she'r va hikoyalari, hayotiy rejalari, insholari, turli yozma hiso-botlari ularning dunyoqarashi va ma'naviyatini o'rganish uchun manba bo'lib hizmat qiladi.

Bu uslub orqali O'quvchilar orasidan etishib chihayotgan itse'dodli, iqtidorli yoshlar aniqlanib, ular bilan alohida ish olib boriladi. Bolalar ijodini quyidagi jarayonlarda ham aniqlash mum-kin: fan olimpiadalari, mavzular bo'yicha konkurslar; maktablar bo'yicha ko'rgazmalar; musobaqalar; sayohatlar va boshqalar.

Ilmiy tadqiqotda tets, so'rovnomalar uslubi etakchi bo'lib sa-naladi. So'rovnoma - anketa metodi qo'llanilganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, O'quvchilarning yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziqishlarini, ke-lajak orzu-itsaklarini bilish va tegishli hulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

Tets sinovlarini o'tkazishdan maqsad kam vaqt orasida O'quvchilarning

bilimlarini yoppasiga aniqlash va baholashdir. Tets sa-vollarining o'rni va ularning mazmunan rang-barang qilib tuzilishi, O'quvchilarning mustaqil fikrlarini o'tsiradi, kelajakni real ba-holash qobiliyatini taraqqiy ettiradi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish. Bu uslub orqali o'qituvchilar va O'quvchilar jamoasi ularning pedagogik faoliyati haqida aniq ma'lumotlar olinadi. Maktab hujjatlari deyilganda, o'qituvchi va O'quvchilarning soni, O'quvchilarning shahsiy hujjatlari, sinf jurnal-lari, kundalik daftarlari, buyruq daftarlari, pedagoglar kengashining qarorlari daftari, maktabning rejadagi pul hisobi va uning sarf-lanishiga doir hujjatlar, turli inventarlar daftari va boshqalar tu-shuniladi.

Eksperiment - tajriba-sinov usiubi «eksperiment» so'zi lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish» ma'nosini anglatadi. Ekspe-rimental tajriba ishlari, asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tatbig'i jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Eksperiment usiubi sharoitga qarab 3 hilda o'tkaziladi:

Tabiiy eksperiment.

Laboratoriya eksperimenti.

Amaliy tajriba.

Statitsika ma'lumotlarini tahlil qilish pedagogik tadqiqot sa-titsika ma'lumotlarisiz, ularning tahlilisiz o'zligini namoyon etol-maydi. Nafaqat ilmiy izlanishlar borasidagi, balki halq ta'limi so-hasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning oshirilishi, halq ta'limi muassasalarining o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurollar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, maktab quri-lishi, ho'jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag'lar satitsika usuli orqali aniqlanadi. Statitsik omil aniq, hayotiy bo'lsa bajarilayotgan ta'lim-tarbiya yoki ilmiy tadqiqotning qimmati yuqori boiadi.

Pedagogik tadqiqotda matematika va kibernetika usiubi «Ki-bernetika» so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, «rolni bajaraman», «idora etaman» degan ma'nolarni anglatadi. Kibernetika ishlab chiqarishni, texnikani, tirik organizmlarni, kishilik faoliyatini boshqarishning umumiy qoidalarini va vositalarini ishlab chiqadi. Uning mazmuni ahborot berish, datsurlashtirish, algoritmlar, bosh-qaruvchi tizim, model yasash singari asosiy nazariyalarda o'zligini namoyon etadi. Mazkur usuldan bugungi kunda pedagogikada ham keng foydalanilmoqda.

O'qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetika mashinalari yordamida bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish, datsurli ta'lim va uni mashina orqali boshqarish, o'qitishni mutsahkamlash, baholash orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, difFerensial va individual ta'lim berish, maktab hisobotini mashinalar yordamida tuzish kabi jarayonlar bajarilmoqda.

Demak, pedagogika fani o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq

keladigan usullari bilan o'rganadi.

Ilmiy-pedagogika tadqiqotlarning tarkibi, unga ilmiy izlanishlarning u yoki bu elementini kiritish bilan bog'liq ravishda har hil o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Bizningcha, ilmiy-pedagogik tadqiqotlar tarkibini bir muncha umumlashgan ko'rinishda tasvirlash mumkin. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar to'rtta yirik blokdan iborat:

1-blok-tayyorgarlik ishlari.

2-blok tadqiqotni o'tkazish.

3-blok-tadqiqotga yakun yasash.

4-blok-tadqiqot natijalarini baholash.

Tayyorgarlik ishlari jarayoni (1-blok) - birinchi bosqichda ta'limning jamiyat ehtiyojlari maydonga tashlagan rivojlanish yo'llari o'rganiladi va ilmiy-pedagogik tadqiqot muammosi qo'yiladi (ifoda etiladi).

Bu bosqichda muammoning ishlanganlik darajasi ko'rsatiladi, uning ta'lim tizimi yoki pedagogika nazariyasining muhim muam-molarini ishlab chiqish uchun zarurligi asoslab beriladi. Tadqiqot-chi mazkur muammo bo'yicha bilimlarni jamiyat ehtiyojlari uchun naqa-dar zarur ekanligini yakkol anglab ytishi kyarak. Datslabki ma'lumotlar bilan qo'shni fan sohalarida qanchalik darajada hal qilinganligini ham nazarda tutishi kerak. Ilmiy-pedagogik tadqiqot-ning bu bosqichidagi eng muhim masala - bu mavzu qirralari muammolarini aniqlab olishdir, chunki busiz ilmiy ishning keyingi bosqichiga o'tish mushkul.

Tayyorgarlik ishlaridagi ikkinchi bosqich — bu mavzu tanlash va uning dolzarbligini ilmiy jihatdan asoslashdir. Mavzu bilan muammoning bevosita bog'liqligi pedagogika fani metodologiyasida eng muhim masalalardan biri sanaladi. Mavzuga nisbatan «yo'na-lish» tushunchasi ancha umumiy, chunki u bir hil mavzularni bog'-lovchi bo'lib hisoblanadi. Bunday holatda muammoni mavzuning mazmun jihatdan tavsifi sifatida qarash lozimga o'hshaydi, chunki unda pedagogik faoliyatning qandaydir bir qismining muammoli vaziyati aks etadi.

Tayyorgarlik ishlarining keyingi bosqichida tadqiqot obekti aniqlanadi, uning maqsad va vazifalari ifoda qilinadi, shuningdek, ishchi gipoteza (ilmiy faraz) ishlab chiqiladi.

Tadqiqot ob'ektini aniqlayotib, nima qaralayotir, degan sa-volga javob berish lozim. Tadqiqot predmyti esa ilmiy-tekshirish qirrasini belgilaydi, obekt qanday qaralishi haqida tasawur hosil qiladi.

Tadqiqot maqsadlari pedagogik jarayonning qandaydir bo'g'i-nida yangilikka erishish sifatida gavdalanadi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borishga tayyorgarlik ishlarining navbatdagi bosqichida ishchi reja-prospekt tuziladi.

Odatda, reja-prospekt o'z ichiga quyidagilarni qamrab olishi kerak:

1. Kirish. Muammoning qo'yilishi. Mavzuning dolzarbligini asoslash.
2. Tadqiqot muammosi, uning maqsadi, tadqiqot gipotezasi, obekt, predmet, tadqiqot masalalari (vaziflari).
3. Tadqiqotning tahminiy tarkibi (rejasi). Boblar va paragraflarning nomlari.
4. Tadqiqotda ko'zda tutilgan mazmun.
5. Tadqiqot metodikasi. Ish jarayonida tadqiqotning qanday metodlari va shakllari (umumiy va mahsus, ya'ni pedagogika va boshqa fanlardan o'zlashtirib olingan) qo'llanilishi asoslab beriladi.
6. Tajriba (eksperiment)ga doir materiallar, eksperiment olib borish uchun hujjatlar ko'rsatiladi.

Tadqiqot o'tkazish (2-blok) quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

- tanlangan muammo bo'yicha materiallar to'planadi va ular o'rganiladi;
- eksperimental materiallarni ishlab chiqish va ularni datslabki tekshiruvdan o'tkazish;
- pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ularga tuzatishlar kiritish;
- eksperiment o'tkazish, uning natijalarini maydonga tashlangan ilmiy farazga mosligini aniqlash.

Birinchi bosqichda tadqiqotchi muammoning nazariya va amaliyotidagi ishlanganlik holatini tahlil qilish kerak. Tadqiqot ishlariga kirishayotib, tadqiqotchi shu yo'nalish bo'yicha awalgi tadqiqotchilar qanday ishlar qilganliklarini aniqlashi, bunda ma'lumni noma'lumdan ajrata olishi kerak. Masalaning holati nazariyada qanday ekanligini tahlil qilmasdan turib to'laqonli tadqiqot o'tkazish mumkin emas.

Muammoning nazariyadagi ishlanganlik darajasi, odatda, tadqiqotning kirish qismida va qolgan qismlarda aks ettiriladi.

Tadqiqot olib borishning navbatdagi bosqichida eksperimental materiallar ishlab chiqish va ularni tekshirib ko'rish amalga oshiriladi. Maydonga tashlangan farazni tekshirish maqsadida tadqiqotchi tomonidan sinov, yoki tekshiruv, yoki oydinlashtiruvchi eksperiment tashkil qilinadi. Bunda eksperimental ishlar metodikasining o'zini puhta ishlab chiqish zarur, tadqiqot etilayotgan muammo bo'yicha kerakli eksperimental materiallarni tanlash lozim. Barcha eksperimental materiallar amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini tekshirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Datslabki tekshiruvlarga yakun yasashda reja va ishchi gipotezaga tuzatishlar kiritish kerak, bu esa ilmiy-pedagogik tadqiqotlar utsida olib boriladigan keyingi ishlar samaradorligiga ham yordam beradi. Datslabki eksperimental tekshiruvlar ilmiy-tadqiqotlar olib borishning navbatdagi bosqichida zarur pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ularga tuzatishlar

kiritishga imkon beradi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar tarkibi ikkinchi blokining so`nggi bosqichi eksperimental ishlar olib borishni nazarda tutadi va quyi-dagilarni o`z ichiga oladi:

- ishlab chiqilgan materiallarni eksperimental tekshiruv;
- materiallarni har hil vaziyatlarda sinovdan yoki muhokamadan o`tkazib ma'qullash;
- tadqiqot natijalarini muhokama qilish;
- pedagogik eksperiment ilmiy farazlarni, gipotezani tadqiqot ishlari materiallarini matbuotda chop etish. shirib ko`rishni o`zida gavdalantiradi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqot tarkibining uchinchi bloki tadqiqotga yakun yasash bo`lib, u ikki asosiy bosqichdan tuzilgan:

- tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish;
- tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish.

Tadqiqot natijalari, odatda, hulosalar va hotimada qayd qilinadi. Ayni mana shu tadqiqotning qaymohi, mag'zi hisoblanadi. Shu bilan birga shuni e'tiborda tutish kerakki, tadqiqotga yakun yasash qo'lga kiritilgan natijalarni umumlashgan variantda gavdalanadigan ilmiy ish -ko`rinishida rasmiylashtirishni nazarda tutadi. -Bunda tadqiqotchi qo'lga kiritilgan tadqiqot natijalarini keng ilmiy jamoatchilikka aniq va mantiqan yuqori saviyada bayon qilishga intili-shi kerak.

Olib borilgan tadqiqot natijalari amaliyotga ikki usul (yo`l) bilan tatbiq etiladi:

bevosita, ya'ni olingan natijalar To`g`ridan-To`g`ri itse'molchilarga tavsiya etiladi;

bilvosita, ya'ni olingan natijalar nazariyaga kiritiladi va u nazariyani boyitgan holda u bilan birga tarkibiy qism sifatida amaliyotga o`z ta'sirini o`tkazadi.

Real hayotda, odatda, tadqiqot natijalari amaliyoti har ikkala yo`l bilan o`zaro aloqada tatbiq etiladi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar tarkibining so`nggi, to'rtinchi bloki tadqiqot natijalarini baholashni nazarda tutadi va o`z ichiga tadqiqot samaradorligi mezonlarini ishlab chiqish hamda o'rgani-layotgan muammo bo'yicha yangi yo'nalishlarni aniqlashni ko`zda tutadi.

Fundamental tadqiqotlar samaradorligining etakchi mezonlaridan biri-tadqiqotning nazariy ahamiyatidir. Fundamental pedagogik tadqiqotning bosh mezon, eng awalo, uning natijalarini nazariyani rivojlantirishga, uning ichki mantiqiga ta'siridir.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar samaradorligining, ikkinchi, yana bir muhim mezon - bu uning yangiligidir.

Bu mezon tadqiqotning nazariy ahamiyati bilan mutsahkam bog'langan.

Pedagogika sohasidagi tadqiqotlar samaradorligining navbatdagi mezon

deb ilmiy ishning konseptualligini, ya'ni tadqiqotchining nazariy va metodologik nuqtai-nazarini, o'rganilayotgan muammoning har tomonlama asoslab burilishini aytish mumkin. Tadqiqot konseptualligi ilmiy asoslanganlik bilan mutsahkam aloqada bo'ladi. Bundan tashqari, tadqiqotning itsiqboliligi, uning natijalarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari katta ahamiyat kasb etadi.

Tatbiqiy tUSDagi tadqiqotlarni baholashda asosiy ko'rsatkichlar bo'lib ishning amaliy jihatdan ahamiyati va dolzarbligi hisoblanadi.

Tatbiqiy tUSDagi tadqiqotlarni baholash uchun zamonaviy metodlardan unumli foydalanish kerak, shundagina olingan natijalarning ishonchlilik darajasi haqqoniy bo'ladi.

Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari qanchalik To'g'ri tanlansa, ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu dara'jda yaqshilanadi, pedagogika fani ham boyib boradi. Shu sababli, pedagogik ilmiy-tadqiqot usullariga dogmatik yondashish mumkin emas. Ikkinchi tomondan, ilmiy tadqiqot usullari tizimi hali hozircha fanda to'la yaratilgan va ishlab chiqilgan emas.

MUTSAQIL ISH BOSQICHLARI

1-bosqich: Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini aks ettiruvchi chizmalar yaratishga harakat qiling va «eng namunaviy ko'rgazma» konkursida ishtirok eting.

2-bosqich: Internet tarmog'i orqali «Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari* mavzusida ma'lumot yig'ing va ularni tahlil qiling.

3-bosqich: Nazariy dalillarga asoslangan holda quyidagi savol-larga yozma javob bering:

1. «Metod» so'zining mohiyatini qanday tushunasiz?
2. Pedagogikada qanday ilmiy tadqiqot metodlari qo'llaniladi?
3. Pedagogik kuzatish va suhbat uslublariga qanday talablar qo'yiladi?
4. Qanday yo'llar bilan bolalar ijodini o'rganish mumkin.
5. Pedagogik tadqiqotda tets vja_,so'rovnomalarning o'rni qanday?
6. Pedagogik eksperimentlarning fan taraqqiyotiga ta'siri to'g'risida mushoqada qiling.
7. Ilmiy tadqiqot metodlariga ijodiy yondashuv deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yhati

1. Karimov I. A. Barkamol avlod — O'zbekiston Taraqqiyotining poydevori. - Toshkent. «Sharq», 1997.
2. Karimov I.A. Milliy itsiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar - Toshkent, «O'zbekiston», 2000.
3. Karimov I.A. Sog'lom avlod - halqimiz kelajagi. «Halq so'zi* gazetasi, 8 dekabr 1999.
4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim To'g'risida»gi Qonun. - Toshkent, 1997.
5. Kadriar tayyorlash Milliy dasturi. — Toshkent, 1997.
6. Ibragimov H.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika. O'quv qo'llanma. — Toshkent, «Fan», 2005. 25-31-b.
7. Abdullaeva Sh. A. O'quvchilarni pedagogik tashhislashda qo'llaniladigan metodlar
G'G` Halq ta'limi, 2003 ,N°3, 40-45-b.
8. Abdulloh Avloniy. Muhtasari tarixi anbiyo va tarixi islom. -T., «Fan», 1994. 293-b.
9. Klouer K. Педагогическое диагностирование. - М.: Лорос,1999, 421-стр.

4. MAVZU; DIDAKTIKANING ASOSIY TUSHUNCHALARI , QONUNIYATLARI .

REJA ;

- 1.Didaktika haqida tushuncha .
- 2.O'qitish jarayoning ri vojlantirish fun siyalari
- 3.Asosiy didaktik tushunchalar
- 4.Davlat ta'lim standartlari .

Didaktika –grekcha so'z bo'lib ,''didasko'', ya'ni ''o'qitish 'o'rganish' ma'nolarini bildiradi .Talim qonuniyatlarini o'rganish tahlil qilish jarayonida ta'lim tushunchasini uning mohiyati mazmun vazifalari o'qitish prinsiplari shakllari haqidagi bilimlar bayon etiladi. Didaktika pedagogikaning ''nimaga o'qitish '' ''nimani o'qitish '' va ''qanday o'qitish '' kabi savollarga javob izlaydi .

Talim -inson iyat tajribasining ma'lum tomonlarini ya'ni o'quv chilar ijtimoiy taraqqiyotini hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir. O'qituvchi ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi , balki bu jarayonda o'quvchi talabaga tasir ko'rsatadi, bu esa ularning bilim olishlarini yanada faollashtiradi , natijada o'quvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi . Talimdagi yutuqlar , avvalo , o'qituvchiga bog'liq . Mutahasis sifatida o'z fanini chuqur bilishi , pedagogic muloqat ustasi bo'lish , psixalogik –pedagogik va uslubiy bilim va malakalarni egallashi, har hil pedagogik vazifalarni zudlik bilan o'rganish va baholash , pedagogik ta'sir ko'rsatishning maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak .

Mustaqil ishlash iste'dodini shakllantirish , kasbiy layoqat hissini, pedagogik voqea va hodisalarni taqqoslash , tahlil qilish va hulosalash ko'nikmalarini rivojlantirish -bularning barchasi ta'lim jarayoninig asosiy vazifalaridir.

Talim jarayoni – ma'lumot mazmuni hamda unga oid faoliyat usullarini o'quvchilarning o'zlashtirishi uchun o'qitish va o'qish faoliyatlarining real aloqalalashuvi sababiyotli bog'lanishi , bir-biriga muvofiqlashuvi asosida ta'limning aktlar, zvenolar, cikllar shaklida makon va zamonda harakatlanadigan maqsadga muvofiq shirkat faoliyatidir .

Ta'limning asosiy vazifalari shahsni ilmiy bilimlar ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat . Ta'lim inson bilish faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi. Ya'ni ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularda dunyoqarash , fikr va etiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdir.


Ta'lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to'plagan bilimlar beriladi, zaruriy ko'nikma va malakalar hamda e'tiqodlar shakllantiriladi . Ta'lim

o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, ikki tomonlama harakterga harakterga ega, ya'ni unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi faol ishtirok etadi. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlab, reja va dastur asosida bilim, ko'nikma va malakalarni singdiradi, o'quvchi esa uni faol o'zlashtirib oladi. Bildirish, bilish murakkab, qiyin, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psihikasiga tegishli sezgi, idrok tasavvur va tafakkur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi va muhim rol o'ynaydi. Ta'lim berish, yoshlarga bilim berish, ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ya'ni haqiqatlarni ocha olishga qodir bo'lgan jiddiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir.

Bilim o'zlashtirilayotganda psihikaning nomoyon bo'lish shakllari .

Psihik jarayon	Psihologik holatlar	Shahsning husuyatlari
Bilish jarayoni	Hissiy irodaviy	Individuallik
Sezgilar	Emotsiyalar	Yo'nalishlar
Idrok	Etiodlar	Temprament
Hotira	Bardamlilik	Harakter
Tafakkur	Tetiklik	Qobiliyatlar
Hayol	Apatiya	Iqtidor
Nutq	Qiziquvchanlik	Aqliy salohiyat
Diqqat	Hayratlanish	Hulq motivatsiyasi
	Ishonchlilik	Ish uslubi
	Ijodiy ruhlanish	Ma'suliyat

O'qituvchi, o'quvchi va talabalardagi fikrlash jarayonni to'g'ri yo'lga solish uchun amaliyot har qanday bilishning negizidir, degan qoidani hisobga olish zarur. Ta'limda o'qituvchi bilim berish bilan cheklanmaydi, o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga ham rahbarlik qiladi, o'quvchilarda ishdagi mustaqillik, ijodkorlik qobiliyatlarini o'stiradi va shu tariqa o'rganilayotgan narsaning ongli ravishda o'zlashtirib olishga erisqiladi, materialni idrok qilishlari va tushunib olishlari bilan birga, uni puhta esda saqlab qolishlari to'g'risidagi ham g'amho'rlik qiladi .



O'qituvchi o'quvchi –talabaning bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o'quv ishlarini olib borar ekan, avvalo ta'lim jarayoni orqali uch vazifani, ya'ni bilim berish orqali uch maqsadni hal, qilish lozimligini unutmasligi kerak. Bu maqsadlar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini birlashtiradi.

1. Ta'limiy maqsad –O'quv materialining mazmunini bilish, ya'ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq qila olishdir.

2. Tarbiyaviy maqsad – fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar tasirida o'zining shahsiy sifatlarini, imon-eti'qodlarini shakllantirishdir.

3. Rivojlantiruvchi maqsad –ta'lim jarayoni tasirida shahsning aqliy kamolatini, bilish qobiliyatini, o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat .

Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida o'quvchi –talaba mustaqil ishlash iste'dodi paydo bo'ladi. Uni o' ylashga o'rgatadi., ta'lim jarayonida tafakkur hukmronlik qiladi.

Bu bog'liklikni, avvalo, ta'limni amalga oshirish bosqichlardan ko'rishimiz mumkin. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat :

1. O'quv materiallarini idrok qilishdan iborat . Bunda o'quvchi talaba ta'limning mazmuni bilan tanishib, o'zining bilish vazifalari nimalardan iborat ekanligini tushunib oladi. Bunda sezgi, idrok, tasvvur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi.

2. U lar o'quv materiallarini tushunib oladilar, uning mohiyatini anglaydilar va umumlashtiradilar. Natijada ularda yangi bilimlar paydo bo'ladi. Buning uchun ular analiz, sintez, taqqoslash hulosa chiqarishdan foydalanadilar .

3. Yangi bilimlar, mashqlar, mustaqil ishlar , o'qituvchining qo'shimcha izohlari orqali mustahkamlanadi.

4. Ular o'zlashtirib olgan bilimlarni imkoniyatga qarab amaliyotga tatbiq qiladilar.

Bularni bilish orqali o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishi

mumkin. Shuning uchun o'uv jarayonining hamma bosqichlarida o' qituvchi yetakchilik va boshqaruvchilik rolini o'ynaydi. Yuqoridagi fikrlardan hulosasi chiqaradigan bo'lsak, o'qitish jarayoni bilish faoliyatining muhim tarmog'i sifatida qator vazifalarni bajaradi. Jumladan;

1. O'quvchi va talabalarda bilim ko'nikmalari va malakalarini hosil qiladi.
2. Ularda dunyoqarash, ishonch va e'tiqodlarini o'stiradi.
3. Yoshlarni muayyan darajada o'qimishli, muayyan tarbiyali kishilar bo'lib yashishlariga, qobiliyat va istedodlarini o'stirishga erisqiladi.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun o'qituvchida o'z kasbiga layoqat bo'lishi lozim. Layoqatlilik pedagogik mehnatni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo'lishdir. Bu, avvalo, pedagogik kasbning ijtimoiy roli va zaruriyatni yaqqol tasavvur qilishda ko'rinadi. Bundan tashqari o'qituvchi o'quvchiga qiziqib qarashi, uning ehtiyoj va husuyatlarini tushuna bilishi lozim.

O'qituvchi keng ko'lamda didaktik bilimlarga, pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari darajasida ta'lim jarayonini tashkil qiladi va boshqaradi.

Mustaqil ishlatsa uchun adabiyotlar

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T., «Sharq», 1997.
2. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. - Toshkent, «O'zbekiston», 1998.
3. Abduqodirov A. Umumta'lim maktablari uchun elektron darslik yaratishning nazariy asoslari // «Pedagogik mahorat». 2003. 2-son, 6-10-betlar.
4. Pedagogika. O'quv qo'llanma. A. Munavvarov tahriri otsida. - T., 1996. 68-74-betlar.
5. Roziqov O. va boshq. Didaktika. Darslik. - T., «Fan», 1997, 81-109-betlar.
6. Tursunov I.Y., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi.- T., «O'qituvchi», 1997, 89-92-betlar.
7. Musaev U. va boshq. Darslik - bilim, ma'lumot va ahborot manbai // «Ma'rifat gazetasi», 2003-yil 26 fevral.
8. Ibragimov H.I. Abdullaeva Sh.A. Pedagogika. O'quv qo'llanma.-T.,«Fan», 2004, 234-239-betlar.

Topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasining ta'lim To'g'risidagi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida aks ettirilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillarini o'rganing.
2. Ommaviy ahborot vositalari, Internet tarmog'i orqali mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy sohalarda islohotlar haqidagi ma'lumotlarni to'plang va ularni tahlil qiling.
3. Nazariy dalillar ruknini sinchiklab o'qing va: a) ta'lim jarayonining tuzilishi (bosqichlari) aks etgan chizma tayyorlang; b) ta'lim jarayonining mohiyati va vazifalari, o'qitish jarayonining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish funksiyalari haqida og'zaki gapirib bering.

Mavzu yuzasidan zarur manbalar

- a) O'zbekiston Respublikasining ta'lim To'g'risidagi Qonuni;
- b) Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi;
- s) Pedagogik ta'lim Konsepsiyasi.

5. MAVZU: TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI

1.O'qitish usullarining ta'lim jarayonidagi ahamiyati.

2.Ta'lim metodlari tasnifi

3.Ta'lim vositalari

O'qitish metodi deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va O'quvchi faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. O'qitish usullari har ikkala faoliyatning: a) o'qituvchi tomonidan O'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish; b) O'quvchilar tomonidan berilayotgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llanadigan yo'llarni o'z ichiga oladi. Ta'lim berish o'qituvchidan izlanishni, pedagogik tnahoratni talab qiladi. Ilmiy salohiyati boy bo'lgan utsozgina mavzuni talabalarga mahorat bilan etkazib beradi. Mavzuning maqsadiga qarab, ta'lim metodlarini tanlay biladi, kerakli vositalardan o'z o'rnida foydalaniladi.

Ta'lim metodi ta'limning maqsadi va vazifalariga bog'liq. Metodlar O'quvchilarning yoshiga ta'limning mazmuniga va funktsiyasiga qarab tanlanadi.

Metodlarni har qanday muammoni uzatish va qabul qilish harakteriga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarining bilim saviyasi, o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda quyidagi metodlar qo'llaniiadi:

o'qitishning og'zaki metodi;

o'qitishning amaliy ishlar metodi;

o'qitishning ko'rgazmali metodi;

muammoli evritsik modellashtirish metodi;

o'qitishning muammoli izlanish va reproduktiv metodi;

o'qitishning induktiv va deduktiv metodi;

o'qitishda rag'batlantirish va tanbeh berish metodi;

o'qitishda nazorat va o'z-o'zining nazorat qilish metodi.

Metodlar o'z navbatida guruhlariga bo'linadi:

(Ta'lim metodlarini solishtirib o'rganish maqsadida quyidagi shakldagi T-chizmadan foydalanamiz. Uning mohiyati va qo'llanish qoidalari oldingi mavzularda berilgan).

Ta'limning og'zaki metodlari		Ta'limning amaliy metodlari		Ta'limning muammoli metodlari	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi

O`quv informatsiyasini so`z orqali uzatish va ahborotni eshitish orqali qabul qilish metodlariga nimalar kiradi va ularga qanday talablar qo`yiladi?

O`qitishning og`zaki metodlari uch turga: a) o`qituvchining hikoyasi; b) suhbat; v) maktab ma'ruzasiga bo`linadi.

Hikoya usuli boshlang'ich sinflarda ko`p qo`llansa, yuqori sinflarda ma'ruza usuli ko`p qo`llaniladi. Ta'lim mazmuni notanish boisa hikoya va ma'ruza usullari qo`llaniladi.

Ta'lim mazmuni o`quvchiga qisman tanish bo`lsa suhbat usuli qo`llaniladi. Og`zaki bayon qilish usulida har ikkala faoliyatning o`qituvchining bayon qilishi va o`quvchilarning shu bayon qilingan bilimlarini diqqat bilan tinglab ongli va mustahkam o`zlashtirishlari birligiga amal qiladi.

Hikoya maktab ta'lim tizimida eng ko`p qo`llanadigan usul bo`lib, u hamma sinflarda barcha fanlarni o`qitishda, maktab ta'limining hamma bosqichlarida qo`llaniladi. Boshlang'ich sinflarda bu ancha qisqa va aniq bo`ladi, sinflarning o`rta guruhiga kelib hikoya ancha kattaroq hajmda va davomli bo`ladi. Yuqori sinflarda hajmi katta bo`ladi, ma'ruzadagi kabi butun darsni band qilmaydi.

Nutq madaniyatini o`qitishda hikoyaning o`rni katta bo`ladi. Shu jihatdan o`qitishning og`zaki usullari ta'limda doimo eng ko`p qo`llaniladi

O`quv ma'ruzasi - o`quv materialini og`zaki bayon qilish uchun mo`ljallangan. Uning hajmi hikoyadan katta bo`ladi. O`quv ma'ruzasi dars yoki mashg`ulotning barcha qismini egallab oladi.

Ma'ruza, asosan, yuqori sinflar, kollej va oliy o`quv yurtlarida qo`llaniladi. Maktab ma'ruzasi o`tilayotgan mavzuning haqiqiy ilmiy mohiyatini ochib berish, ulardan ilmiy hulosalar chiqarish va umumlashtirish yo`li bilan to`liq mashg`ulot davomida bilimlarni izchillik bilan bayon etishdir.

O`quv materialini og`zaki bayon qilish usuli quyidagi bir qator didaktik qoida va talablarga asosan qo`llaniladi:

Bayon qilinayotgan materiallar g`oyaviy jihatdan mazmunli, ilmiy hamda nazariyani amaliyot bilan bog'lashga qaratilgan bo`lishi kerak. Bayon qilinadigan materiallarning tarbiyaviy ahamiyatini To`g`ri ko`rsatish orqali O`quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko`rsatish. Bayon qilishda o`qituvchining nutqi yagona manba hisoblanadi va u nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bayon qilishda o`qituvchi ishlatadigan ta'riflar, qoida vaqonunlar kitob matnidan farq qilishi, mazmuniga mos bo`lishi kerak.

Qanday hollarda suhbat usuli qo`llaniladi? Uni qo`yishda qanday qoidalarga amal qilish lozim?

Suhbat usuli - savol-javob usuli deb ham yuritiladi.

O`quvchilar darsga etarli darajada tayyor bo`lsa o`qituvchi rahbarligida muammoli savollarga javoblarni o`zlari ahtarib topadigan suhbatlar maqsadga

muvofigdir. Bunday suhbatlar evritsik izlanish, ahtarib topish harakterida bo`ladi.

O`qitish jarayonida o`rganilayotgan mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo`llaniladi.

Suhbatlar, ayniqsa, o`qitishning tarbiyalovchilik harakterida dunyoqarash, e`tiqodni tarkib toptirishda qo`l keladi. Suhbatlar butun sinf hamda O`quvchilarning ayrim guruhlar bilan ham o`tkaziladi.

Suhbatlar orqali: a) O`quvchilarning o`z hayotlarida uchratgan voqea, hodisalar yuzasidan savollar berish orqali o`quvchilarning mustaqil fikr qilishlarini amalga oshiradigan holatlarga e`tibor qilish; b) O`quvchilarning ilgari o`rgangan tayanch bilimlarini esga tushirishga erishish lozim. Suhbat usuli bilan ish ko`rganda o`qi-tuvchi quyidagilarga amal qilishi lozim:

O`qituvchining suhbat uchun tayyorlab kelgan savollari sinf O`quvchilarining hammasiga taalluqli bo`lib, so`roq o`rtaga tashlanishi kerak.

O`quvchilardan biri javob berish uchun chaqiriladi.

Sinfning hamma O`quvchilari javob berayotgan O`quvchini qunt bilan tinglashi, uning javobini to`ldirishi, tuzatishi, oydinlashtirishga yordam berishini ta'minlashi kerak.

4. O`quvchilarning javobi qay darajada to`g`ri-noto`g`ri bo`lishidan qat'i nazar o`qituvchi tomonidan izohlanishi, yakunlanishi va baholanishi zarur.

Ta'lim jarayonida turli ko`rgazmali qurollardan foydalanishga harakat qilamiz. Ho`sh, ushbu o`quv informatsiyasini ko`rgazmali uzatish va ko`rish orqali qabul qilish metodining ahamiyati qanday? Ko`rgazmalilikning qanday turlari mavjud? degan savollarga javob topishga harakat qilaylik.

Ko`rgazmali usulning muhimligi o`rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga o`quvchini undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishga, nihoyat nazariy bilimlarni amaliyotda qo`llay olishga o`rgatishdan iborat.

Ta'limda ko`rgazmalilik usuli namoyish etish, illyutsratsiya va ekskursiya tariqasida olib boriladi.

Ta'lim jarayonida namoyish etish usulidan foydalanish asosiy materialning harakteriga - mazmuni, shakli va hajmiga bog'liq. Bu harakter ikki turlidir:

Aslicha ko`rsatilishi mumkin bo`lgan buyum va narsalar: o`simliklar, ularning tarkibi, hayvonlar, ma'danlar, kolleksiyalar, asbob va mashinalar, modellar va h.k.

Tasviriy ko`rgazmali materiallar: A) buyum, narsa, hodisa va voqealarning tasvirini ifodalovchi materiallar, rasm, surat, fotosurat, diafilm va h.k. B) buyum, narsa, oqealarning biror shartli belgisi orqali ifodalangan simvolik va shematik tasviriy materiallar

geografiya va tarix kartalari, chizmalar, jadvallar, diagrammalar va h.k.

Tasviriy ko`rgazmali materiallar turliligi har hil qo`llashni talab etadi.

Masalan:

1. Buyum va narsalarni tabiiy holda ko'rsatishni ikki usulda namoyish etiladi:

a) o'tilayotgan mavzuga oid badiiy ko'rgazma materiallari O'quvchi bayon qilayotgan bir vaqtda (faqat o'qituvchi ko'rsatadi);

b) tabiiy ko'rgazmali materiallarning soni etarli bo'lsa ular har bir O'quvchiga tarqatib beriladi.

2. Tasviriyl ko'rgazmali materiallarning har ikkala turini ham ikki hil usulda olib borish mumkin:

a) ko'rgazmali materiallarni o'qituvchi namoyish etadi;

b) ko'rgazmali materiallar o'quvchiga tarqatiladi.

O'qitilayotgan mavzuning harakterini hamma vaqt sinfda ochib bo'lmaydi. Bu holda nima qilish kerak? Ekskursiya metodidan foydalanish mumkin. Mavzuni ekskursiya usuli bilan ham ko'rsatish mumkin. Bu usulda o'rganilayotgan narsa hodisalarni tabiiy sharoitda zavod, fabrika, tabiatda, muzey, ko'rgazmalarda tashkiliyl ravishda ko'rsatiladi. Agar ko'rsatilayotgan joyda o'tilayotgan mavzu mazmunini keng ochib berish imkoni bo'lsa, buni o'qituvchi oldindan borib kuzatib keyin O'quvchilarni olib boradi, ekskursiya usulidan foydalanadi, O'quvchilar ekskursiya davomida obekt ustidan ma'lumotlarni eshitish yoki kuzatish bilan chegaralanmasdan zarur materiallarni yozib oladilar, rasmini chizadilar, o'lchash, hisoblash ishlarini olib boradilar.

O'qituvchi ekskursiya ohirida mulohaza va fikrlarni umum-lashtirib, hulosa chiqaradi va mashg'ulotni yakunlaydi.

O'qitishning amaliyl metodlarini qo'llash O'quvchilarga nimalar beradi?

O'quv informasiyasini amaliyl mehnat harakatlari orqali berish (amaliyl metodlar, mashqlar, laborotoriya, ishlari, dastur tuzish, pedagogik masalalarni echish, mehnat harakatlari va boshqalar).

O'qitishning amaliyl usullari doirasi keng. Bu usullarga: yozma mashq, tajriba, laborotoriya harakteridagi mashqlar, mehnat topshi-nqlarini bajarish kabilar misol bo'ladi.

Yozma mashqlar jarayonida olingan nazariyl bilimlar bevosita amaliylotda qo'llanadi. Mashq qilish davomida ilmiyl bilim va ma'lum ish harakat o'zlashtiriladi, takomillashadi, ular aniq o'quv fanining harakteri hisobiga maqsadli, rejali tarzda amalga oshadi. Mashq davomida har bir mashq e'tiborga olinadi. Masalan, ona tilidan grammatik tahlil, matematikadan misol, masala echish, tabiiyl fanlardan himiyaviyl tenglamalar tuzish, koeffitsientlar tanlash, masala echish, o'simliklarni turlarga ajratish va h.k. Mashq davomida ilgari egallangan bilim, ko'nikma, malakalar, qonunlar faoliylatga tatbiq etiladi.

O'quvchilarning o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalarni mustahkamlash ijodiy qobiliylatlarini rivojlantirish asosida olib boriladi:

mashq uchun berilgan topshiriqning maqsadi O`quvchi larga aniq tushuntirilgan borishi;
mashq ustidan sinf o`quvchilar jamoasi va har qaysi o`quvchilarning shahsiy intilish, qiziqishini hisobga olishi;
topshiriq butun sinf o`quvchilarining aktiv faoliyatini ta'minlaydigan bo`lishi va mashqni belgilangan vaqt ichida bajarishi talab etiladi.

Mashq qilishda o`quvchilarning yozma, ijodiy mashqlari alohida o`rin egallaydi.

Yozma ijodiy mashqlar ona tili, adabiyot, tarix, geografiya fanlarida ham qo`llaniladi. Ular insho, va'z, referatlar yozish kabilarda o`z aksini topadi.

O`quvchilarning yozma grafik ishlari rasm solish, haritalar chizish, chizma va shemalarishlash, jadval, diagramma, grafik, plakat, albom, stendlar ishlash, laboratoriya mashq ishlari, tajribalar o`qitish jarayonida o`quvchilarga atrofni o`rab olgan obektlarni borliqdagi narsa va hodisalar, ularning shakli, hajmi, tarkibi, tuzilishi, o`zgarish va rivojlanishi qonuniyatlari haqida **yangi bilim beradi**. Bu usullar o`quvchilar bilan yoppasiga va alohida olib boriladi.

Amaliy mashg`ulotlar o`quvchilarga umumiy politehnik ta'lim berish va mehnat malakasi bilan qurolantirishda asosiy usul bo`lib hizmat qiladi.

O`qitishning reproduktiv metodini qachon qo`llash mumkin?

Bu usullar o`quvchilarning yangi tushuncha, hodisa va qonunlarni bilishdagi ijodiy faolliklari darajasini baholash asosida qismlarga ajratiladi. Reproductiv usullar o`quvchilarning o`quv materiallarini mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash, bilishga doir faoliyatni bevosita Goshqarish, kamchiliklarni tez aniqlash uchun amaliy ko`nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo`llaniladi.

Reproduktiv usullar - o`quv materialining mazmuni, asosan, ahborot harakterida bo`lsa, amaliy harakatlarning usullarini ta'riflasa, o`quvchilarning bilimlarini mustaqil qidirib ola bilishlari uchun juda yangi hisoblansa, vaziyatlarni hal qilish uchun tayyor bilimlar yo'q bo`lsa, samarali qo`llanadi.

Bu usulda tafakkur qilish katta samara beradi. Reproductiv usulda o`quvchilar ilgari yoki yaqinda egallagan bilimlarini qo`llaydi.

Muammoli ta'lim nima? Qanday qilib nomuammoli vaziyat yaratish mumkin?

Muammoli deyilganda o`quv materialini o`quvchilar ongida ilmiy izlanishga o`hshash bilish vazifalari va muammolari paydo bo`ladigan qilib o`rganish tushuniladi.

O`quvchilarning fikrlash faoliyatida mantiqiy to`g`ri, ilmiy hulosalarni izlash va o`zlashtirishga rag`batlantiradigan muammoli vaziyatlar vujudga keladi.

Har qanday ta'lim o`quvchi uchun muammolidir. O`quvchi ongida muammoli vaziyatni vujudga keltirish, o`quvchining faol fikrlash faoliyati

o`quv materialini puhta o`zlashtirib olishlari haqida sharq pedagoglari qimmatli fikrlar aytib o`tganlar.

Mutafakkir Abu Rayhon Beruniy (937-1048) didaktik qarashlarida o`quvchilarni o`qitish hamda tarbiyalash jarayonida, birinchidan, turli mavzularda mulohazalar yuritishni, o`quvchining zerikmasligini, zo`riqmasligini ta'kidlagan.

Muammoli vaziyatda:

O`quvchi uchun bilish qiyinchiligiga ega, ya'ni o`rganilayotgan muammo ustida fikr yuritish;

O`quvchilarda bilishga qiziqish o`yg'otish;

tahlil jarayonida o`quvchilarning awalgi tajribasi va bilimiga suyanish.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatni vujudga keltirish, undan foydalanish usullarini yaratish, ta'lim tizimining har bir bosqichida o`rganiladigan fanlarga hosdir.

Muammoli vaziyat fanning mazmuni o`ziga hos harakter husu-sryatlari, uni o`rganish usullarini hisobga olgan holda yaratiladi.

Ta'lim jarayonida o`qitishning induktiv va deduktiv usullariga ehtiyoj sezilmoqda. Qanday holda induktiv va deduktiv usullar qo`llaniladi? Ayniqsa, deduktiv o`qitishga talab va e'tibor kuchaydi. Bu usulda tafakkur qilish katta samara beradi. Induktiv yoki deduktiv usullarni qo`llash o`rganilayotgan mavzu mazmunini ochishning ma'lum mantig`ini - hususiydan umumiyga yoki umumiydan hususiyga o`tishni tanlashni anglatadi.

Induktiv usullar teknik qurilmalarni o`rganishda va amaliy topshiriqlarni bajarishda keng qo`llaniladi.

Deduktiv usul o`quv materialini tezroq o`tishga yordam beradi, tafakkurni birmuncha faol rivojlantiradi.

Nazariy materialni o`rganishda anchagina umumiy holatlardan ayrim oqibatlarni aniqlashni talab qiluvchi masalalarni echishda deduktiv usulni qo`llash, ayniqsa, foydalidir.

Ta'limda rag`batlantirish va tanbeh berishning qanday turlaridan foydalaniladi?

Ta'limga qiziqishni rag`batlantirish metodi.

Ta'limga burch va mas'uliyatni rag`barlantirish metodi. O`quv faoliyatini rag`batlantirish deb kishining aktiv faoliyatiga bo`lgan tashqi mayliga aytiladi. Shu sababli, rag`batlantirish o`qituvchi faoliyatining omili hisoblanadi.

Rag`batlantirish kishining ichki mayliga ta'sir qilganda real maqsad sari undaydigan kuchga aylanadi. O`qishga qiziqishni rag`batlantirish turlaridan biri-o`qishda ma'lum qiyinchilik sezayotgan O`quvchilarga muvaffaqiyatli sharoit yaratishdir.

Rag`batlantirish va tanbeh berish usullari o`ziga hos hususiyatlarga ega.

Rag`batlantirish: baho bilan, imo-ishora bilan, mukofot bilan amalga oshadi.

O`qishga doir tanbehlar dars paytida, og`zaki-tanbeh berish, bahosini pasaytirib qo`yish, ish daftariga yozish, hatolarni ko`rsatish kabi usullar bilan amalga oshadi.

Maktabda o`quvchiga tan jazosi berish, o`zlashtirmagani uchun haqorat qilish, shahsiga tegish, yomon iboralar bilan so`kish aslo mumkin emas.

Ta'limda nazorat va o`z-o`zini nazorat qilish metodlarining zarurati nimada va uning qanday turlari bor?

Og`zaki nazorat va o`z-o`zini nazorat qilish.

Yozma nazorat va o`z-o`zini nazorat qilish.

Laboratoriya - amaliy nazorat va o`z-o`zini nazorat.

Test nazorati.

O`qitish tizimida nazoratning zarurligi shundan iboratki, butun o`quv yurtlari tizimiga samarali ishlayotganligi haqida ahborot olishga bo`lgan ijtimoiy ehtiyoj hisobga olinadi.

Nazorat maktabdagi o`qitish jarayoniga hos bo`lgan: ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantirishdek asosiy vazifalarni bajaradi. Nazoratni quyidagi turlarga bo`lish mumkin:

Og`zaki nazorat - yakka va guruhiiy so`rash yo`li bilan amalga oshiriladi. Alohida so`rashda o`qituvchi ma'lum vaqt davrida o`quvchilar tushuncha, qonun nazariya holda dalillarni qay darajada egallaganliklarini aniqlaydi. O`quvchilar bilimi ona tili, matematika, fizika, kimyo fanlarida yozma tarzda ham baholanadi.

Yozma ishlar turli davomiylikka ega, ayrim vaqtda qisqa, ayrimda esa to`la dars davomida yozma ishlar o`tkaziladi. Yozma nazoratda baholar obektiv bo`lishi va o`quvchilarning tipik hatolari aniqlanib, kelgusida ularning bartaraf etilishi belgilab olinadi. O`z-o`zini nazorat qilish-o`quvchilarning o`quv faoliyatini muhim elementidir. Nazorat kelgusidagi ishlarga reja tuzish nimalarga e'tibor berish kerakligini aniqlab beradi.

Ta'lim maqsadini muvaffaqiyatli amalga oshirish yo`lida ta'lim vositalaridan foydalaniladi. Kompyuter, Multimedia, kodaskop, filmskop, logorifm lineykasi, sirkul, apparat turlari - bular jumlasiga kiradi.

Ta'lim metodlarini to`g`ri tanlash va ulardan o`rinli foydalanish - ta'lim samarasini ta'minlashga yordam beradi. Ta'lim metodi mavzuning maqsadiga qarab tanlanadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar?

O`qitish usullarining ta'lim jarayonidagi ahamiyati qanday?

Uslub va vosita nima? Ularning mohiyatini ochib bering.

O`qitishning ogzaki usuli qanday turlarga bo`linadi?

O`qitishning ko`rgzmali usulidan foydalanishga qo`yilgan talablar qanday?

O`qitishning amaliy usullariga nimalar kiradi?

O`qitishning reproduktiv va muammoli izlanish usullarini qaysi hollarda qo`llash yaqshi samara beradi?

O`qitishning induktiv va deduktiv usullarini qo`llashga doir misollar keltiring (mutahassislik faningiz misolida).

Agar siz o`qituvchi bo`lganingizda ta'lim tizimini yaqshilash uchun yana qanday metodlarni tatbiq etgan bo`lardingiz?

Muammoli izlanish va reproduktiv metodlarining qo`llanilishini o`z mutahassislik faningiz misolida aytib berishga tayyorlaning.

Ahborot manbalari

1.I.A. Karimov. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1998.

2.Pedagogika. O`quv qo`llanma. A.Munavvarov tahririda. T., «O`qituvchi», 1996, 86-102-b.

3.N.G`aybullaev, R.Yodgorov. Pedagogika. Ma'ruzalar matni. T., 2000, 104-110-b.

4.I.Tursunov, U.Nishonaliev. Pedagogika kursi. T., «O`qituvchi», 1998.

G`aybulloh as-Salom. Ezgulikka chog`lan, odamzod. T., «Sharq», 1997, 312-313-b.

6-mavzu: Zamonaviy ta'lim mazmuni va ta'limning tashkiliy shakllari.

Режа:

1. Talimning asosiy mazmuni.
2. Ta'lim shakllarining tarihan paydo bo'lishi.
3. Ta'limning asosiy shakli –dars va unga qo'yilgan talablar.
4. Ta'limning samaradorligining ta'minlovchi no'anaviy shakllar.

1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qabul qilindi. Bu qonunda ta'kidlanishicha, ta'limning mazmuni har bir o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga va dunyoviy demokratik jamiyat baht - saodati yo'lidagi yuqori unumli mehnatiga barkamol avlod qilib tayyorlash bilan belgilanadi.

Ta'limning asosiy mazmuni uning vazifalarida oydinlash-tiriladi. Asosiy vazifalarga aqliy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi.

Yangi demokratik jamiyat qurishda ta'limning mazmuni bu jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib quyidagilarga amal qilgan holda belgilanadi:

1. ilmiy bilimlarni etakchi roli to'g'risidagigi qoidaga;
2. insoniyatning madaniy-ma'rifiy merosiy boyliklarini umuminsoniy qadriyatlarni egallab olish haqidagi "Milliy datsur" ko'rsatmalariga;
3. tarbiyalanuvchi shahsni barkamol qilib rivojlantirish, iymon e'tiqodini, ilmiy dunyoqarashini tarkib toptirish;
4. ilmiy hayot bilan yangi demokratik jamiyat qurilishi tajribasi bog'liqligi haqidagi qoidaga;
5. ta'limning bir maqsadga qaratilganligi;
6. ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplariga va didaktik prinsiplariga muvofiqligiga amal qilinadi.

"Yangi demokratik jamiyat qurayotgan bizning mamlakatimizda ta'limning mazmunini quyidagi yo'llar bilan takomillashti-rishni nazarda tutiladi:

- fan va tajribadagi eng yangi muvaffaqiyatlarni aks ettirish;
- ikkincht darajali va ortiqcha tnurakkablashtirilgan materiallardan qutilish;
- o'rganilayotgan fanlar ro'yhatini va materiallar hajmini aniqlash hamda o'quvchi yoshlar, albatta, o'zlashtirib olishi kerak bo'lgan malaka va ko'nikmalarining optimal hajmini belgilash;
- o'quv fanlariga oid asosiy tushunchalarni va etakchi g'oyalarni juda ham aniq bayon qilish;
- o'quvchilarni pedagogik texnologiyalar: komp'yuter, kserks, elektron pochta va shu kabi boshqalar to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantirish hamda ularda shu texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish.

Umumiy taiim - bu o'quvchilarning har tomonlama umumiy tayyorgarligini va rivojlanishini ta'minlovich fan asoslarini egallab olishdir.

Kasbiy ta'lim - insonning o'zi tanlagan, nisbatan tor yo'nalishdagi mehnat faoliyatiga xizmat qiladi.

Politehnika ta'limi - O'quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarish asoslari, uning energetikasi haqidagi bilimlarni o'zlashtirish bilan ta'minlaydi hamda inson faoliyatining turli sohalaridagi ish operatsiyalarini o'zlashtirib olish uchun baza ahamiyatiga ega bo'lgan bir qator mehnat ko'nikma va malakalarini egallash nazarda tutiladi.

Ma'lumot mazmuni - yoshlarning ma'lumoti, taraqqiyoti, tarbiyasini oshirib, hozirgi zamon fani, texnikasi, ishlab chiqarishi, fikrlashining umumiy asoslarini didaktik ishlov berish yo'li bilan tanlangan bilimlar, ko'nikma-malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi va munosabatlardir¹.

Ta'lim mazmuni-yoshlarni ma'lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma'lumot mazmunidan tanlanib, ta'lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko'nikma-malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarini emotsional baholashga doir munosabatlardir. Ta'lim mazmuni ma'lumot mazmuni asosida tanlanadi. Ta'lim mazmunini o'rgatish va o'zlashtirish yo'li bilan ma'lumot mazmunini amalga oshirishga, binobarin, yoshlarni ma'lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalashga qarab boriladi.

Ma'lumot mazmunini tanlashga oid nazariyalarning ayrimlari uzoq o'tmishga borib taqalsa, ayrimlari XIX asrda paydo bo'lgan.

Moddiy ta'lim nazariyasi XIX asrning keyingi choragida kirib keldi (1879-y, F.Doerfeld. «Didaktik materializm» kitobi). Moddiy ta'lim nazariyasi asoschilari maktabning vazifasi bolalarga imko-niyati etguncha ko'proq bilim o'rgatishdan iborat deb hisoblardilar.

Formal ta'lim tushunchasi 1791 yili (E.Shmidtning «Empirik psixologiya» kitobida) ishlatilgan.

Formal ta'lim nazariyasi tarafdorlari maktabning vazifasini bolalar taraqqiyotida ko'rishadi. Ular maktabning ishi bilim berish emas, aksincha, bolalarda turli qobiliyatlarni rivojlantirishdan iborat, deb bilishadi. Bilimlarni esa har kim o'zi o'zlashtirishga, o'z qobiliyatiga yarasha o'rganadi.

Ta'lim mazmuni quyidagi davlat hujjatlari va rasmiy hujjatlarda o'z aksini topadi:

1. O'quv rejasi.
2. O'quv dasturi.
3. Darslik.

O'quv rejasi - davlat hujjatidir. Unga barcha umumta'lim maktablari so'z-siz amal qiladi. Bu hujjatda sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va shu fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatiladi. Bu hujjat maktabning yagona o'quv rejasi hisoblanib, u xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Alohida aniq bir fanning o'quv rejasi - shu fanni o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatlaridir.

O`quv-rejasini tuzishda quyidagi omillarga asoslaniladi: o`quv tarbiya ishining maqsadi, O`quvchilarga aniq ilmiy bilim berish, olgan bilimlarini ko'nikmaga aylantirib, uni hayotga qo'llay olishga o`rgatish.

Maktab O`quvchilariga bilim berish yoshiga qarab tizimga solinadi va qoidalarga asoslanadi: -

a) boshlang'ich ta'lim - 1-4 sinflar;

b) umumiy o`rta ta'lim - 5-9 sinflar;

v) o`rta mahsus kasb-hunar ta'limi, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari.

Shu o`rinda ta'lim tizimining yangi zamonaviy bo`g`ini bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga ham to'htab o'tsak.

Ta'lim to`g`risidagi qonunga asosan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining maqomi tenglashtirilgan. Shu bilan birga, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o`z oldiga qo'yilgan maqsadlar bilan bir-biridan ma'lum ma'noda farq qiladi.

Akademik litseylar - o`quvchilarning qiziqishlarini va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishini chuqurlashtirilgan, ixtisoslashtirilgan holda o`qitishni ta'minlaydi. Akademik litseylar, asosan oliy o`quv yurtlari qeshida tashkil etiladi. Akademik litseylarda har bir o`quvchi o`zi hohlagan mutahassislik bo'yicha o`qishi mumkin.

Akademik litseylarda o`quvchilarni iqtidorlilari o`zlarini qiziqtirgan mutahassisliklarda o`qib, o`z iqtidorlarini ocha oladilar, ana shu maqsadni amalga oshirishga iqtidorli, itse'dodli bolalarni tarbiyalashga hizmat qiladi.

Kasb-hunar kollejlari esa o`quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallash imkonini beradi. Kasb-hunar kollejlari oldingi bilim yurtlaridan ham mazmunan, ham shaklan farq qiladi. Bu farq - bularning eng, awalo, o`quvchilarni o`qishga qabul qilishdan boshlab, o`quv jarayonining tashkil etilishi, mazmuni bilan mezonan va bir necha kasb-hunar egasi, utsasi, kichik mutahassis bo'lib o`qishni tamomlashdan iboratdir. O`quv jarayoni Davlat ta'lim standartlari, yangi zamon talablariga javob beradigan o`quv reja va datsurlar asosida tashkil etiladi.

Kasb-hunar kollejlarida o`quv datsurlarida oldingi bosqichi-uniumiy o`rta ta'lim maktablarida, oliy o`quv yurtlarining o`quv datsurlari bilan o`zaro ta'limning uzluksizlik va izchillik prinsip-lariga amal qiladi.

**O`quv dasturi** - har bir alohida fan uchun tuziladi. Datsur o`quv rejasiga asoslanadi. Datsurda fanning mazmuni, mavzu ket-ma-ketligi, ikkinchi mavzu birinchisini to'ldirishi, izchilligi bilan yoritiladi va ma'lum mavzular orqali ko'rsatiladi. O`quv dasturida mavzu maqsadi qisqacha izohlanadi.

Fanning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda yo'nalishlari ajratiladi. Ular boblarga bo'linadi. Boblar katta-katta mavzularga, katta mavzular esa kichik mavzularga bo'linadi va o`quvchilarga tushuntiriladi. O`quv dasturining o`zini

amal qilishi kerak bo'lgan qoidalar mavjud.

1. **Datsurning aniq bir g'oyaga asoslanganligi.**

Datsur mustaqil jamiyatimiz taraqqiyotining tamoiyillariga asoslangan holda isloh qilingan har bir fan, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlar qirralaridagi erishilgan yutuqlar darajasini ilmiy asosda aks ettirishi lozim. Datsur uzohni ko'ra bilishi qoidalariga asoslanishi kerak.

2. **Datsur ilmiylik prinsiplariga asoslanadi.**

Har bir ta'lim va tarbiya g'oyalari, ilmiy jihatdan tekshirilgan, ishonchli dalillar, kuzatishlar, manbalar va materiallar asosida ki-ritiladi.

3. **O'quv dasturi aniq mazmun va mantiq g'oyalarini o'zida aks ettirishi lozim.**

Datsurda fanning maqsad va vazifalari undagi bilim asoslari misollar va masalalar orqali o'rganiladi. Aks holda tushun foish qiyin bo'ladi.

4. **Nazariyot bilan amaliyotning birligi prinsiplari.**

Talabalar nazariy olgan bilimlarini amalda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutiladi.

5. **O'quv dasturini tuzishda fanning tarixiy saboqlari inobatga olinadi.**

Vaqt o'tishi bilan fan olamida yangi-yangi kashfiyotlar, ma'lum bir ilmiy qonun-qoidalar paydo bo'lib, fan takomillashib boradi.

O'quv dasturi davlat tomonidan tasdiqlangan reja asosida bakalavriat, magistsratura, litsey, gimnaziya, kollejlarga alohida-alohida tuziladi.

Darslikni hammamiz bilamiz. Undan uzoq yillar davomida foydalanib kelganmiz, ayrimlarga u eng yaqin do'ts bo'lib qolgan.

Darslik. Darslik o'quv jarayonining asosi. O'quvchining uydagi muallimi, yordamchisi. Darslik quyidagi talablarga amal qilgan holda yaratiladi:

1. Darslikda aks etgan ilmiy bilimlar sinf o'quvchilarining yosh xususiyatiga mos kelishi kerak.
2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asosi, g'oyalari tizimli va izchil bo'lishi talab qilinadi. Ular hayotdan olingan, ishonarli bo'lishi lozim.
3. Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'langan bo'lishi kerak.
4. Darslikda mavzu sodda ravon tilda yozilishi hamda tegishli qoida va ta'riflar berilishi kerak. Darslik ichidagi va muqovasidagi rasmlar va bezatilishi O'quvchining yoshiga mos, fanning xarakteriga monand bo'lishi kerak.
5. Mavzulardagi fikrlar aniq va qisqa bo'lishi, ilmiylikka asoslanishi kerak.

O'quv predmetlari. Har bir o'quv predmetida o'ziga oid fanning umumiy asoslari beriladi. Fan va o'quv predmeti bir-biridan quyidagi belgilariga ko'ra farq qiladi:

Birinchfdan, fan hajm va mazmun jihatidan keng bo'lib, unda shu fanga oid g'oyalar, qarashlar, bilimlar, tushunchalarniag barchasi o'z aksini topadi. O'quv

predmeti hajmi nisbatan tor bo'lib, unda bolalarning hayotiy tajribalari, real imkoniyatlariga mos keladigan bilimlarni o'rgatish ko'zda tutiladi.

Ikkinchidan, fan hamma uchun yoshu-qari, o'zbeku-qozoqqa bir hil hizmat qiladi. O'quv predmetlari esa faqat yoshlarga mo'ljallab tuziladi.

Uchinchidan, fan va o'quv predmetining faqat o'zigagina hos vositalari mavjud.

To'rtinchidan, fan o'zini-o'zi rivojlantiradi. O'quv predmetlari esa yoshlarni ma'lumotli qiladi, rivojlantiradi, tarbiyalaydi.

Lekin farqlariga qaramasdan uyar o'zaro uzviy bog'langan. Fan rivojlangan sari o'quv predmetlari sayqallashib, takomillashib boradi.

Ta'limni tashkil etish shakllari deganda, aniq muddatda va tartibda o'qituvchilar O'quvchilar bilan olib boradigan mashg'ulot turlarini tushunamiz. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida ta'limni sinf-dars shaklida olib borish keng tarqalgan.

Ta'limni tashkil etishning zamonaviy (noan'anaviy) shakllari zarurati nimada? Uning qanday shakllari qo'llanilmoqda?

Mustaqil O'zbekistonimizda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirishda ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalami tatbiq etish bilan bog'liq ishlar qilinmoqda. Ta'limni KVN, munozara, disput, konferensiya, mushoira, sud o'yinlari va boshqa shakllarda tashkil etishga harakat qilinmoqda. O'quvchilar faolligini oshiruvchi turli interfaol usullar keng qo'llanilmoqda. Bularga misol tariqasida Sinkvey, Klaster, Aqliy hujum, T-chizma, Insert jadvali, B-B-B jadvali, Venn diagrammasi, Konseptual jadval, Semantik hususiyatlar tahlili va boshqalarni keltirish mumkin.

An'anaviy metodlarning afzalliklari:

- Ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydali.

- O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi.

- Vaqtdan unumli foydalanish.

- Aniq, ilmiy bilimlarga tayanish.

Kamchilidari:

O'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar.

O'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivasiyani vujudga keltirmaydi.

O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqatga kirisha olmaydi.

Eslab qolish darajasi hamma O'quvchilarda bir hil bo'lmaganligi sababali, sinf bo'yicha o'zlashtirish darajasi pats bulib qolishi mumkin.

Mustaqil o'rganish va echimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.

Noan'anaviy o'qitish metodlarining afzalliklari:

O'qitish mazmunini yaqshi uzlashtirishga olib kelishi.

O'z vaqtida aloqalarning ta'minlanishi.

Tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi.
O'qitish usullarining turli hil ko'rinishlari taklif etilishi.
Motivatsiyani yuqori darajada bulishi.
O'tilgan materialning yaqshi eslab qolinishi.
Muloqatga kirishish ko'nikmasining takomillashishi.
O'z-o'zini baholashning o'sishi.
O'quvchilarning predmetning mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati.
Mustaqil fikrlay oladigan O'quvchining shakllanishiga yordam berishi.
Tanqidiy va mantiqiy flkrlashni rivojlantirishi.
Muammolar echish ko'nikmalarining shakllanishi.
Kamchiliklari:
Ko'p vaqt talab etilishi.
O'quvchilarni har doim ham keraklicha nazorat qilish imkoniyatining pastligi.
Juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda ham o'qituvchi rolining pats bo'lishi.
«Kuchsiz» O'quvchilar bo'lganligi sababali «kuchli» o'quvchilarning ham past baho olishi.
O'qituvchining o'zi ham yaqshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar echish ko'nikmatariga ega bo'lishining talab etilishi.

HULOSA: Ko'p yillar davomida an'anaviy dars o'tish ta'limning asosiy shakllaridan biri bo'lib keldi.

An'anaviy dars-muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shahsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir. Ma'lumki, an'anaviy darsda ta'lim jarayonining marka-zida o'qituvchi turadi.

An'anaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi.

Shu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha pats bo'lib, O'quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman O'quvchilar faolligini oshiradigan metodlar bilan boyitib borilsa, O'quvchilar o'zlashtirish darajasini ko'tarilishiga olib keladi.

Buning uchun daras jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan O'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik gurahlarda ishlash, tadqiqot, rolly o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqti-ruvchi misollarning keltirilishi, O'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang-barang baholash usulla-ridan foydalanish, ta'lim vositalaridan o'rinli

foydalanish talab etiladi.

O`qitishning noan'anaviy shakllarini 3 ga ajratish mumkin: hamkorlikda o`qitish modeli; modellashtirish; o`rganishning tadqiqot modeli.

Bu modellar, asosan, o`quvchi shahsiga qaratilgan bo`lib, ularni markazida O`quvchi turgan ta'lim modellari deb ataladi.

Modellashtirish - real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni iychamlashtirilshan va soddalashtirilgan ko`rinishini (modelini) sinfhonada yaratish va ularda uquvchilarni shahsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta'lim olishini ko`zda tu-tuvchi metod.

Hamkorlikda o`rganish modeli - O`quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko`zda tutadigan metod.

O`rganishning tadqiqot modeli - O`quvchilarni muayyan muammoni echishga yo`naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko`zda tutuvchi metod.

TOPSHIRIQLAR

1. Ta'lim to`g`risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablarni tatil qiling.
2. Ta'lim mazmunining belgilanishini o'rganing, uning tarixiy harakterini tahlil qiling.
3. Umumiy o`rta ta'lim davlat sandartlari asosida ta'lim mazmunining ifodalanishini o'rganing.
4. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi normativ hujjatlar:
 - a) o`quv rejalari;
 - b) datsurlar;
 - v) darsliklar va ularning tuzilishiga qo'yilgan talablarni o'rganing va mutahassislik fani buyicha DTS asosida kalendar-reja tuzishni mashq qiling.

Таълимни ташкил этиш шакллари деганда, ани= муддатда ва тартибда o`qituvchilar O`quvchilar bilan olib boradigan mashg`ulot turlarini tushunamiz. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida ta'limni sinf-dars shaklida olib borish keng tarqalgan.

O`tmish davrlarda ta'lim qanday shakllarda tashkil etilgan? Uning taraqqiyot bosqichlari qanday?

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz ta'limni tashkil etish shakllari ijtimoiy tuzum manfaatlariga mos holda paydo bo`lgan va rivojlangan. Datslabki davrlarda ta'lim berish ishlarini odamlar-ning mehnat faoliyati, turmush tarzi bilan uzviy bog'langan hamda bilim berish, o`rgatish ishlari yakka tartibda olib borilgan.

Davr o`tishi bilan ko`pchilikka bilim berish ehtiyoji paydo bo`ladi, ta'lim tizimi mazmuni, bilimlarning murakkablashuvi bola-larni guruh-guruh qilib, to`plab o`qitishni taqozo qilgan hamda ta'lim bilan shug'ullangan mutahassis-o`qituvchilar tayyorlash za-niriyati kelib chiqadi.

Shu davrda dars va sinf-dars tizimi paydo bo`la boshlaydi. Halq orasida

hayotiy tajribaga, bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar murabbiy, o'qituvchi bo'lib faoliyat ko'rsatadi.

Halqimiz tarixiga nazar tashlar ekanmiz, maktab va madrasalarda yoshlarga bilim berish bilan shug'ullanganligi "Avesto" va boshqa tarixiy manbalardan ma'lum. Ammo qadim davrlardan ta'limni qat'iy chegaralangan vaqtda bir hil yoshdagi bolalar bilan olib borish, ta'lim mazmunini bosqichma-bosqich berish masalalariga aniqlik kiritilmagan edi.

Forobiyning "Fan va aql zakovat" asarida o'quv fanlarini guruhlariga bo'lib o'qitish, ularning tarbiyaviy mohiyatini ochish masalalariga e'tibor berilgan.

Sinf-dars tizimini didaktik talablar asosida yaratishda buyuk cheh pedagogi Yan Amos Komenskiyning xizmatlari katta, uni sinf-dars tizimining asoschisi sifatida butun dunyo tan olgan.

Y.A. Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida o'quv mashg'ulotlarini guruh shaklida tashkil etish, o'quv yili va o'quv kunini bir vaqtda boshlash, mashg'ulotlar orasida tanaffuslar berilishi, guruhdagi bolalarning yoshi va soni bir hil bo'lishiga alohida e'tibor berdi. Dars davomida O'quvchilar diqqatini to'plash, materialni batafsil tushuntirish, O'quvchiga savollar berish, o'zlashtirish jarayonini nazorat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Biz hammamiz sinf-dars tizimida o'qiganmiz. Ho'sh, bu tizimning mohiyati nimadan iborat va u qanday tuzilishga ega?

Ta'limning maqsadi - mustaqil jamiyatimizning ravnaqiga nazariy va amaliy hissa qo'sha oladigan "barkamol avlod"ni tarbiyalash.

Ta'limning vazifasi - yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirish.

Darsning maqsadi - o'qituvchining rejalashtirgan aniq bir mavzusini O'quvchilarga bildirishi va O'quvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirib ko'rish hamda yangi mavzuga zamin yaratish.

Darsning mazmuni - uni o'qituvchi tomonidan rejalashtirilgan tugal ma'noga ega matn tashkil etadi. Uni o'quvchilar ongiga singdirish jarayonida manba, hulosa va hikoyalardan foydalanadi.

Sinf deganda, yoshi va bilim darajasi bir hil bo'lgan O'quvchilar guruhi tushuniladi.

Dars - aniq maqsadni ko'zlab belgilangan vaqtda bir hil yoshdagi O'quvchi, yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotlardir. Dars - o'z oldiga qo'yilgan aniq maqsad va tugal mazmundan iborat.

Darsning maqsadi, mazmuni, hajmi ta'lim sandartlari asosida belgilanadi. Dars o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli ekan, bu jarayonda quyidagilarga amal qilinishi lozim:

Har bir sinfda O'quvchilarni yoshi va bilim darajasi bir hil boiishi lozim.

Dars qat'iy jadval bo'yicha belgilangan muddatda olib

borilishi kerak.

Dars o`qituvchi rahbarligida butun sinf bilan va alohida O`quvchilar bilan ishlash shaklida olib boriladi.

Dars, o`quv fanining harakteri, o`qitilayotgan materialning mazmuniga qarab turli usullar va vositalarda olib boriladi hamda ta'lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim beradi, navbatdagi bilimlarni o`zlashtirmoq uchun zamin yaratadi.

Shuni unutmaslik kerakki, ta'lim ishlari darsdan tashqari ham to`g`arak, ekskursiyalar shaklida olib boriladi.

Dars oldiga qanday talablar qo`yiladi? Ularning mohiyati nimadan iborat?

Har bir dars oldiga quyidagi talablar qo`yiladi: a) tarbiyaviy talab, b) didaktik talab, v) tashkiliy talab.

Darsga qo`yilgan didaktik talablar sirasiga quyidagilar kiradi: 1. Har bir dars aniq maqsadni ko`zlagan holda puhta rejalash-tirilmog'i lozim. Bu jarayonda o`qituvchi darsning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadini belgilaydi. Dars bosqichlarini, ya'ni qanday tamomlash, ko`rgazmali materiallardan foydalanish kabilarni oldindan hal qilib oladi.

2Har bir dars aniq g`oyaviy, mafkurafly izlanishga ega bo`lishi lozim. O`qituvchi esa ulardan tarbiyaviy maqsadda foydalanmog`i lozim.

3.Har bir dars maktabning, ijtimoiy muhitning imkoniyatini hisobga olgan holda amaliyot bilan bog'lanmog'i, ko`rsatmali vositalar bilan jihozlanmog'i lozim.

4. Har bir dars harakteriga mos usul, uslub va vositalardan samarali foydalangan holda tashkil etilishi lozim.

5. Dars uchun ajratilgan soat va daqiqalarni tejash va unumli foydalanish darkor.

6. Dars jarayonida o`qituvchi va o`quvchi faol munosabatda bo`lishi lozim, O`quvchi-talaba passiv tinglovchiga aylanmasligi lozim.

7. Mashg`ulotlar butun sinf bilan va har bir O`quvchi bilan, ularning shahsiy hususiyatlarini e'tiborga olgan holda olib borilishi kerak.

8.O`qitilayotgan mavzuni mazmuniga bog`liq holda mustaqil yurtimizdagi o`zgarishlardan talabalarni habardor qilish.

9.Darsda Prezidentimiz I.A. Karimovning ta'lim sohasidagi fikrlari, yurtimiz kelajagi bo`lgan yoshlarimizga, farzandlarimizga, qarata qilgan murojaatlaridan o`z o`rnida foydalanish.

Dars bilim va ko`nikma, malakalar bilan O`quvchilarni qurol-lantirishda asosiy rol' o`ynaydi. Shu sababli, o`quv mashg`ulotlariga ajratilgan vaqtning

asosiy qismi dars o`qish uchun sarflanadi.

Darsga quyilgan tarbiyaviy talablar:

- darsda o`rganiladigan o`quv materiallari bo`yicha tarbiyaviy hulosalar chiqarish;
- nazariy bilimlar asosida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- bolalarda o`qishga oid ijobiy motivlarni uyg`otish, bilish, o`qish-o`rganishga havas, ishtiyoq, qiziqishni shakllantirish;
- dars jarayonida pedagogik takt qoidalariga rioya qilish.

1. Darsga qo`yilgan tashkiliy talablar:
2. Dars uchun puhta o`yilgan konspekt yoki reja tuzish.
3. Darsning mantiqiga (dars bosqichlarining o`zaro bog`liqligi, darsda amalga oshiriladigan ishlar; o`quv topshiriqlarining o`zaro aloqadorligiga) rioya qilish.
4. Dars tempini O`quvchilarning tayyorgarligiga moslashtirish.
5. Dars uchun ajratilgan vaqtdan ratsional foydalanish.
6. Darsda ongli intizomni tashkil etish.

Dars tiplari nima, ular qanday tiplarga ajratiladi?

Dars tiplari - darsning maqsadi va mazmuni, O`quvchining yosh xususiyatiga qarab, darsning tuzilishi har hil bo`ladi. Endi biz darsning yanada ravshanroq ko`rsatib berish maqsadida darsni turlarga ajratamiz, saralaymiz va ularni tuzilishi bilan tanishamiz.

Dars qanday turlarga ajratiladi?

Ular quyidagilarga asoslangan turlarga ajratiladi:

Darslarning asosiy maqsad va mazmuniga qarab turlariga bo`lish.

Darslarni o`qitish jarayonining tahliliga qarab turlarga bo`lish.

Darslarni tuzilishiga qarab turlarga bo`lish.

Darslarni turlarga ajratishda birinchi qoida eng obektiv va ma'quldir. Darsning mazmuni dasturda ko`rsatilgan bo`ladi.

Darslarni saralash dars tuzilishini bilishimizga o`rganishimizga ёрдам беради.

1. Ta'lim tizimida tajribadan o`tgan dars turlari quyidagilardan iborat:
2. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
3. O`quv materiallarini mustahkamlash.
4. Takrorlash va bilimlarni umumlashtirish darslari.
5. O`quvchilarning o`zlashtirishini nazorat qilish va baholash darslari.
6. Dars turlari uyg'unlashgan (aralash)darslar.

Yangi mavzuni o'tish darsida yangi mavzuni o'tish kerak ekan deb mashq qildirish yoki o'tgan mavzularni qaytarish mumkin emas deganlari noto'g'ri. O'quvchilarga biron nazariy mavzuni amaliyotga tatbig'ini o'rgatganimizda, shu ishni qanday bajarilishini O'quvchilarning o'zlariga taklif etamiz. Bu ishlarni bir necha bor o'zlari sekin-asta shu ishni bajarishga ko'nikma hosil qiladilar. Shunday qilib, ohirgi tegishli natijaga erishamiz.

O'tilgan mavzuni qaytarish, mashq qildirish darsi o'qitilgan bilimlarnigina emas o'rgatilgan ishni qaytarish, mehnat malakalarini beradigan malakalarni o'tkazishdan iborat bo'lmog'i lozim.

O'quvchining bilimi, malaka va ko'nikmalarini tekshirish va ularga baho berish darsi bunda O'quvchilarning olgan bilimi tekshirilib, ular qanchalik o'zlashtirilganligiga qarab baho qo'yiladi.

Yuqoridagi asosiy turlardan boshqa yana qo'shimcha darslar tun ham mavjud. Bu dars turida yuqoridagi saralash nuqtai nazaridan olinganda, O'quvchilarning o'zlashtirishini tekshirish, yangi mavzuni o'tish va uni mustahkamlash uchun qaytarish kabi turli ishlar qo'shilsa ham, lekin qo'shimcha darslarning asosini bu ishlarning bittasi, qo'shimcha darslarning maqsadga to'laroq javob bera oladigani tashkil qiladi, qo'shma darsdagi boshqa ishlar esa shu asosiy ishga yordamchilik vazifasini bajaradi.

Ta'lim jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan yangi bilimlarni bayon qilish darsi va aralash darsning tuzilishida qanday farqlar bor? Buni ko'rib chiqamiz:

Aralash dars namunasi
1. O'tilganlarni takrorlash: oldin o'tilgan mavzu yuzasidan berilgan faktlarni tahlil etish; savol-javob; v) qoida-ta'riflarni esga tushirish. 2. Yangi o'quv materialini o'rganishga tayyorgarlik: darsning mavzusi va maqsadini bolalarga etkazish; b) mavzuga oid faktlarni tahlil etish; v) bilishga rag'batlantiruvchi savollarni o'rta tashlash. 3. Yangi o'quv materialini bayon qilish (tasvir, suhbat, mustaqil ishlash kabi metodlardan foydalanib yangi o'quv materialini tushuntirish). 4. Yangi o'quv materialini mustahkamlash (mashq qilish, mustaqil ishlash). 5. Uy vazifasini belgilash. 6. Bolalar bilimni baholash. 7. Darsni yakunlash.

Yangi bilimlarni bayon qilish darsi namunasi

1. Bolalarni yangi o`quv materialini o`rganishga tayyorlash:
 - a) darsning mavzusi, maqsadi bilan tanishtirish; yangi mavzuga oid faktlarni tahlil etish.
2. Yangi o`quv materialini bayon qilish (tasvir, tushuntirish, suhbat metodlaridan foydalanib, kuzatilgan faktlarga asoslanib yangi mavzuni tushuntirish).
3. Yangi mavzuni mustahkamlash:
 - a) darslikning ma'lum betlarini o`qish;
 - b) mashq, misol, masalalami bajarish.
4. Oldin o`rganilgan mavzularni bugungi o`quv materialiga oid bilimlarni paralell takrorlash.
5. Uy vazifasini topshirish.
6. Bolalar bilimni baholash.
7. Dars yuzasidan yakuniy hulosalar chiqarish.

Ta'lim tizimida takrorlash va bilimlarni mustahkamlash darslari ham ko'p qo'llaniladi. O`qituvchi darsning ma'lum bir qismi, yirik mavzulami o'tib boiganidan so'ng bunday darslar uyushtiriladi. Bu darslar oraliq nazorat baholashda ham hizmat qiladi. Har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni To'g'ri tashkil qilishga bog'liqdir. Bu davrda sinfning tayyorgarligini sinchiklab kuzatish, bolalarni darsni tinglashga ruhiy jihatdan tayyor ekanliklarini o`rganish darkor. Shundan so'ng mahoratli pedagog fursatni qo'ldan boy bermay, shogirdlarini diqqatini chalg'itmay darsning asosiy qismini boshlab yuboradilar, chunki sinf O`quvchilarini tezlik bilan mashg'ulotga faol kirishishlarini ta'minlash lozim.

Dars o`qituvchi va O`quvchining ijodiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Shundagina O`quvchilarda mustaqil fikrlay olish, iroda tarbiyalanadi. Nutq madaniyati rivojlanadi. Muammoli vaziyat orqali o'z yo'lini topa oladilar.

(Har bir dars turidagi o`qituvchi va O`quvchi faoliyatini quyidagi T-chizma orqali chuqur tahlil qiling).

Yangi bilim berish darsi		O`quv materialini mustahkamlash darsi		Takrorlash va umumlashtirish darsi		Aralash dars	
O`qituvchi faoliyati	O`quvchi faoliyati	O`qituvchi faoliyati	O`quvchi faoliyati	O`qituvchi faoliyati	O`quvchi faoliyati	O`qituvchi faoliyati	O`quvchi faoliyati

O`quv ishlarini tashkil etishing darsdan tashqari shakllari ham bormi? Ularga nimalar kiradi?

O`quv mashg`ulotlarining sinfdagi shakli darsdan tashqari yana qo`shimcha qator ta`lim shakllari mavjud bo`lib, bular amaliy-tajriba mashg`ulotlari, qo`shimcha darslar, fakultativlar, ekskursiya kabilardir.

Bular darsda berilgan bilimlarni to`ldirish, mustahkamlash, amaliyot bilan bog`lash uchun uyushtirilgan qo`shimcha mashg`ulotlardir.

Bulardan tashqari, o`quv yurtlari tajribasida fan to`garaklari, ishlab chiqarish amaliyoti, o`yin shaklidagi mashg`ulotlardan ham foydalanilmoqda.

Laboratoriya mashg`ulotlarida bolalar turli o`quv predmetlari bo`yicha tajribalar, turli qurilmalar yordamida sinov ishlari o`tkazishadi. Laboratoriya mashg`ulotlari amaliy dars ham deb yuritiladi. Amaliy darslarda O`quvchilar guruhlariga ajralib, turli eksperimental topshiriqlarni bajarishadi.

Seminar mashg`ulotlari nazariy muammolarni faol o`rganish shakli hisoblanadi. O`rta umumta`lim maktablarida seminarlar quyidagicha o`tkaziladi: seminar uchun mavzu tanlanadi; mavzu bo`yicha reja, ko`rsatmalar beriladi; tayyorganlik uchun etarli vaqt ajratiladi; asosiy manbalar, ularning betlari aytiladi; masla-hatlar beriladi. Seminarga barcha O`quvchilar tayyorgarlik kurishadi. Seminarining ohirida o`qituvchi yakunlovchi suhbat o`tkazib, kelgusi seminarda qilinadigan ishlarni belgilaydi.

Oliy ta`lim tizimida ta`limning qanday tashkiliy shakllari qo`llanilmoqda?

Uzluksiz ta`limning hamma bosqichlarida ta`limning o`ziga hos tashkiliy shakllari mavjud. Jumladan: ikki bosqichli mal ta`lim tizimida o`ziga hos ta`lim shakllari mavjud. Bularga: ma`ruzalar, seminar va amaliy mashg`ulotlar, kafedra o`qituvchilarining ochiq ma`ruzalarida qatnashish, ma`ruza matnini tayyorlash va muhokama qilish, o`quv kurslari bo`yicha dasturlar tayyorlash ishlari kabilar kiradi.

Oliy ta`lim tizimida ma`ruza o`quv jarayonining ham usuli, ham shakli hisoblanib, u talabalarga fan asoslarini og`zaki, uzviy va muntazam singdirishga xizmat qiladi. Ma`ruza tufayli talaba shu fanning mohiyatini tushunib boradi hamda ularni erkin fikrlashga, fan utsida o`ylashga majbur etadi. Shu sababli, ma`ruza ilmiy tafakkurni rivojlantirishning o`ziga hos maktabiga aylanadi.

Ma`ruzani shunday o`qish lozimki, uning ta`sirida talabalarda shu fanga, uning vazifa va kelajagiga nisbatan turli qarashlar, ilmiy e`tiqod, g`oya va milliy mafkura asoslari shakllansin. Buning uchun o`qituvchi har bir ma`ruzaning mazmunini, fandagi yangiliklar bilan boyitishi va tanlay bilishi lozim.

Ma`ruza ijobiy hamkorlikka tayanib tashkil qilingandagina samarali natija beradi. Buning uchun ma`ruza jarayonida ham ta`limiy ham tarbiyaviy vazifalarni samarali malgam oshirish yo`lla-ridan biri – o`qituvchilar bilan talabalar o`rtasidagi do`stona, faol munosabatlarni tiklab olishdan iborat.

Bundan tashqari, dars va ma`ruzaning samarali natijasi o`quvchi

talabalarning o'quv jarayonidagi ruhiy holatlarini qay darajada hisobga olinishiga ham bog'liq. Shunday ekan ta'limni samarali tashkil etish, uning dars, ma'ruza va boshqa shakllardan o'qitish jarayonida foydalanishlari uchun shubhasiz, o'qituvchining pedagogik mahorati, pedagogik madaniyati, o'z fanini puhta bilishligi va o'quvchi-talabalar bilan umumiy til topa olishlari g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Ta'limni tashkil etishning zamonaviy (noan'anaviy) shakllari zarurati nimada? Uning qanday shakllari qo'llanilmoqda?

Mustaqil O'zbekistonimizda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini malgam oshirishda ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bilan bog'liq ishlar qilinmoqda. Ta'limni KVN, munozara, disput, konferensiya, mushoira, sud o'yinlari va boshqa shakllarda tashkil etishga harakat qilinmoqda. O'quvchilar faolligini oshiruvchi turli interfaol usullar keng qo'llanilmoqda. Bularga misol tariqasida Sinkveyn, Klaster, Aqliy hujum, T-chizma, Insert jadvali, B-B-B jadvali, Venn diagrammasi, Konseptual jadval, Semantik hususiyatlar tahlili va boshqalarni keltirish mumkin.

(An'anaviy va noan'anaviy ta'lim shakllarini taqqoslab quyidagi chizmani to'ldiring).

Ta'limning an'anaviy shakli		Ta'limning noan'anaviy shakli	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi

An'anaviy metodlarning afzalliklari:

- Ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydali.
- O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi.
- Vaqtdan unumli foydalanish.
- Aniq, ilmiy bilimlarga tayanish.

Kamchilliklari:

- O'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar.
- O'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi.
- O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqatga kirisha olmaydi.
- Eslab qolish darajasi hamma O'quvchilarda bir hil bo'lmaganligi sababali, sinf bo'yicha o'zlashtirish darajasi pats bulib qolishi mumkin.
- Mustaqil o'rganish va echimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.

Noan'anaviy o'qitish metodlarining afzalliklari:

O'qitish mazmunini yaqqshi uzlashtirishga olib kelishi.

O`z vaqtida aloqalarning ta'minlanishi.

Tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi.

O`qitish usullarining turli hil ko`rinishlari taklif etilishi.

Motivatsiyani yuqori darajada bulishi.

O`tilgan materialning yaqshi eslab qolinishi.

Muloqatga kirishish ko`nikmasining takomillashishi.

O`z-o`zini baholashning o`sishi.

O`quvchilarning predmetning mazmuniga, o`qitish jarayoniga bo`lgan ijobiy munosabati.

Mustaqil fikrlay oladigan O`quvchining shakllanishiga yordam berishi.

Tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishi.

Muammolar echish ko`nikmalarining shakllanishi.

Kamchiliklari:

- Ko`p vaqt talab etilishi.
- O`quvchilarni har doim ham kerakli nazorat qilish imkoniyatining pastligi.
- Juda murakkab mazmundagi material o`rganilayotganda ham o`qituvchi rolining pats bo`lishi.
- «Kuchsiz» O`quvchilar bo`lganligi sababali «kuchli» o`quvchilarning ham past baho olishi.
- O`qituvchining o`zi ham yaqshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar echish ko`nikmalariga ega bo`lishining talab etilishi.

HULOSA: Ko`p yillar davomida an'anaviy dars o`tish ta'limning asosiy shakllaridan biri bo`lib keldi.

An'anaviy dars-muayyan muddatga mo`ljallangan, ta'lim jarayoni ko`proq o`qituvchi shahsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir. Ma'lumki, an'anaviy darsda ta'lim jarayonining marka-zida o`qituvchi turadi.

An'anaviy dars o`tish modelida ko`proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi.

Shu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha pats bo`lib, O`quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman O`quvchilar faolligini oshiradigan metodlar bilan boyitib borilsa, O`quvchilar o`zlashtirish darajasini ko`tarilishiga olib keladi.

Buning uchun daras jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o`qituvchi tomonidan O`quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag`batlantirilib turilishi, o`quv materialini kichik-kichik bo`laklarga bo`lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik gurahlarda

ishlash, tadqiqot, rolly o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqti-ruvchi misollarning keltirilishi, O'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang-barang baholash usulla-ridan foydalanish, ta'lim vositalaridan o'rinli foydalanish talab etiladi.

O'qitishning noan'anaviy shakllarini 3 ga ajratish mumkin: hamkorlikda o'qitish modeli; modellastirish; o'rganishning tadqiqot modeli.

Bu modellar, asosan, o'quvchi shahsiga qaratilgan bo'lib, ularni markazida O'quvchi turgan ta'lim modellari deb ataladi.

Modellastirish - real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni ichchamlashtirilshan va soddalashtirilgan ko'rinishini (modelini) sinphonada yaratish va ularda uquvchilarni shahsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta'lim olishini ko'zda tu-tuvchi metod. Hamkorlikda o'rganish modeli - O'quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadigan metod.

O'rganishning tadqiqot modeli - O'quvchilarni muayyan muammoni echishga yo'naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko'zda tutuvchi metod.

Mustahkamlash uchun topshiriqlar

1. Kadriar tayyorlash milliy dasturida ta'lim samaradoligini oshirish zarurati haqida nimalar deyilgan?
2. Ta'lim shakllarining paydo bo'lishi haqida nimalarni bilasiz?
3. Ta'limni tashkil etishning dars shakli qachon paydo bo'ldi va uning mohiyati nimadan iborat?
4. Darsga qanday talablar qo'yiladi?
5. Darsning qanday hillari (tiplari) bor va ular qanday tuzilishga ega?
6. Seminar va amaliy tajriba ishlari shaklidagi mashg'ulotlar qanday tashlcil etiladi?
7. Ekskursiyalardan hjaysi vaqtlarda foydalaniladi?
8. Ta'limni tashkil etishning qanday noan'anaviy shakllarini bilasiz?
9. KVN, munozara, o'yin, mushoira, sud shaklidagi mashg'ulotlar haqida qanday tushunchaga egasiz?

Ahborot manbalari

1. Karimov I. A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. — Toshkent, «O'zbekiston», 1998.
2. Abduqodirov A. Umumta'lim maktablari uchun elektron darslik yaratishning nazariy asoslari «Pedagogik mahorat». 2003, 2-son, 6-10-betlar.
3. Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlar to'plami. - T., «Sharq», 2001.
4. Ibragimov H.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika. O'quv qo'llanma. - Toshkent, «Fan», 2004, 234-239-betlar.
5. Петиллон П. Диагностика социальные и эмоциональные признаков.- М., Торговый дом Гранд, 2003, 137-стр.

7. Mavzu: Tarbiya жараёнинг моҳияти ва мазмуни.

Тарбиянинг умумий методлари.

Reja:

1. Tarbiya jarayoni va uning mohiyati.
2. Tarbiya jarayoning ususiyatlari.
3. Tarbiyanig umumiy metodalari.

Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun harakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi.

Tarbiya jarayoni shahsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtiriladi va tarbiyalanuvchining shahsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq ikki faoliyatni - o'qituvchi va O'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida O'quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, ahloqiy, irodaviy, etsetik hislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quwatlarlari mutsahkamlanadi. Tarbiya jarayonida O'quvchida jamiyatning shahsga qo'yadigan ahloqiy talablariga muvofiq keladigan hulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun O'quvchining ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, hulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi. Tarbiyalash jarayonida bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetta qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Islom madaniyatining tarkibiy qismi-tasawuf (sufizm) falsafasida inson ma'naviyatining, ruhiyati o'ziga hos uslublar orqali aks ettirilgan. Hazrat Abu Hamid al-G'azzoliy, Attor, Ahmad Yassaviv Abduholiq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Ku'broning ta'lim-tarbiyaga, hulq ahloqiga oid qarashlari, Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri», «Kitob al Musiqi al-Kabir», «Katta musiqa», «Ritmlar tartibi haqida», Beruniyning «Mas'ud qonuni», «Hinditson», «Qadimiy halqlardan qolgan yodgorliklar», «Saydona», «Ahloq haqida risola»sidagi ma'naviy-ma'rifiy masala-lar, Abu Ali ibn Sinoning «Tadbiri manozil», «Ahloq haqida riso-la», «Donishnoma», «Salamon va Ibsol», «Hay ibn Yakzon», «Tib qonunlari», Alisher Navoiyning: «Makorim ul-ahloq», («Mukarram hulqlar»), «Badoiy ul-bidoya», («Go'zallikning boshlanishi»), «Navodir un-Nihoya», («Nodirliklar nihoyasi»), «Hazoyin ul-Mao-niy», («Ma'nolar hazinasi») asarlarida insonni tarbiyalash g'oyalari hozirgi zamon bilan hamohangdir.

Abdulla Avloniy, Mahmudho'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon asarlaridagi ma'naviy-ma'rifiy qarashlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotganicha yo'q. Buyuk ma'rifatparvar ziyolilarning g'oyalari milliy g'oya va itsiqlol mafkurasining teran tomirlari bo'lib qola-veradi.

Inson tarbiyasi va uning tarbiyalanganlik darajasi o'z davrining ilmiy-

amaliy mezonlari bo'yicha tadqiq etishlik ko'p asrlik fan tarixiga ega. Insoniyatning er yuziga kelishidan e'tiboran kishilar muayyan sotsiumning a'zosi tariqasida shahslararo munosabatga kirishishi, muloqot o'rnatishi, muomala maromiga rioya qilishi lozim, deb belgilanishi tarbiyalanganlik o'lchovlarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Taraqqiyot, ijtimoiy ong, aql-zakovat, komfortga intilish hissi tarbiyalanganlikning ham harakatlantiruv-chisi, ham mehanizmi, ham zarurat ekanligini ta'kidlovchi omil bo'lib hizmat qilgan va bundan keyin ham ko'p fiinksional vazifani ado etaveradi.

Tarbiyalanganlikning asosiy belgilari quyidagilardan iborat, deb hisoblaydi mutafakkir Alisher Navoiy:

- jahl chiqqanda o'zini bosa olish; har bir ishni qilganda «etti o'lchab bir kesish», sir saqlay olish, mulohaza qilib, ayrim gaplarni ichga yutish;
 - doimo ishonch bilan yashash va olg'a intilish; andisha chegarasidan chiqmagan holda dadil bo'lish;
 - bir ishni boshlagandan keyin uni ohiriga etkazmay qo'ymaslik;
- topgan-tutganini tejab-tergab sarflash va hokazolar.
- Az-Zamaqshariyning fikricha, tarbiyalanganlikning o'nta nishonasi farqlanadi:
- birinchisi - halq To'g'ri deb topgan narsani noTo'g'ri deb qaramaslik;
 - ikkinchisi - o'z nafsiga erk bermaslik;
 - uchinchisi - birovdan ayb qidirmaslik;
 - to'rtinchisi - yomonlikni yaqshilikka yo'yishlik;
 - beshinchisi - agar gunohkor uzr surasa, uzrini qabul qilish;
 - oltinchisi - muhojirlar hojatini chiqarish;
 - ettinchisi - el g'omini eish;
 - sakkizinchisi - o'z aybini tan olish;
 - to'qqizinchisi - el bilan ochiq yuzli bo'lish;
 - o'ninchisi - odamlar bilan shirin muomalada bo'lish.
- «Hushhulqlik, yaqshi muomala, shirin so'zlilik va olijanoblik -

tarbiyalanganlikning asl belgilaridan», - deb ta'kidlaydi G'aybulloh as-Salom1.

«Hushhulqli, yaqshi tarbiya ko'rgan kishi yaqinlari, yoru do'ts-lari uchun misli o'chmas chiroqdir», - deb yozadi Servantes.

«**Tarbiyalanganlik**-jamiyatda qabul qilingan ahloqiy normalar-ga bo'ysunish va o'zgalarning nafratini qo'zg'atadigan hatti-hara-katlardan o'zini tiya bilish".

Abdulla Avloniyning fikricha: «...hulq-nafsning suvrati» bo'lsa, Hamza Hakimzodaning ta'riflashicha: «Ahloq hulqni ja'midur. Ah-loq ikki qism bo'lur. Bin ahloqi husniya (yaqshi hulqlar), ikkinchisi ahloqi zamima (yomon hulqlar)dur. Ahloqi husniya insoniyat ola-mining bir gulshanidirki, anda hayo, qilm, saho, qanoat, rizo, shukr, sabr, tavba, sidh, tavoz'u, ajz, faqrga o'hshash adolat gullari bila muzayyan va muattar o'lur. Ahloqi zamima bir sho'razore-

durki, oni aksincha jafo, zulm, hasad, kibr, kufr, tama', g'azab, nifoq, gasb, namima, kizb, bo'hton, g'iybat, buhl, hiyonat, isrof, qirs, poyriq, ta'jil, fitna, hosil; bunga o'hshash turli qabohat nimar-sadan boshqa shaylar ko'karmaslar». Demak, tarbiyalanganlik bar-cha ijobiy hulqlarni o'zida mujassamlashtirib, salbiy hulqlardan forig' bo'lish demakdir.

Yoshlarda ahloqiy hislatlar bilan birga, umuminsoniy fazilat-larni, ma'naviy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik diagnotsika va kooreksiyalash faoliyatiga murojaat etish zarur. Buning uchun, eng awalo, inson fazilatlarining o'zaro munosabatlarini va o'rmini aniq-lab olmoq lozim. Ma'naviyat esa aqliy, ahloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zahirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z nav-batida inson ijobiy sifatlarning kamol topib, boyib borishiga olib keladi.

Rejali va maqsadli o'qitish va tarbiyalash jarayonida natijalarni aniqlash zaruriyati pedagogik diagnotsikani vujudga keltirgan. O'z ibtidosida bu natijalar oddiy pedagogik metodlar orqali aniqlangan.

Tarbiyaviy metodlar: So'z orqali ifodalash, ko'rgazmalilik, amaliy namuna, rag'batlantirish, jazo uslublari va h.k.

Tarbiya jarayonida an'analar, udumlar, rasm-rusumlar roli. Vatan tuyg'usini shakllantirish, ona tilimizga muhabbat uyg'otish, milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish, ezgulik timsoli bo'lgan yo'lni Ulug'lash, umuminsoniy qadriyatlarga, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg'or madaniyatni shakllantirish, dinning dunyoviylik bilan qarama-qarshi emasligini anglash, huquqiy madaniyat-sog'lom dunyoqarashning muhim omili ekani to'g'risidagigi ma'lumotlarni ko'paytirish, ma'rifatning shahs intellektual salohiyatini oshirishdagi imkoniyatlari kengligini isbotlash kabi tamoyillari to'g'risidagi — bularning barchasiga tarbiya metodlari orqali erisqiladi. Har tomonlama barkamol, bilimli, malakali yoshlarni voyaga etkazishda.

Quyidagi tarbiya turlarining ahamiyati salmoqlidir:

- Aqliy tarbiya: bilim, ilm, malaka, ko'nikma; aql, ong, fahm.
- Ahloqiy tarbiya: ahloq, odob, hulq, yaqshilik, adolat, insof, diyonat, sharm, hayo, vatanparvarlik va boshqalar.
- Mehnat tarbiyasi: faollik, ishchanlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, aqliy ish, jismoniy mehnat, foyda, maosh.
- Jismoniy tarbiya: chiniqish, sport, o'yinlar, sog'lom tan.
- Etsetik tarbiya: go'zallik, kiyinish, tozalik, yurish turish, saranjom-sarishtalik.
- Ekologik tarbiya: tabiat, atrof-muhit, o'simlik va hayvonot dunyosiga ongli munosabat.
- Iqtisodiy tarbiya: tejamkorlik, bozor iqtisodiyoti, sarf, isrof; foyda, mulk, mulkka egalik.
- Huquqiy tarbiya: fuqaro, tenglik, To'g'rilik, halollik, jinoyat, jazo, huquq,

burch kabi kategoriyalarni qamrab oladi.

Tarbiya nazariyasi - pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadi. U Markaziy Osiyo faylasuflarining va halq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribasiga tayanadi.

Pedagogika tarixidan ma'lumki, ta'lim-tarbiyadan, tarbiya rivojlanishdan ajratib tekshirilmagan. HVIII asrning ikkinchi yarmi-ga kelib Rossiya pedagogikasida tarbiya masalalarini alohida ko'rish hollari uchraydi. «1806-yilda chiqarilgan Rossiya Akademiyasi lug'atida birinchi bor tarbiya so'zi pedagogik tushuncha sifatida alohida keltiriladi*, - deb ta'kidlaydi I.Tursunov.

«Tarbiya-ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari ehti-yoqlarining nazarda tutgan holda o'qituvchining O'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir».

«Tarbiya-tarbiyachi hohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun tarbiyalanuvchining ruhiyatiga muayyan suratda va tizimli ta'sir ko'rsatish jarayonidir».

Qat'iy ishonch bilan aytish lozimki, - degan edi Prezident I.Karimov O'zbekiston teleradiokompaniyasi muhbiri bilan mulo-qotda, - ma'naviy boylik moddiy boylikdan ming bor ustun, shu bois biz ta'lim-tarbiya masalasiga davlat siyosatining utsuvor yo'nalishi sifatida yondoshmoqdamiz. Kadrlar tayyorlash haqida Qonun qabul qilingan milliy datsur ham mohiyat e'tibori bilan shu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan.

Biror-bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi:

- a) o'quvchining qaysi hislatini shakllantirish yoki yo'qotish maqsadida rejalashtiriladi.
- b) shu hislatlarni tarbiyalash yoki yo'qotish uchun hizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi.
- d) belgilangan maqsad uchun hizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qaerda ishlatish rejalashtiriladi.

Bunday rejaga solinib, olib borilgan tarbiya mohiyatini ta'lim-tarbiya tizimi jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyati tashkil qiladi.

Tarbiya jarayonining hususiyatlari

Tarbiya jarayonining hususiyatlari				
Ko'p qirrali jarayon	Uzoq muddat davom etadi	Yahlit holda va konsentnk asosda amalga oshadi	Ikki tomonlama hususiyat, bolaning faolligi	Qarama-qarshiliklar ko'pligi

Tarbiyaning birinchi xususiyati uning ko'p qirrali jarayon ekanligi bo'lib, unda maktab, oila, bolalar va o'smirlar tashkilotlari, mahalla, keng jamoatchilik, kinoteatr, televidenie, adabiyot va san'at ishtirok etadi.

Tarbiyaning yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Ta'limdan farqli ravishda u bola tug'ilganidan boshlanadi, maktab yillarida, undan keyin va butun umr bo'yi davom etadi.

Tarbiyaning ta'limdan farqlantiruvchi yana bir xususiyati shundaki, u yahlit holda va konsentrik asosda amalga oshiriladi. Tarbiyaning turli tomonlari bir-biri bilan uzviy bog'langan. Boshlan-g'ich sinfda ham, o'rta va yuqori sinfda ham ayni bir narsa, masalan, Do'stlik, ahillik, vatanparvarhk va boshqalarni tarbiyalash ko'zda tutiladi.

Tarbiyaning yana bir xususiyati shundaki, bu jarayon ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, unda bolaning o'zi ham faol ishtirok etadi.

Tarbiyada qarama-qarshiliklarning ko'pligi yana bir xususiyatdir. Bu qarama-qarshiliklar bolalarda o'z tushunchalariga muvofiq datslabki paydo bo'lgan sifatlar bilan tarbiyachi tomonidan tarkib toptirilayotgan sifatlar o'rtasida O'quvchilarga qo'yilgan talablar bilan uni bajarish imkoniyatlari o'rtasidagi kurashlarda namoyon bo'ladi.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Mutafakkir olim Abu Nasr Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan etuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallagan insonni tarbiya-lash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu hatti-hara-katini sekin-atsa ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mu-shohada qilishi qobiliyatni tarbiyalaydi va aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson atsa-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchilardan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharaflil mehnat va qunt, irodani talab etadi. Bunda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatini e'tiborga olishi zarur.

Tarbiyaning samarali bo'lishi ko'p jiliatdan jamiyatdagi ijtimoiy intsitutlarning rivojlanishiga bog'liq. Ma'naviy va insoniy sifatlar-ning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va mu-nosabat muhim o'rin egallaydi. Bolalarni taqlidchanlik xususiyati mavjudligi tufayli ularni tarbiyalashda ota-onaning ongi, ma'naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga egadir.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va hulqiga ta'sir etish usullari. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va hulqiga ta'sir etish usullaridir.

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining

kuchi etmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o'zining hususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi. Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqati nazaridan baholash mumkin. Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog'liq.

Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Tarbiya maqsadi va mazmuni metodlarni to'g'ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lishi zarur.

Tarbiyaning mazmuni shahsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli hil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.

Tarbiyalanuvchilarning yosh hususiyatlari. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh hususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yosh hususiyatlari muayyan bir yosh davriga hos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik hususiyatlardir. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta mahsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

Halq pedagogikasida tarbiya metodlari. Halq pedagogikasi o'zbekona ahloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'zida mujassamlashtirgan. Halq pedagogikasida turlicha tarbiya metodlari hamda vositalaridan foydalaniladi. Bu metod va vositalar nihoyatda rang-barang bo'lib, ko'p jihatlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Binobarin, ushbu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Halq pedagogikasida qo'llanilgan hilma-hil tarbiya metodlarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

Tushuntirish (hikoya qilish, o'rgatish).

Mashqlantirish (odatlantirish, mashq qildirish).

Namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaqshiliklar haqida so'rash, o'rnak bo'lish).

Nasihat qilish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash va hokazolar).

Qoralash va jazo (ta'kidlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar).

Agar e'tibor berilsa, yuqoridagi beshta metod umumiy yahlitlikni ifodalaydi.

Oldin bolaga umumiy jarayonning mohiyati tushuntiriladi. Bolalar narsa, hodisa va jarayonlarning mohiyatiga tushunmaganlarida tarbiyachi namuna vositasidan foydalanadi, ya'ni, yoshlarning mustaqil kuzatuvchanligiga e'tibor beriladi. Bu holatda ham tushunmaganlar kattalarning nasihati, o'g'iti asosida narsa, hodisa yoki jarayonlarning mohiyatini anglaydilar. Bordini, bu holatda ham kutilgan natijaga erishilmasa yoki bolalar e'tibor qaratilgan holatning mohiyatini tushunishni istamasalar, eng so'nggi chora sifatida qoralash va jazo metodida foydalanishga to'g'ri keladi. Biroq, bu eng so'nggi chora. Zamonaviy pedagogika g'oyalariga ko'ra qoralash va jazo metodlarini so'nggi, aniqrog'i kam samara beradigan chora ekanligini isbotlangan.

Halq pedagogikasi namunalari, tarbiya metodlari va tarbiyaviy ta'sirlar muayyan vositalar yordamida qo'llanilgan. Mehmon ko'tish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, turli gurunglar (choyhona, to'y marosimlari), sayillar, oilaviy an'analar (tug'ilgan kun, fuqarolik pasporti, umumiy o'rta, o'rta mahsus hamda oliy ma'lumotga egalik to'g'risidagi attestat va diplom, shuningdek, davlat mukofotlarini olish kabi holatlarni nishonlash) va musobaqalar o'ziga hos tarbiya vositasi sanaladi.

Tushuntirishda o'quvchilarga mamlakat fuqarosining davlatga nisbatan muayyan huquq va burchlar asosida bog'langanligi borasida ma'lumotlar beriladi. Bunda davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi hamda Konstitutsiyasiga sadoqat ruhida tarbiya berishning ahamiyati katta. Shu sababli davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi hamda Konstitutsiyasining mohiyati tushuntirildi. Suhbat. O'quvchi shahsini g'oyaviy va ma'naviy-ahloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirchan usul hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o'quvchilari uchun dolzarbligi, o'quvchilarda ma'naviy-ahloqiy ishonch uyg'otishning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlari va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish zarur. Suhbat quyidagi mavzularda uyushtirilishi mumkin:

- a) etik mavzular (ijtimoiy ma'naviy-ahloqiy me'yorlar, jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy munosabatlar, jamoa orasida o'zini to'tish qoidalari va boshqalar);
- b) estetik mavzular (tabiat go'zalligi, shahslararo munosabatlar, inson go'zalligi);
- v) siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, halqaro munosabatlar va boshqalar);
- g) ta'lim va bilishga oid mavzular (koinot, hayvonot va o'simliklar dunyosi, elektronika va boshqalar).

Suhbatlarning, shuningdek, ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil etish, huquqiy, ekologik, iqtisodiy va gigienik mavzularda ham tashkil etilishi o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Suhbat davomida o'quvchilarga ularning o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari hamda mustaqil fikrlashlariga imkon beruvchi savollar bilan murojaat qilish juda

muhimdir. Bu borada bahs-munoazaralarning ahamiyati katta.

Hikoya. O`quvchilar odatda hayot va turli adabiyotlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ularga ahloq me'yorlari, halq o`tmishi, tabiiy boylar, qahramonlar hayoti va jasorati, shuningdek, tarix, adabiyot va san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot namunalari, shuningdek, ommaviy ahborot vositalari - radio, televidenie, gazeta va jurnallar sahifalarida e'lon qilingan ma'lumotlar ham o`quvchilar uchun qimmatli material bo`ladi. Suhbat ham, hikoya ham o`quvchilarning yoshiga mos mavzularda ular tushunadigan so`zlar vositasida adabiy tilda o`tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Suhbat yoki hikoya mavzusining o`quvchilar tomonidan belgilanishi, ularning samarali kechishini ta'minlaydi, buning natijasida o`quvchilar ilgari surilayotgan mavzuga befarq qaramaydilar.

Namuna. O`quvchilar o`z atrofidagi kishilarda hamma yaqshi ahloqiy sifatlarni ko`rishlari va ibrat olishlari nihoyatda muhim.

O`qituvchining shahsan o`zi namuna bo`lishi, ayniqsa, yoshlarga katta ta'sir ko`rsatadi. Ular o`qituvchining darsda va hayotda o`zini qanday to`tishini, atrofdagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o`z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar.

O`quvchilar o`zlariga yaqin kishilarning hulq-atvoriga taqlid qiladilar, Hulq-atvorlar bolalarda yaqshi sifatlarning, ba'zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta'sir ko`rsatadi. Shuning uchun o`qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o`zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qaerda bo`lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalarning so`zi bilan yurish-turishi va hatti-harakatlarida tafovut bo`lmasligi kerak.

Maktablarda ishlab chiqarish ilg`orlari bilan uchrashuvlar o`tkaziladi. O`quvchilar o`z ota-onalarining ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan fahrlanadilar, ularga taqlid qilishga intiladilar. Namunada halq pedagogikasi g`oyalaridan ham foydalaniladi. Ota-onalar o`z farzandlarini hamisha katta hayotiy tajribaga ega, dunyoqarashi va bilim doirasi keng kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan, «Qush uyasida ko`rganini qiladi». Juda oddiy hulosa. Shu oddiy hulosa ostida qancha fikrlar jamlanib yotgavnligini hamisha ham fahmiga boravermaymiz. Bu bilan halq halq «uyingda tartibli bo`l, aks holda bolang ko`chada tartibsiz bo`ladi», «bola oldida birovlarning g`iybatini qilma, bolang g`iybatchi bo`ladi», demoqchi.

O`z-o`zini tarbiyalash metodlari. O`quvchida o`z-o`zini tarbiyalashga, ya'ni, o`z ustida ongli, bartartib ishlashga ehtiyoj paydo bo`lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. Tarbiya jarayonida o`z-o`zini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. O`z-o`zini tarbiyalash metodlari o`quvchilarning o`zini o`zi idora qilishlari, turli o`quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo`llaniluvchi usullardir.

O`z-o`zini tarbiyalash o`quvchilarning o`zini o`zi idora qilish va o`quvchilarning turli organlari faoliyatida faol ishtirok etishni ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqeini oshirishning ta'sirchan vositasidir. O`quvchilar o`qish, tarbiya va dam olishda o`z-o`zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, bu usullar o`quvchilarni o`z-o`zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

O`z-o`zini tahlil (nazorat) qilish o`z shahsi, mavjud fazilatlari, hatti-harakati, hulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli. O`z-o`zini tahlil (nazorat) qilish uchun o`quvchi o`zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi. O`z-o`zini baholash mavjud fazilatlari, hatti-harakati, hulq-atvorini tahlil qilish asosida o`z shahsiga baho berishga yo`naltirilgan faoliyat usuli.

O`quvchining qobiliyatini o`z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O`z-o`zini baholash qiyin, lekin o`quvchini bunga etarli tayyorlash mumkin. Shu bois o`quvchi irodali bo`lishi, o`z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo`lishi, ya'ni, tarbiyalanishni hohlashi, o`zini o`rtoqlari, atrofdagilarning ko`zi bilan ko`rish va o`z-o`zini takomillashtirishga intilishi lozim.

O`z-o`zini baholash o`quvchi uchun shahsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o`ziga chetdan turib holisona baho berish, o`zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

Izohlash – tarbiyalanuvchiga hissiy-og`zaki ta'sir etish usuli. Izohlashning hikoya va tushuntirishdan farqlanadigan muhim belgisi muayyan guruh yoki alohida shahsga yo`naltirilganligidir. Ushbu metodni qo`llash sinfning o`quvchilarining umumiy yoki jamoa a'zolarining shahsiy hususiyatlarini bilishga asoslanadi. Boshlang`ich sinf o`quvchilari bilan ish olib borishda izohlashning elementar usul va vositalari qo`llaniladi: «Shunday harakat qilish kerak», «Hamma shunday qiladi». O`smirlar bilan ishlaganda ma'naviy-ahloqiy tushunchalarning ijtimoiy ahamiyati va ma'nosini izohlash zarur. Izohlash quyidagi holatlarni yuzaga keltirish uchun qo`llaniladi:

yangi ma'naviy-ahloqiy sifatlar yoki hulq ko`nikmalarini tarkib toptirish va mustahkamlash;

tarbiyalanuvchilarning sodir etilgan muayyan hodisa (masalan, sinf o`quvchilari ommaviy ravishda darsga kelmaganlari)ga to`g`ri, ongli munosabatni hosil qilish. Maktab amaliyotida izohlash ishontirishga tayanadi. Ishontirish vositasida o`quvchi ruhiyatiga sezilarsiz holda ta'sir etiladi. Boshlang`ich sinf o`quvchilari hamda o`smirlar ishonuvchan bo`lishadi. Pedagog ishontirishdan tarbiyalanuvchi ma'lum ko`rsatmani qabul qilishi zarur bo`lgan vaziyatlarda foydalanadi. Mazkur metoddan boshqa metodlarning ta'sirini kuchaytirish uchun ham foydalaniladi.

Munozara tarbiyalanuvchilarga hissiy-og`zaki ta'sir ko`rsatish asosida

ular da ma'naviy-ahloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli bo'lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, estetik va huquqiy mavzular («Did haqida bahs», «Mashqur bo'lish yo'llari», «Biz madaniyatli kishilarmizmi?» va hokazolar)da o'tkaziladi. Munozara turli nuqtai nazarlar to'qnashgan vaziyatda o'quvchilarda ma'lum hodisaga nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradi. Munozara asosida turli qarashlar yotadi. Bahs ijobiy natija berishi uchun puhta tayyorgarlik ko'rish maqsadga muvofiq. Munozara uchun mustaqil mulohaza va qarashni yuzaga keltiruvchi 5-6 ta savol tayyorlanadi. Ushbu savollar bilan munozara ishtirokchilari oldindan tanishtiriladilar. Ba'zan tarbiyachi munozara ishtirokchilarini o'zi tayinlashi ham mumkin. Chiqishlar jonli, erkin va qisq bo'lishi zarur. Matnni yozish kerak emas, agar shunday holat yuz bersa munozara zerikarli tus oladi. Pedagog munozara ishtirokchilariga fikrlarini iycham, asosli va dalillar asosida bayon etishga yordam beradi.

Mashq muayyan hatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli, tjobiy jarayondir. Mashq natijasini ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o'quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, ma'naviy-ahloqiy sifatlari boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi.

O'rgatish tarbiyalanuvchilar ijtimoiy hulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

O'rgatish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir. O'qituvchi bu harakatlarni ko'rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim.

Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli hili mavjud:

faoliyatda mashq qilish;

kun tartibi mashqlari;

mahsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy hamda jamoa faoliyatini tashkil etish va o'zaro munosabatni yo'lga qo'yish odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari belgilangan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog'liq istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish odatiga o'rgatadi. Mahsus mashqlar madaniy hulq ko'nikma va malakalarini hosil qiladi, mustahkamlaydi.

Pedagogik talab turli hatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy hulq-atvor me'yorlari. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Pedagogik talab ma'lum harakatlarni rag'batlantiruvchi yoki to'htatuvchi hamda o'quvchini oqilona harakatlarni bajarishga undovchi harakterga ega bo'lishi mumkin.

Rag'batlantirish tarbiyalanuvchining hatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-

quvvatlash usulidir. O`qituvchi har bir o`quvchi shahsida ro`y berayotgan ijobiy o`zgarishlarni anglash olishi zarur. Shundagina o`quvchi o`zining kamolga etayotganligini his qiladi, unda o`z kuchiga nisbatan ishonch paydo bo`ladi. Uni hurmat qilishadi, unga ishonishadi, uning fikrlari bilan qiziqishadi, unga quloq solishadi, demak, u jamoada o`z o`rniga ega. O`qituvchi ana shunday holatning yuzaga kelishi uchun rag`batlantiruvchi usullardan foydalanadi. O`quvchining yanada ijobiy sifatlarga ega bo`lishga intilishiga yordam beradi. Maktablar tajribasida rag`batlantirishning quyidagi turlari qo`llaniladi:

Har qanday rag`batlantirish mavjud pedagogik talablarga muvofiq bo`lishi, ketma-ket bo`lmasligi zarur, shuningdek, o`quvchini yoki uning hatti-harakatlarini haddan oshirib maqtash, boshqa o`quvchilarga taqqoslash, ularni kamsitmaslik, talabchanlikni bo`shashtirmaslik kabi shartlarga muvofiq qo`llaniladi.

Jazolash tarbiyalanuvchining hatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo ham o`quvchining individual hatti-harakatlari va umumjamoaning faoliyati uchun qo`llaniladigan eng so`nggi tarbiya usuli. Jazo choralarini qo`llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash kabi usullardan foydalanish mumkin emas, o`quvchini qo`rqitish, g`azablantirish ham ijobiy natija bermaydi. Aksincha, o`quvchi qo`rqqanda yolg`on gapirishni o`rganadi, ikki yuzlamachi bo`lib qoladi. Maktablarda qo`llash mumkin bo`lgan jazo choralariga quyidagilar kiradi:

Tanbeh berish – eng muhim jazo chorasi. O`qituvchi o`qituvchiga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo`yish mumkin.

Ogohlantirish – sodir etilishi mumkin bo`lgan muayyan hatti-harakatlarning oldini olish maqsadida qo`llaniladi.

Hayfsan berish – o`quvchining ma'lum hatti-harakatlarini qat'iy choralar asosida baholash. Agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, o`quvchi belgilangan intizomni buzaversa, uning aybi qay darajada bo`lishi va intizomni qanday sharoitda buzganligini inobatga olib unga hayfsan e'lon qilish mumkin.

Uyaltirish - o`quvchining ma'lum hatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiyasi uchun mas'ul bo`lgan sub'ektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari va boshqalar) oldida baho berish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus va sharm-hayodir. Odamda insonda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo`lsa, avvalo, o`zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo`ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu his-tuyg`ularni ehtiyotkorlik bilan o`stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizirtiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o`z o`rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

Jazo puhta o`ylab qo`llanilishi lozim, aksincha, jahl ustida jazolash mumkin emas. Jazolar yakka harakterda, ya'ni, birgina usulni qo`llash asosida bo`lsin, o`quvchining aybiga mos, muvofiq bo`lishi, tez-tez qo`llanilmasligi, jazolanuvchida jazoning to`g`ri belgilanganligiga nisbatan shubha tug`ilmasin va

ular o'z ayblarini sezsин. Jamoada muhokama qilish va jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlangan jazo berilsa, uning ta'sir kuchi yanada oshadi. Barcha holatlarda ham jazo tarbiyalanuvchining jismoniy va ruhiy azob-uqibatlariga solmasligi, uni tahqirlamasligi, sha'nini erga urmasligi kerak.

Hulosa qilib aytganda yuqorida ta'riflangan tarbiyaning umumiy metodlari o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish sohalarini qamrab olmaydi. Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib borar ekan, unga muvofiq ravishda tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi.

Tarbiya jarayonining umumiy holatidan kelib chiqqan holda tarbiya metodlarini quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin:

Bu guruhlar o'z navbatida bir qator tarbiya elementlaridan tashkil etadi. Chunonchi, shahs ongini shakllantirish metodlariga: hikoya, tushuntirish, izohlash, ma'ruza, etik suhbat, ishontirish, nasihat, yo'riqnoma, munozara, ma'ruza, namuna; faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy hulqni shakllantirish metodlariga mashqlantirish, odatlantirish, pedagogik talablar, jamoat fikri, topshiriq, tarbiyalovchi vaziyat; hulq va faoliyatni rag'batlantirish metodlariga: musobaqa, rag'batlantirish va jazolash kiradi.

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

1. Mahallada tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqing.

2. Masalani eching: ota o'z o'g'ining etuklik attetsatini olishi va 16 yoshga to'lishi munosabati bilan ziyofat berdi. O'g'lini bugungi bahtli kuni bilan tabriklab unga qadah uzatdi. Oila a'zolari bu voqeaga quyidagicha munosabat bildirishdi:

Dadasi: «o'g'lim muborak yoshing bilan tabriklayman, shu munosabat bilan bir qadah ko'taraylik!».

Buvisi: «jon bolam, spirtli ichimliklarga o'g'lingni o'rgata ko'rma, ichkilikbozlikning ohiri voy bo'lishi mumkin».

Bobosi: «...mayli, otangning so'zi erda qolmasin».

Oyisi: «...o'g'lim, otang senga qadahni spirtli ichimliklarning qanchalik zararli ekanligini bilishing yoki bilmasligingni sinab ko'rish uchun uzatdi».

Savol: Siz oila a'zolarining bu voqeaga bo'lgan munosabatlarini qaysi birini to'g'ri deb o'ylaysiz?

Ahborot manbalari


1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T., 1997 y;
2. I.A. Karimov. Ma'naviy yuksalish yo'lida. - T.: «O'zbekiston», 1998.
3. I.A. Karimov. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. - T.: «O'zbekiston», 1998.
4. Halqaro ochiq jamiyat intsitutining «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari» dasturi. 2002 .
5. Зимняя И.А. Педагогическая психология.-М: «Логос» , 2002.
6. Pedagogika. A.Munavvarov tahriri otsida, - T., 1996-y. 118-119-betlar.
7. Tursunov I.Y., U.N. Nishonaliyev. Pedagogika kursi. - T., «O'qituvchi», 1997-y, 172-173- betlar.
8. Galaguzova M.A dr. Sotsialnaya pedagogika. – M.:«Blads», 1999, 416-

8.- Mavzu: O'quvchilarni MA'NAVIY-AHLOQIY TARBIYAlash.

Reja.

- 1 Ahloq va ahloqiylik haqida tushuncha. Ahloqiy tarbiya mazmuni.
- 2 Ma'naviy-ahloqiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari.
- 3 Komil insonning ma'naviy sifatlari. Inson komilligi mezonlari.
- 4 Mustaqil fikrlashni tarbiyalash.

Ahloq, hulq va atvor so'zlari arabcha bo'lib, ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida ishlatiladi. Ahloq ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy qoida bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning itsisnosiz hamma sohalarida kishilarning hatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi. Ahloq-ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, har bir kishining jamiyat va oiladagi yurish-turishi, tartib qoidalarining yig'indisi sifatida gavdalanadi. Demak, jamiyatga, oilaga, mehnatga bo'lgan munosabatlarda ahloq namoyon bo'ladi.



25-rasm.

Donolar ahloq haqida turlicha fikr bildirsalarda, ularning barchasi insonni mukammallikka erishtirishga hizmat qiluvchi mesonlardan tashkil topganligini guvohi bo'lamiz.

«Ahloq ilmi insonlarni yaqshi hulqlarga chaqirib, yomon hulqlardan qaytarmoq uchun yaqshi hulqlarning yaqshiligini, yomon hulqlarning yomonligini bayon qiladurgan, bildiradurgan bir ilmdir. Har kim ahloq ilmini bilib amal qilsa, bu dunyoda aziz, ohiratda sharofatlik bo'lur.

Agar bir kishining o'zidan, ishidan, so'zidan boshqa kishilar ozor topmasalar, yaqshi hulq deyulur. Agar ozor topadurgan bulsalar yomon hulq deb atalur.

«Ahloq insonlarni yaqshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qay-targuvchi bir ilmdir. Yaqshi hulqlarning yaqshiligini, yomon hulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni ahloq deyilur.

Agar nafs tarbiyat topib, yaqshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaqshilikka tavsif bo'lib, «yaqshi hulqlar», agar tartibsiz o'sib, yomon ishlar qiladurg'on bo'lib

ketsa, yomonlikka tavsif bo'lib, «yomon hulqlar» deb atalur».

«Ahloq tarbiyasi insonni ahloqiy barkarnolikka etkazish va uning bashariyat jamiyatiga foydali inson qilib tarbiyalashdan iboratdir...

Bolalar suvga o'hshaydilar. Suv qaysi rangdagi idishda boisa, o'sha rangda tovlangani kabi, bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar o'sha muhitning shunday odat va ahloqini qabul qiladilar. Ahloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko`proq yaqshi va yomon ahloqni o`z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi O`quvchilardan qabul qiladilar*. Demak, ahloq butun insoniyatga hos bo'lgan tushunchadir. Uning mohiyati shahs hatti-harakatlari, turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi.

Ahloqiy tarbiya mazmuni

Ahloqiy tarbiya mazmuni asosan quyidagilarda o`z ifodasini topadi:

1. Jamiyatga, Vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash. Bu hildagi munosabatlar shahsning vatanparvarligi, fuqaro etukligi, baynalminallik kabi fazilatlarda aks etadi, uning maqsadlarida vatan boyliklarini ko`paytirish, mutsahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo'ladi.
2. Mehnatga ahloqiy munosabatni tarbiyalash. Bu ahloqiy munosabat shahsning mehnat jarayonida namoyon bo'ladigan yuksak ongida, mehnatning hayotdagi rolini anglashida, hususiy va jamoa mehnatiga tayyorlik, mehnatsevarlikda ifodalandi.
3. Atrofdagi kishilarga ahloqiy munosabat. Shahsning jamoatchilik, Ko`pchilik manfaatini o`z shahsiy manfaatidan ustun qo'yishidir.
4. Shahsning o`ziga, o`z hulqiga ahloqiy munosabatni tarbiyalashi - bu O`quvchini ongli intizom ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Ahloqiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari

Maktabda o`quvchilarga ahloqiy tarbiya berishda hilma-hil usullar qo'llaniladi:

- dars, ta'lim jarayonida ahloqiy tarbiyani qo'shib olib borish;
- ahil, inoq uyushtirilgan intizomli jamoa orqali ahloqiy tarbiya berish;
- To'g'ri rejalashtirilgan tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish orqali;
- maktabda ijobiy emotsional sharoit yaratish orqali. Masalan, Mustaqillik kuni, Navro`z bayrami;
- barcha O`quvchilarning maktabdagi umumiy va yagona tartib qoidaga rioya qildirish orqali;
- turli tushuntirish, uqtirish, suhbat, munozara, rag'batlantirish, jazolash usullaridan foydalanish orqali;
- tarbiyaviy soatlar, «Odobnoma», «Ma'naviyat asoslari» darslari

saviyasini oshirish orqali;

- mehnat ilg'orlari, ilm-fan hodimlari, mehnat fahriylari, hojilar bilan uchrashuvlar uyushtirish orqali;
- maktabda turli kechalar, olimpiada, fetsival, musobaqalar o'tkazish, turli ahloqiy-ma'rifiy teleradio eshittirishlaridan foydalanish;
- dars va tarbiyaviy tadbirlar jarayonida milliy qadriyat va an'analarimiz aks etgan asarlarni o'qib-o'rganish orqali.

Insonning ma'naviyati uning odobi, hulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Ma'naviyat esa aqliy, ahloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zahirida shakllanadi.

Sifat alohida bir shahsning muayyan bir hislatini ifodalovchi kategoriyadir.

Fazilat - alohida shahs, el, elat, halq ulusga taalluqli boigan ijobiy ahloqiy sifat majmuyi.

Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamolat darajasi odob, ahloq, madaniyat, ma'naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlashganligi bilan belgilanadi. Shu o'rinda bu kategoriyalarning mohiyati utsida to'htalib o'tish joizdir.

Odob - har bir insonning o'zi bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurish-turishida o'zini tuta bilishidir.

Ahloq - jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan hulq-odob normalari majmuyi.

Madaniyat - jamiyat va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi.

Ma'naviyat - inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

Mushohada qilish aqlning peshlanishiga olib keladi. Aql ongni sayqallaydi, ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson sekin - atsa takomillashib, komillikka erishib boradi.

Musulmon ahloqining asoslari mazmunan boy va rang-barang ko'rinishlarda namoyon etadi. Qur'oni Karimdagi, hadisi sharifdagi asrlar davomida otobobolarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf-odatlar, ma'naviyatimiz sarchashmalari Forobiy, Abdurahmon Jo-miy, Alisher Navoiy va boshqa olimu yozuvchilarning ahloq ha-qidagi fikr mulohazalari hozirgacha o'z qadr-qimmatini yo'qot-magan.

Milliy itsiqlol mafkurasining ma'naviy, madaniy va yuksak ahloqiy-ruhiy qadriyati shundaki, u hamma vaqt har qanday sharoitda kishini halollikka da'vat etadi. Zotan uning siyosiy ahamiyati va ma'naviy qadriyati ham huddi shu bilan belgilanadi.

Ma'naviy-ahloqiy tarbiyada vijdonning o'rni

Tarbiyada vijdon eng oliy ma'naviy-insoniy sifatdir. Vijdon tushunchasi,

insonning vijdoniy sifati, uning ongi, qalbi, aqli va irodasiga bog'liqdir. Chunki insonning ichki ruhiy kechinmalarida yaqshilik va yomonlik doimo kurashda bo'ladi. Agar inson biror ma'naviy vaziyatda o'z qalbiga quloq solib, irodasini ishga solsa, g'arazgo'ylik, mansabparatslik, molparatslik kabi g'ayri insoniy illatlardan ustun chiqib oqilona ish ko'rsa uning vijdoniy sifati yuqoriligini ko'rsatadi. Inson qalbida g'ayri insoniy illatlarning ustun bo'lishi aslida ma'naviy kasallikdir. «Milliy itsiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida shunday deyiladi: «Milliy mafkura insonga faqat moddiy boyliklar va ne'matlar uchun emas, awalo, Alloh taolo ato etgan aql-zakovat, iymon-e'tiqod tufayli yuksak ma'naviyatga erishish uchun intilib yashash lozimligini anglatadigan, bu murakkab va tahlikali dunyoda uning taraqqiyot yo'lini yoritadigan mayoqdir.

Har bir kishi o'z-o'ziga, kasbiga, davlatiga, halqiga, insoniyat-ga, olamga vijdoniy munosabatda bo'lishi lozim.

Jamiyat mafkurasini - milliy itsiqlol mafkurasini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Ularning merosini o'rganish talabalarni ruhiy-ma'naviy barkamol inson etib tarbiyalashga katta yordam beradi.

Kadriar tayyorlash milliy daturning ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy qimmatini, eng awalo, shundan iboratki, u jamiyatda mus-taqil fikrlovchi erkin shahsning shakllanishiga olib keladi. Mamla-katimiz Prezidenti «Tafakkur» jurnali bosh muharririning savollariga bergan javobida aytgandek, bunday odamlar uyushgan jamiyatni, u barpo etgan ma'naviy-ruhiy muhitni sohta aqidalar, baqiriq-chaqiriqlar, havoyi shiorlar bilan aslo buzib bo'lmaydi. Ularni aql-idrok va qalb amri bilan o'zlari tanlab olgan hayotiy maqsadlaridan ham chalg'itib bo'lmaydi.

Kadriar tayyorlash milliy dasturida ko'zda tutilgan asosiy maq-sadlardan yana biri insonni intellektual va ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim, ya'ni maktab-gacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta mahsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim va oily o'quv yurtlaridan keyingi ta'lim tizimi or-qali har jihatdan barkamol shahs-fuqaroni shakllantirishdan iboratdir.

Komiilikning asosiy belgilari

M. Mahmudov yurtboshimizning «Jamiyatimiz mafkurasini halqni-halq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin» asarini tahlil qilib, komil inson shahsi kontekstida qaraladigan yuzdan ortiq des-kriptor1 mavjudligini aytib, ularni qisqartirilgan holda keltiradi. Bu-lar: 1) o'zini anglash; 2) o'zligini anglash; 3) an'analarini anglash; 4) halqning orzu-itsaklarini bilish; 5) jamiyat oldidagi maqsadni tushunish; 6) yagona milliy bayroq otsida birlashish; 7) halq va davlat havfsizligi To'g'risida qayg'urish; 8) vatanni sevish; 9) el-yurtga sadoqat; 10) insonparvarlik hissi; 11) odamiylik fazilatlarini; 12) o'tmish va kelajak o'rtasidagi vorislik; 13) Ulug' ajdodlar merosini egallash; 14) milliy qadriyatlarni bilish; 15) umum-bashariy qadriyatlarni egallash; 16) yurt birligi To'g'risida qayg'urish; 17)

o'z oldiga maqsad qo'ya bilish; 18) Ta'lim-tarbiya birligi; 19) ta'lim-tarbiyaning ongini o'zgartirishi; 20) ong, tafakkurning jamiyatni o'zgartirishi; 21) mustaqil fikrlash; 22) ijtimoiy-siyosiy iqlim o'zga-rishi; 23) insonning hayotda o'z o'rnini topishi; 24) iymoni butunlik 25) sog'lom fikrlilik; 26) zehn-zakovatli yoshlarni tarbiyalash va'shakllantirish¹.

«Komillik-mehr-muruvvat, adolat, To'g'rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko'plab asl insoniy hislat va fa-zilatlarining majmuyidir».

Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni voyaga etkazish haqida qayg'urmagan halqning, millatning kelajagi bo'lmaydi. Komil inson g'oyasi azal-azaldan o'zbek halqimizning ezgu orzusi, millat ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan.

Yoshlarda mustaqil fikriy olish va o'zining shahsiy, To'g'ri hulosasini chiqara olish fazilatini tarbiyalash

Mustaqil fikrlash komillikning asosiy belgisidir. Komillik uch bosqichdan iborat:

1. Jismoniy salomatlik.
2. Ahloqiy poklik.
3. Aqliy etuklik.

Bu bosqichlarni shakllantirishda mustaqil fikrlash etakchi utsuvor o'rin egallaydi. Mustaqil fikrlash sarchashmasi fahmlash, ya'ni anglashdan, fikr yuritishdan boshlanadi.

Anglash - biror bir g'oyani (fikrni) tub mazmuniga tushunib etish.

Tafakkur - inson ongidagi mavjud ilmiy va hayotiy bilimlar majmualaridan keragini saralab olish va amaliyotga qo'llash.

Amaliyotda (praktikada) qo'llash - hayotda bir necha bor qo'llangan o'zining ijobiy hosilasini bergan, ishonchli muammolar echimi bilan solishtirib, hulosa qilish so'ng tafakkur saviyasiga tayanib yagona echimini tanlash va undan amaliyotda foydalanishdir.

Inson mustaqil fikrlash orqali voqelikni umumlashtirib, bilvosita va bevosita aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi ichki, murakkab bog'lanishlar, munosabatlar, hossalari, xususiyatlar hamda mexanizmlarni anglab etadi. Binobarin inson muayyan qonun, qonuniyat va voqealarning vujudga kelishi, kechishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rib turish imkoniyatiga egadirlar.

Fikr - inson faoliyati uning o'zligini kuch - qudratini o'zagini tashkil qiluvchi ma'naviy-insoniy sifatdir.

Yoshlarimiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasiga ayniqsa biz pedagoglar kuproq mas'ulmiz. Bu vazifani muqaddas bilib, amaliy faoliyatimizda hayotga tatbiq etaylik. Barkamol avlod mustaqilligimizning kafolatidir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Ahloq va ahloqiylik deganda nimalarni tushunasiz? Yaqshi va yomon hulqlarga nimalarni kiritasiz?
2. Ahloq va vijdonning qanday bog`liq tomonlari bor deb o`ylaysiz?
3. Ahloqiy tarbiyaning maqsadi nimadan iborat, uning mazmunini nimalar tashkil etadi?
4. Sizningcha qanday kishini komil inson deb hisobash mumkin? Komillikning mezonlari nimalar?
5. Musulmon ahloqining mohiyatini qanday tushunasiz va ahamiyati nimadan iborat deb o`ylaysiz?
6. Mustaqil fikrlashning komil inson shakllanishidagi o`rnini qanday tushunasiz?
1. Uchinchi sinf o`quvchilari shuhratparatslik va manmanlik so`zlarining mazmuni bir hil yoki boshqacha ekanligi to`g`risida bahslashib qoldilar. Nima uchun bolalar bu masalani tushunib olishlari qiyin? Ularga qanday qilib yordam berish mumkin?
2. «Uning vijdoni toza emas», «Bu - vijdotsiz kishi», «Bu ishni qilishga mening vijdonim yo`l qo'ymaydi», degan gaplarni siz qanday tushunasiz? Vijdonning kishi ahloqiy tarbiyasiga qandaydir aloqasi bormi? Bu qanday aloqa?
3. Televidenie orqali namoyish etilayotgan chet el seriallarining yoshlar tarbiyasiga qanday ijobiy va salbiy ta'siri bor deb o`ylaysiz? Ularni tomosha qilish va unga munosabat bildirishda ota-onalar qanday yo`l tutishlari lozim deb hisoblaysiz?
4. Siz insonlarda qadrlaydigan, Ulug`laydigan ahloqiy fazilatlar qaysilar va siz «ahloqsizlik» deb qaraydigan sifatlar nimalar?

Ahborot manbalari

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T., 1998.
2. I.A. Karimov. Ma'naviy yuksalish yulida. T., «O'zbekiston», 1998.
3. I.A. Karimov O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz - T.«O'zbekiston», 1998.
4. A.Avloniy. Turkiy gulitson yohud ahloq*. - T., 1994.
5. Mutafakkirlar ahloq va adolat haqida. T., «Adolat», 1995.
6. Pedagogika.O'quv qo'lanma. A.Munawarov tahriri ostida, - T., 1996, 139-145-b.
7. M. Mahmudov. Komil inson shahsi va ijtimoiy tajriba G`G` «Pedagogik mahorat»,
8. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. - T., «Sharq», 1998.
9. A.Ibrohimov, H.Sultonov, N.Jo'raev. Vatan tuyg'usi. - T., «O'zbekiston», 1996.
10. Qori Nizomiddin bin Mulla Hasan. Ilmi ahloq. - T., «Yozuvchi», 1994.9. Pedagogik mahorat haqida tushuncha . Pedagogik qobiliyat
11. Reja.
12. 1. Pedagogik mahorat kursining mazmuni.
13. 2. Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni
14. 3. O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat.
15. Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni va ahamiyati
16. Pedagoglik — o'qituvchilik kasbining paydo bo'lishi insoniyat tarixining eng qadim zamonlariga borib taqaladi. O'qituvchilik kasbi bilan tarbiyachilik faoliyati ham bir vaqtda vujudga kelgan.

Kishilar to'plagan turmush tajribasini yoshlarga o'rgatish, ularni Hayotga, mehnat faoliyatiga tayyorlash ehtiyoji natijasida Qadim zamonlardayoq ta'lim va tarbiya mustahil ijtimoiy faoliyat sifatida paydo bo'ddi.

Ibtidoiy tuzum davrida tarbiya mehnat jarayonida mazmun mohiyat topib, yoshlarga mehnat ko'nikmalari, jamoaning urfodatlari, marosimlarini o'rgatish barobarida shakllana boshlagan. Astasekinlik bilan tarbiya ijtimoiy vazifa sifatida ajralib chiqqan, ya'ni keksa yoshdagi kishilar bolalarni tarbiyalash ishi bilan shug'ullanganlar. Bolalarning tanasini chiniqtirish, chidamlilikka o'rgatish, g'arbiyjismoniy mashqlarni bajartirishga ko'proq e'tibor berilgan. Ko'p oilalar o'z bolalarini bilimli, ohir tabiatli, mahsus kishilarga berib o'qitganlar.

Turli halqlar — (bizning ota — bobolarimiz) Qadim zamonlardan beri Markaziy Osiyoda — Turon zaminida yashab keladilar. Hududlardan topilgan yodgorliklar shundan dalolat beradiki, eramizdan oldingi ming yilliklarda ham kattakatta ho'rhonlar, shaharlar, davlatlar mavjud bo'lgan. Ularda madaniyat beshigi — maktab, madrasalarda to'laqonli ta'limtarbiya faoliyati yuritilgan.

Qadimgi Turon zaminida yashagan odamlar dunyoviy ilmlar astronomiya, geometriya, arifmetika, tibbiyot kabi fanlardan saroy, ibodathonalar huzurida ochilgan maktablarda saboq olganlar shuningdek, qozi, mirzalar, hakamlar kabi davlat hizmatchilari tayyorlaydigan maktablar ham bo'lgan.

Qadimgi Sharq mamlakatlarida maktablarda qattiq intizom o'rnatilgan, jismoniy jazoga yo'l qo'yilgan. Ko'pchilik hunarmand, kosib, dehqon, chorvadorlarning bolalari oilada, turmush, mehnat jarayonida tarbiya olganlar, kasbHunar o'rganganlar. (M.Ochilov. «Muallim qalb me'mori», Toshkent, «O'qituvchi», 2001 yil).

Er yuzidagi barcha halqlar qatori turkiy qavmlar ham hayotiy ehtiyoj taqozosi bilan o'z bolalarini sohlom, baquvvat, mehnatsevar, kattakichiklarni izzathurmat qiladigan kishilar bo'lib ulg'ayishlarini orzu qilganlar. Tarbiya sohasida to'plagan tajribalarinini, orzu-istaklarini umumlashtirib, maqol, topishmoq, ertak, rivoyat, hikoyat, dostonlar yaratganlar, urfodat, marosimlar, bayramlarni an'ana sifatida, yoshlarga, oila a'zolariga va boshqalarga o'rgatganlar. Demak, holdirilgan bu pandnasihatlarining ijodkori, asrlar davomida yoshlarni kamolot sari etaklab kelgan o'qituvchi ham, hayot ilmini, turmush saboqlarini o'rgatib kelgan ustoz ham halqdir. Bunday orzu-istaklar Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» asarida quyidagicha tasvirlanadi:

yo'l ko'rsatib, dilni etar shod, har ikki olamda ahlli obod. Hamisha aklingni rahnamo etgil, Noloyiq ishlardan olisroq ketgil.

Hozirgi zamon pedagogika fani oldida turgan muhim muammolardan biri — o'qituvchi va pedagogik mehnat sharoiti masalasidir. Chunki, o'qituvchida barcha pedagogik g'oyalar mujassamlangan bo'lib, uning faoliyati orHali bu pedagogik g'oyalar amalga oshiriladi va hayotga tadbiiq etiladi.

O'qituvchining ko'p qirrali va murakkab faoliyat zaminida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o'qituvchining hilmahil faoliyatiga bog'liq: bolalarni o'qitish, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiy ishlarni tashkil eta bilish va o'tkazish, otaonalar o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarni olib borish va hakoza.

O'zbekiston Respublikasi olii ta'lim kontseptsiyasida o'qituvchi mutahassis oldida turgan vazifalar quyidagicha belgilanadi: — «Mutahassis malakasi — chuqur ilmiy bilim, keng dunyoqarash va kasb tayyorgarligi, kompyuter bo'yicha savodhonligi, o'z bilimini tezlik bilan yangilash va to'ldira olish qobiliyati singari omillardan, shular qatorida intizomi, mas'uliyati, ziyoliligi, ishiga, mamlakati mustaqilligiga, Vatan va jahon taraqqiyoti yo'lida ezgulik va adolatga sadoqat tuyg'ularini o'zida mujjassam etganidan tashkil topadi».

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan oktyabr oyining birinchi yakshanbasi halq ta'limi hodimlari kuni deb e'lon qilingan. Bu voqea davlatimizda o'qituvchilarning jamiyatda tutgan o'rni naqadar yuksak ekanligidan

dalolat beradi. Ilg'or o'qituvchilarimizga yuksak unvonlar, davlat mukofotlari berilishi ularga mas'uliyatli vazifalarni ham yuklamohda. Ayniqsa, Respublikamiz mustahillikka erishgandan keyin, o'qituvchining jamiyatdagi roli va mas'uliyati tobora ortib bormoqda.

Pedagogik mahorat haqida tushuncha. Oliy o'quv yurtlarida ihtisos tayyorlash tizimida «Pedagogik mahorat» kursini o'qitish maqsadga muvofiq bo'lib holdi. «Pedagogika nazariyasi», «Maktabda tarbiyaviy ishlar metodikasi», «Fanlarni o'qitish uslubiyati», «Pedagogika tarixi» va «Pedagogik amaliyot» bilan bir qatorda «Pedagogik mahorat asoslari»ni o'qitish ham bo'lg'usi mutahassislarni tayyorlash, o'qituvchining malakasini oshirish milliy dasturda belgilangan vazifalardan biridir.

«Pedagogik mahorat» kursi o'qituvchilarni ilmiy — metodik va amaliy jihatdan tayyorlashni maqsad qilib qo'yadi. Uning asosiy yo'lanishlari: pedagogik ijodkorlik, pedagogik topqirlik, pedagogik muloqot, o'qituvchining professional sifatlari, o'qituvchi nutqi, uning o'quvchiga har tomonlama ta'sir etish mahorati, pedagogik texnika hamda o'qituvchining tarbiyachilik mahoratidan iborat. O'qituvchi faoliyati o'z xususiyatiga ko'ra ijodiy yo'nalishga ega. Shunga ko'ra u yuqorida sanab ko'rsatilgan yo'nalishlardan tashqari, o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir etish yo'llari, usullari, lektorlik san'ati va mahorati kabi masalalarni ham o'z ichiga oladi.

Amaliy darslarda esa o'qituvchi nutqi va fikrlash madaniyati, o'quvchiga pedagogik ta'sir etish usullari, tarbiyachining tashkilotchilik mahorati kabi masalalar o'rganiladi. Laboratoriya darslarida esa diqqatni mustaqamlash uchun ayrim mashqlar bajariladi. Laboratoriya va mustaqil ish qismida pedagogik masalalar tuziladi va uni echish yo'llari o'rganiladi, pedagogik vaziyat hosil qilinadi va bu vaziyatdan chiqib ketish imkoniyatlari izlanadi. Mazhur amaliy ishlar o'qituvchining o'quvchilar bilan muomala qila bilish malakasini tarbiyalaydi. «Pedagogik mahorat» kursining amaliy darslaridan bir qismi maktablarda, litseylarda, kasb — hunar kollejlarida tashkil qilinadi va olingan nazariy bilimlar mustahkamlanadi.

Ta'lim — tarbiya jarayonining dialektik xususiyati unga ijodiy yondoshishni talab etadi. Uzoh yillar biz majburiy, imkoniyatlar cheklangan tizimda ishladik. Natijada maktablarda va oliy o'quv yurtlarida yuzaki o'quv rejalari va dasturlari doirasida o'ralashib holdik. Ijodkorlik, mustaqillik va topqirlik ta'qiqlandi, maktab inqirozga yuz tutdi, shukurkim, bu kunlar o'tmishda Holdi.

Ta'limtarbiyada har bir joyning, millatning yashash tarzi va xususiyatini hisobga olish qonuniyati yuksak pedagogik mahorat va madaniyatni, topqirlikni talab etadi. Fan va texnikaning, madaniyatning, jamiyatning tuzilishini, fan va texnikaning uzluksiz rivojlanishini hisobga olib, ta'lim va tarbiya mazmunini doimo takomillashtirib turish kerak bo'ladi. Ta'lim va tarbiya mazmunini takomillashtirish esa o'qituvchining ilmiymetodik Hayyorgarligi, ijodkorligi va

topqirligiga bohliq.

Albatta, har bir fan o'qituvchining shahsiy mahorati yiqilib, umumiy pedagogik mahoratni tashkil etadi.

Pedagogik faoliyat. Inson faoliyatiga hos bo'lgan xususiyatlar uning ongi va maqsadga yo'naltirilganligidir. Inson faoliyati oldindan belgilangan reja asosida tashkil topgan, davomli va muntazam ravishda amalga oshiriladi. Masalan, uy qurish, hayvonlarni parvarish qilish, o'quv yurtini tamomlash va boshqalar.

Kishilarning ehtiyoj va qiziqishlari turlituman bo'lganidek, shu ehtiyoj va qiziqishlarni qondirishga qaratilgan faoliyati ham hilmahildir. Ammo bu hilmahillik uchta asosiy turga bo'linadi:

Mehnat;

O'qish;

O'yin.

Mehnat — bu moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishga qaratilgan faoliyat jarayonidir. Ijtimoiy mehnat jarayonida inson tafakkur qobiliyatiga ega bo'ldi. Mehnat insoniyatning yashashi va rivojlanishi, shuningdek har bir ayrim shahsning psihik kamol topishi uchun muhim vositaga aylandi.

O'qish o'z navbatida mehnat faoliyatiga Hayyorgarlikning o'ziga hos bosqichidir. Faoliyat turi sifatida u o'ziga hos ijtimoiy boylik hisoblangan bilimlarni egallash, muayyan ko'nikma va malakalarni hosil qilishga haratilgan. O'qishning mustaqil faoliyat turi bo'lib ajralib chiqishi, inson mehnatining to'htovsiz murakkablashib borishi natijasida amalga oshadi. O'qish iroda kuchini, zo'r berib ishlashni va kuch sarflashni talab etadi.

Inson faoliyatining yana bir turi bo'lgan o'yin — ana shunday etakchi faoliyat turi hisoblanadi. Faqat o'yinda va o'yin orHali bola voqelikni, shu jumladan, kishilarning ijtimoiy munosabatlarini, hulqini, hatti-harakatlarini bilib oladi. A.S.Makarenkoning fikricha «Katta yoshdagi kishining hayotida faoliyat, ish, hizmat qanday ahamiyatga ega bo'lsa, bola hayotida o'yin ham huddi shunday ahamiyatga ega. Bola o'yinda qanday bo'lsa, katta bo'lganda ishda ham ko'p jihatdan shunday bo'ladi». (A.S.Makarenko. Bolalar tarbiyasi haqida lektsiyalar. «O'qituvchi», T., 1967 y, 48 — bet).

Pedagogik faoliyat — yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun halq davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lim-tarbiya berish ishi bilan shug'ullanadigan va bu jarayonga mahsus tayyorlangan odamlarning meHnat faoliyatidir. Maktab o'qituvchilarining faoliyati jamiyatni quruvchi va unda yashovchi inson shahsini shakllantirishga haratilgan. O'qituvchining barkamol avlodni tarbiyalash va unda yangi insonga hos sifatlar tarkib toptirish vazifasi eng olijanob, yuksak va shu bilan birga murakkab vazifadir. har bir bola o'z hulqatvoriga, harakteriga ega. Bolalarni o'qitish va tarbiyalashda ana shu o'ziga hos xususiyatlarini hisobga olish, o'rganish nihoyatda murakkab jarayon. Bunda odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o'zida aks

ettiruvchi mahsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan talabalar uning ana shunday hususiyatlarini bilishlari lozim. O'qituvchilik ixtisosining bu hususiyatlarini uning professiogrammasida ko'rish mumkin.

O'qituvchining pedagogik faoliyati bevosita uning qobiliyati bilan ham bog'liqdir. O'qituvchining tarbiyada va o'qitishda yuqori darajaga erishishi, uni doimo takomillashtirib borishi iste'dodini ta'minlovchi san'at bo'lsa, bolaga meHr qo'ygan, kasbini sevgan fidoiy o'qituvchining ish natijasi — bu pedagogik mahoratdir.

Demak, o'z ishining ustasi bo'lgan pedagog yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, fanning yoki san'atning tegishli soHalarini yaqshi taHlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyaatini mukammal egallagan mutahassisdir. Bu ta'rifni yaqshi tushunib, uning moHiyatini taHlil etadigan bo'lsak, ushbu ta'rifda «Pedagogik mahorat» tushunchasi mazmuniga kiradigan Huyidagi masalalarni ajratish mumkin:

umumiy madaniyatning yuqori darajasi va bilimdonlik, aqlzakovatning yuksak ko'rsatkichi;

o'zining o'qiyotgan faniga doir keng va chuqur bilim soHibi;

pedagogika, umumiy yosh pedagogik psixologiya kabi fanlar sohasida bilimlar bilan qurollanganlik, o'qitish va tarbiyalash ishlari tajribasidan erkin va ustalik bilan foydalana bilish;

o'quvtarbiya ishlari metodikasini to'liq egallaganlik darajasi.

Pedagogik mahoratning mazmunida quyidagi o'zaro bog'liq bo'lgan asosiy hismlarni ajratish mumkin:

- a) insonparvarlik yo'nalishi;
- b) ixtisos mutahassislikka doir bilimlar;
- v) pedagogik qobiliyat;
- g) Pedagogik tehnika (ko'nikma — iqtidor).

O'qituvchining shahsiy hususiyatlari va mutahassislikka doir bilimlar

a) goyaviy sohada: ilmiy dunyo qarash va mustahkam e'tiqod, ehtiyoj va ahloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish, ijtimoiy fuqorolik burchini anglash, ijtimoiysiyosiy faollik;

b) professional — pedagogik soHada: bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish, psiho — pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik mahorat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniy dilkashlik, talabchanlik, qat'iylik va maqsadga intilish, o'zini tuta bilish, professional layoqatlilik;

v) bilish sohasida: ilmiy eruditsiya, ma'naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni qo'llab-quvvatlash, pedagogik ma'lumotni oshirishga intilish.

O'qituvchining psixologikpedagogik Tayyorgarlik qo'yiladigan talablar:

a) bilim egallash sohasida: pedagogika fanining metodologik asoslari va kategoriyalarini bilish, shahsning rivojlanishi va sotsial shakllanishini bilish, ijtimoiy tarbiyaning mohiyati, maqsad va vazifalari, forma va metodlarini tushunish, bolalar anatomiyasi va fiziologiya siga oid bolalar rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini bilish, bolalar jinsiy va gigienik tarbiyasi, nazariy, tabiiyilmiy asoslari, bolalar psihologiyasi asoslari va qonuniyatlarini bilish, har hil yoshda shahsning individual psihologik hususiyatlarini bilish;

b) ko'nikma va malakalar hosil qilish sohasida: pedagogik vaziyatni analiz qilish, pedagogik jarayonni rejalashtirish, natijalarini mo'ljallay olish, sotsial — pedagogik hodisalarning amaldagi holatini, ularning paydo bo'lish va rivojlanish sabablarini, sharoiti va harakterini tahlil qila bilish, baholay bilish ko'nikmasi, o'quvchilarning tarbiyalanganlik va jamoaning rivojlanishini aniqlay olish ko'nikmasi, ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarda uchray olishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va hatolarni ko'ra bilish ko'nikmasi, aniq pedagogik vazifalar va ularni hal qilish ko'nikmasi, har qanday rejalashtirilgan ishlarni bajarishda o'quvchilarning javob reaksiyasini oldindan chamalay olish ko'nikmasi;

v) o'quvtarbiya jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish sohasida: o'quvchilarning tarbiyalanganlik va bilim darajasini Hisobga olgan Holda ta'limtarbiya maqsadga muvofiq o'quv materialini tanlash, uni analiz va sintez qila olish, murakkab matnlarni va o'quv material larni o'zlashtira olish ko'nikmasi, darsning tashkiliy, pedagogik, — mantiqiy psihologik tuzilishini ijodiy va asosli ko'ra bilish ko'nikmasi;

g) bolalar faoliyati turlarini, pedagogik imkoni yatlarini aniqlash va harakatga keltirish sohasida: tarbiyaviy maqsadga muvofiq ayrim o'quvchilar va jamoa uchun vazifalar belgilash, qo'yilgan maqsad asosida ularning tushunchasini o'zgartira olish ko'nikmasi, bolalarga ta'sir o'gkazish va ularning faoliyatiga rahbarlik qilish ko'nikmasi, ta'limtarbiya metod va usullarini maqsadga muvofiq qo'llash, o'quvchilar hulqi va faolligini boshqa rish, bolalarning tashqi ko'rinishi va hiliqlaridan ruhiy holatidagi o'zgarishni aniqlash, o'zini hayolan tarbiyalanuvchi o'rniga qo'ya bilish, ayrim o'quvchilarning ota onalari bilan aloha qilish, til topa bilish, to'g'ri muomala qila bilish ko'nikmasi, tarbiyalanuvchilarni o'ziga harata olish, ayrim o'quvchilarga nisbatan munosabatini o'zgartira olish ko'nikmasi, sinfda va maktabda sodir bo'lgan salbiy munosabatlarning sababini topa bilish ko'nikmasi;

d) pedagogik jarayonni to'g'ri uyushtirish sohasida: qo'yilgan pedagogik vazifani asosli ravishda o'zgartira olish ko'nikmasi, o'quvchilar o'rtasida do'stlik va o'rtoqlikni o'rnatish ko'nikmasi, o'quvchilarga berilgan topshiriqni nazorat qilish va ishning harakterini o'zgartirib turish ko'nikmasi;

e) yakuniy hisob, olingan natijalarni baHolash va yangi pedagogik vazifalarni

belgilash sohasida: ta'lim va tarbiya metodlarini ho'llashning optimal sharoitlarini qo'llay bilish, pedagogik tajribalarni umumlashtirish, boshqa o'qituvchilar tajribasini tahlil qila olish va uni o'z ishida qo'llay olish ko'nikmasi.

Mahsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuni. Ihtisosga doir bilimlar, ilmiy tadqiqotga doir bilimlar, fanning nazariy va amaliy ahamiyatini tushunish, fanning hozirgi darajasi va qonuniyatlari, tarixi, rivojlanishi va keyingi yo'nalishlarini bilish, ilmiy tadqiqot ishlaridan dastlabki malakalar hosil qilish, matematik va alfabit kataloglaridan foydalana bilish. Masalan, matematika fakulteti bitiruvchi talabalarining mahsus tayyorgarligini bilish tahminan quyidagi bilimlarni o'z ichiga olishi mumkin. Son tushunchalarini kengaytirish aksiomatik chizmasi, algebrik tuzilmalar, nazariy guruhli algebrik printsiplar, chiziqli, vektorli fazo tushunchasi va hokazo...

Ihtisosga doir metodik tayyorgarlik mazmuni. Hozirgi sharoitda har bir o'qituvchi o'zi o'qiyotgan predmetni o'qitishning maqsad va vazifasini bilishi, amaldagi maktab dasturlari va o'quv qo'llanmalarini har tomonlama tahlil qila olishi, o'quvchilar charchaganligini tez payqay olishi, ularni bartaraf qilish yo'llarini topishi, didaktika va psixologiya yutuqlariga tayangan holda o'qitishning optimal variantlarini tanlab olishi, o'zi o'qiyotgan fanga oid ko'rgazmali qurollar tayyorlay olishi, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni bajarishi va unga rahbarlik qila olishi kerak.

Muhtasar aytganda, o'qituvchi nimani o'qitish, qancha hajmda o'qitish, nima uchun o'qitish va qanday usulda o'qitish, qanday o'qitsa yaqshi natija beradi, — degan savollarga hamisha javob topishi shart

Pedagogik qobiliyat haqida tushuncha va pedagogik qobiliyatning turlari. Shahsning muayyan faoliyatini muvaffaqiyatli egallashi, shuningdek uni ijodiy ravishda amalga oshirishning shartlari hisoblangan hususiyatlariga qobiliyat deb ataladi. har bir inson takrorlanmaydigan individ bo'lib, uni muayyan faoliyat turiga layoqatli qiluvchi omil kishining o'z hususiyatidir. Ishdagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan uning qobiliyati bilan belgilanadi.

Alalhusus, qobiliyat — shahsning muayyan faoliyat turini yuqori darajada bajarishga bo'lgan layoqat darajasini ifodalaydigan, turmush jarayonida hosil qilingan individual hususiyatlar yig'indisi hisoblanadi.

Masalan, qobiliyatli o'qituvchi bir hil ish sharoitlarida o'z hamkasblariga qaraganda yaqshiroq natijaga erishadi. Biz ko'pincha, falon o'qituvchining hali tajribasi kam, lekin u shubhasiz, qobiliyatli o'qituvchi, degan iboralarni eshitamiz. Bu o'sha o'qituvchining hali kam tajribasi bo'lishiga haramasdan o'qituvchilik ishini muvaffaqiyatli olib borishga yordam beradigan bir qancha pedagogik qobiliyatlar (kuzatuvchanlik, pedagogik nazokat, muomalaga) ega ekanligidan darak beradi.

O'qituvchilik faoliyatida muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi — pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf

qilib, katta natijaga erishadi, o'z ishining natijasi bilan yangiliklar yaratadi. Ijodkorlik hamisha uning hamrohi bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishigina loyiq bo'ladi va pedagogik mahoratga etishadi.

qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatni rivojlantirish iste'dod va zehn, inson nerv sistemasida anatomiya va fiziologiyaga oid xususiyatning taraqqiy etishi bilan bog'lik.

Kishi qobiliyati ikkita asosiy turga bo'linadi:

Mahsus qobiliyatlar;

Umumiy qobiliyatlar.

Pedagogik faoliyatining samarali bo'lishi o'qituvchida Qobiliyatning Hiyidagi turlari mavjulgini va uning takomillashtirib borilishini taHozo etadi.

Bilish qobiliyati — fanning tegishli sohalariga oid (matematika, fizika, adabiyot va boshqalarga oid) qobiliyatlar. Bunday qobiliyatlarga ega o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi. O'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatadi, nihoyatda qiziqadi, ayrim tadqiqot ishlarini ham bajaradi.

Tushuntira olish qobiliyati — o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli Qilib bayon eta olish, material yoki muammoni aniH, tushunarli Qilib gapirib berish, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyati. O'qituvchi zarur G'ollarda o'quv materialini o'zgartirishi, soddalashtira olishi, qiyin manbani oson, murakkab manbani oddiy, noaniq manbani tushunarli tarzda o'quvchilarga etkaza olishi lozim. Qobiliyatli o'qituvchi o'quvchilarning bilim va kamolot darajasini e'tiborda tutadi, ularning nimani bilishlariyu, nimani bilmasliklarini, nimani unutib qo'yganliklarini tasavvur qiladi. Ba'zi o'qituvchilarga, ayniqsa, tajribasi kam o'qituvchilarga o'quv materiali oddiy, tushunarli, alohida izoHni talab etmaydigandek tuyuladi. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini o'quvchi o'rniga qo'yadi. U kattalarga aniH va tushunarli bo'lgan manbani o'quvchilarga tushunilishi qiyin bir manba bo'lishi mumkinligiga ishonib, unga asoslanib ish yuritadi.

Kuzatuvchanlik qobiliyati — o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shahsini juda yaqshi tushuna olish, psihik qobiliyatlarni kuzata olish qobiliyati. Bunday o'qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo'lmagan tashqi belgilar asosida o'quvchining ruhiyatidagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

Nutq qobiliyati — nutq yordamida, shuningdek, imoishora vositasida o'z fikr hamda histuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Bu o'qituvchilik qobiliyati uchun juda muhim.

Tashkilotchilik qobiliyati — birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishda ruhlantirishni, ikkinchidan, o'z ishini to'g'ri uyushtirishni nazarda tutadi.

Obro' orttira olish qobiliyati — o'quvchilarga bevosita emotsionalirodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' qozona olishdir. Obro' faqat shu asosda emas, balki o'qituvchining fanni yaqshi bilishi, mehribonligi, nazokati va boshqa hususiyatlar orqali ham hozoniladi. Bu qobiliyat o'qituvchi shahsiy sifatlariga, hususan irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamliligi, qat'iyligi, talabchanligi va boshqalarga), o'quvchilarga ta'limtarbiya berish mas'uliyatini his etishi darajasiga ham bog'liqdir. O'quvchilar ho'pollik qilmaydigan, qo'rqitmaydigan, to'g'ri talab g'o'ya oladigan o'qituvchilarni hurmat qiladilar. Bo'shang, laqma, irodasiz, printsipsiz o'qituvchilarni bolalar yoqtirmaydilar. Bolalar bilan do'stlasha olish, ular bilan samimiy munosabat o'rnata bilish pedagogik nazokatning mavjudligidan darak beradi. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati — o'z harakatlarining oqibatini ko'rish, o'quvchining kelajakda qanday odam bo'lishini tasavvur qilishdadir. Bolani kelgusida qanday qobiliyatlarini rivojlantirsa, qanday kasb egasi bo'lib chiqishini oldindan bashorat qilish. (pedagogik diagnostika).

Diqqatning taqsimlay olish qobiliyati. O'qituvchi uchun diqqatning barcha hususiyatlari — hajmi, kuchi, idora qila olishi, safarbarli tarahiy etgan bo'lishi juda muhimdir.

Kommunikativ qobiliyat — kishilar bilan bo'ladigan munosabatni yaqshilaydigan, birbiri bilan til topib ishlashni ta'minlaydigan qobiliyat. Bundan tashqari, konstruktiv o'qituvchining o'z ishini loyihalashi, rejalashtirishi, pertseptiv — idrok jarayonining ob'ektlarini birinchi bo'lib bilib olish va uni hotira obrazlari bilan solishtirish, empatiya — boshqa kishilarning psihik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish, didaktik qobiliyat — o'quvchi va boshqa kishilar bilan muloqot qilishda pedagogikaning qonun qoidalariga amal qilish.

O'qituvchi yuqorida sanab o'tilgan qobiliyatlardan tashqari bir qancha ijobiy sifatlarga, aniq maqsadni ko'zlash, qat'iylilik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabilarga ega bo'lgandagina pedagogik kasbning yuqori pog'onasiga ko'tarila oladi.

O'qituvchi irodasi, sabrtoqati, uning o'zo'zini idora qilishi hamda boshqalarga ta'sir o'tkaza olish qobiliyati ayniqsa e'tiborga molikdir. Odam ob'ektiv dunyoni bilibgina qolmasdan, balki unga faol suratda ta'sir ham ko'rsatadi. Odam o'z maqsad yo'lida harakat qilib, har hil to'siqlarga uchraydi. Bu to'siqlarning biri hayot va mehnat sharoitiga, boshqa biri esa kishining shahsiy kamchiligidan kelib chiqadi.

To'siqlarni engish kishiga bilishning yangi ufqlarini ochib beradi, shu bilan birga, uning sharoitlarini va o'zo'zini idora qila bilish kuchini haror toptiradi. Iroda odamning o'z hatti-harakatini ongli suratda tartibga solishidir. Bu esa ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda uchragan to'siHni bartaraf qilishda ifodalanadi.

Shahsning irodaviy hislatlari (sifati, hususiyati) maqsadni amalga oshirishda uchragan to'siqlarni engish borasidagi tajribada o'zlashtirgan o'ziga hos

usullaridan iboratdir. Shahsning irodasi deb, har hil irodaviy hatti-harakatlar va hususiyatlar yig'ndisiga aytiladi.

Harakatning maqsadga qaratilganligi odamning bosh, etakchi, irodaviy hususiyatidir. Shahsning boshqa eng muhim irodaviy hususiyatlari quyidagilar:

tashabbus — o'z hohishi bilan ishamal, hatti-harakat ko'rsata bilish;

Qat'iyatlik — ikkilanmasdan, har tomonlama o'ylab harorlar qabul Hila olish va ularni izchil suratda amalga oshira bilish;

sabotlilik — qiyinchiliklarga qarshi kurashda hayratni bushashtirmasdan maqsad orqasidan doimo intila bilish;

dadillik — qo'rqishga qarshi tura olish va qo'yilgan maqsad yo'lida o'rinli tavakkalga bora olish;

ishchanlik — qiyinchiliklarga qaramasdan ishni ohirigacha etkaza bilish.

Bolalar hayyor iroda bilan dunyoga kelmaydilar. Irodaviy o'sishning eng karakterli hususiyati faollik va mustaqillikdir.

Kuchli iroda egasi bo'lishning bir necha yo'llari mavjud:

Boshlangan ishni ohirigacha etkazish;

Uchragan qiyinchiliklarni nolimay, maqtanmay engish;

hatto bir necha marta buzib qilish kerak bo'lsa ham boshlangan ishni ohirigacha etkazish;

Bugun qilish kerak bo'lgan ishni ertaga qoldirmaslik;

5.Qiziqqan narsalarga birdaniga kuch sarflamasdan, birmabir bajarish;

6. Iroda hosil qilish uchun havasni keltiruvchi narsa va harakatdan o'zini tiyish, keraksiz harakatlarni bajarishdan ko'ra muhim.

Irodani tarbiyalashda jamoada gguhta tashkil etilib, muntazam o'tkaziladigan ishlar o'quvchilarning umumiy saviyasiga hamisha ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

qobiliyat va zehn. O'qituvchining o'z Qobiliyatini rivojlantirib borishi. Zehn Hobiliyatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, nafas yo'llarining, tovush naychalari va tomon ustki qismining tuzilishi o'quvchida vokal qobiliyatlarning rivojlanishiga hizmat qilishi mumkin.

Zehn qobiliyatlar rivojlanishining shartlaridan biridir. Biror kishi muayyan faoliyatga nisbatan ajoyib zehnli bo'lishi mumkin, agarda sharoit bo'lmasa, qobiliyatlar rivojlanmay qoladi. Mustaqillik e'lon qilingandan so'ng turli kasb egalari yangidanyangi ihtirolar qilmoqHdalar, bolalarimiz chet ellarda iste'dodlarini (musiqa, sport, olimpiada uyinlari va boshqalar) namoyish etib kelmoqdalar.

Zehnning rivojlanish sharti — bu avvalo pedagogtarbiyachi tomonidan bajariladigan, so'ngra tobora mustahkamlanib boriladigan, chuqur ijodiy faoliyatdir. Kishi o'z zehnni mustahkamlash uchun juda ko'p mehnat qilishi kerak bo'ladi.

Maktabda bola qobiliyatlarini rivojlanishi bevosita o'qituvchitarbiyachi

rahbarligida olib boriladi. O'quvchi qobiliyatlarini rivojlantirishda uning iste'dod nishonalari — zihnini hisobga olish juda muhimdir. Qobiliyatlarning erta namoyon bo'lishi bolaning favkulotda zehnga ega ekanligini ko'rsatadi.

Biz qobiliyatli kishilar haqida gapirganimizda, ko'pincha, shu kishilarning hayot yo'lini belgilab bergan shahslar haqida gapirishni unutib qo'yamiz. holbuki, shu odamlarning maslahati, qo'llab-quvvatlashi natijasidagina mashqur kishilar etishib chiqadilar.

Shahsning qobiliyatini rivojlanishining yana bir sharti — ta'limni unumli mehnat bilan qo'shib olib borilishidadir. Ikkinchidan, qobiliyatlarning rivojlanishi bilim, ko'nikma va malakalar egallash bilan bevosita bog'langandir. Agar bola etarli bilimga ega bo'lmasa, u har qancha harakat qilsa ham o'z qobiliyatini yuzaga chiqara olmaydi. Demak, hayot yo'lini aniqlab olish, iroda va harakterni, o'zo'zini tarbiyalab borish — qobiliyatlar shakllanishining asosiy omillaridan biridir.

10.Mavzu:O'qituvchi FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI Reja.

1. O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologisi
 2. Muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi
 3. O'qituvchilarni o'quvchilar bilan muloqot olib borish mahorati
- Pedagogik muloqot va uning ahamiyati. Muloqot inson faoliyatining ruhiy Hamda ma'naviy asosi natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy ehtiyojlar bilan birgalikda namoyon bo'ladi,
- «Shahslar faoliyati motivatsiyasining asosi sifatida yuzaga chiqayotgan ehtiyoj, manfaat, manfaatdorlik kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ma'lum ma'noda ularni maqsadli o'yfikrlari, istaklari yuzaga chiqishiga ham sabab bo'ladi. Shahslar aro munosabatlarni, muloqot madaniyatini hay darajada shakllanishiga ham sezilarli ta'sir o'tkazadi. Binobarin, muloqot odamlar orasida amalga oshiriladigan faoliyatlar ichida etakchi o'rin egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojlarni jamiyatda yashash va o'zini shahs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojni qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati mislsiz». (V.M.Karimova. Ijtimoiy psixologiya asoslari. — Toshkent. 1994 yil. 35bet). Muloqot odamlarning birgalikdagi faoliyatlari, ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida birbiri bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir.
- Har bir shahsning jamiyatda ado etadigan faoliyati o'zaro munosabat va ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish, avvalo odamlarning birbirlari bilan til topishish, birbirlariga turli hil ma'lumotlarni uzatish, fikr almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab etadi. Shunday ekan, har bir shahsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir. Bir harashda osonga o'hshagan shahslararo muloqot jarayoni aslida juda murakkab bo'lib, unga odam hayoti davomida o'rganib boradi. Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida taniqli psixolog B.F.Parigin shunday yozadi :
- a) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;
 - b) individlar o'rtasidagi ahborot almashinuv jarayoni;
 - v) bir shahsning boshqa shahsga munosabat jarayoni;
 - g) bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;
 - d) birbiriga hamkorlik bildirish imkoniyatlari;
 - e) shahslarning birbirini tushunish jarayoni.
- Muloqot o'z xususiyatlariga ko'ra shakl va ko'ri nishlarga ega. Muloqot inson amaliy faoliyatining moddiy-ma'naviy shakllarini hamda uning ehtiyojlarini o'zida aks ettiradi. («Halq ta'limi» jurnali, 2003 yil, 3son,

48bet).

O'qituvchining o'quvchilar bilan muomala odobi. O'qituvchi va o'quvchi, domla va talaba o'rtasidagi munosabat va muomala madaniyati ularning fe'latvori, hulHi va olgan tarbiyasining amaliy hayotda namoyon bo'lishini bildiradi. Kishining madaniyati, avvalo uning muomalasi, atrofdagilar bilan munosabatida ko'zga tashlanadi. O'qimishli, madaniyatli, o'qituvchi hamkasbidan, o'quvchisidan nimani, qanday so'rashni, u yoki bu masala yuzasidan murojaat Qilish mumkinmi yoki yo'qligini, oilaviy munosabatlarga dahldor masalalarga munosabat bildirish zaruriyati bormiyo'qligini yaqshi anglaydi. Muomala jarayonida suhbatdoshining kayfiyatini ko'tarish, unga optimistik ruh bag'ishlash, uning o'z kuchiga ishonchini hosil qilish ham o'qituvchining eng muhim sifatlaridan biridir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tom ma'nodagi muomala madaniyatiga ega bo'lgan o'qituvchi shuhratparastlik, manmanlik, befarqlik, hasadgo'ylik, g'iybatchilik kabi illatlarga toqat qila olmaydi va unga Qarshi kurashadi.

O'qituvchining muomala madaniyatining tarkibiy qismi nutq madaniyati bilan bog'liq. (Biz o'z ishimizning bir mavzusini «O'qituvchi nutqi — pedagogik mahorat shartidir» deb nomlaganmiz, u mavzuga o'qituvchi nutqi haqida to'liH tafsilot berilgan. H.B.). Chunki nutq va unda ifodalangan so'z kishiga ta'sir etuvchi qudratli psihologik kuchga ega. Uni faqat o'zining mazmuni bilan emas, balki so'zlovchining aytilayotgan fikrini ifoda qilish uslubi bilan ham ta'sir darajasi va Hudratini yanada orttirish mumkin.

Ingliz dramaturgi B.Shou aytganidek, «Ha» so'zini aytishning 50 dan ortiH uslubi bor, «Yo'q» so'zini ham shuncha uslubi bor, ammo bu so'zni yozishni faqat bir uslubi bor». (Halq ta'limi jurnali, 2003 yil, 3son, 49bet).

Bu fikr zahirida muloqot madaniyatiga doir juda nozik qochirim, ma'no yashiringan. O'qituvchi muloqotining negizida so'z, fikr turar ekan, fikrni bayon etish ifodasi har bir o'qituvchining saviyasi, ma'naviy dunyosi, madaniyatiga asoslanadi.

O'qituvchining muloqot madaniyati nafaqat shahslararo munosabatlarga, balki shu bilan birga ishlab chiqarish, mehnat jamoasi, jamiyat hayotiga ham kerakligini hisobga oladigan bo'lsak, bugungi kunda o'quvchi, talabalar fe'latvorini o'rganish, ularning birbirlariga mehrmuruvvatli bo'lishga o'rgatish, diniy aqidaparastlik tomir otayotgan hozirgi davr uchun jamiyatni insonparvarlashtirish naqadar dolzarbligini anglash mumkin. Umuman olganda, muloqot madaniyatini takomillashtirish umuminsoniy ehtiyoj sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Atoqli adib B.Shou so'zlari bilan aytganda: «Biz hozir havoda hush kabi uchishni,

suvda baliq kabi suzishni o'rganib olgan bo'lsakda, bizga bir narsa — insonlardek yashashni o'rganib olish etishmaydi». Artur Konon Doyl asarining qahramoni, mashhur izHuvar Sherlok Holms ta'kidlaganidek: «Har bir inson o'z hususiyatiga ko'ra Hal etilmaydigan jumboH»dir. Kishilar hulHi, fe'latvori bilan birbirlaridan farq qiladilar, ammo ular orasidagi o'hshashlik ma'lum darajada saqlanib qoladi.

Demak, odamzodning tashqi turqitarovatigina, balki ichki olami, maslagi, insoniy qiyofasi, hozirgi ko'rinishi uzoh tarixiy kamolot natijasidir. Bu kamolot zahirida esa kishilar o'rtasidagi muloqot hamda muomala madaniyati turganligi sir emas. Shu sababli o'qituvchining muloqot madaniyatida ham oqilona ehtiyojni anglab olish muhim vazifadir.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot olib borish yo'llari. O'qituvchining ish faoliyati davomida o'quvchilar bilan muomalamunosabatlari katta o'rin egallaydi. Bu jarayonda bola insoniyat to'plagan bilimlarni, muomala Qilish tajribalarini o'zlashtiradi. O'qituvchi esa pedagogik jarayonda asosiy shahs bo'lib hizmat qiladi, chunki unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan.

O'qituvchi bolalarni o'Hitish va tarbiyalash jarayonida umuminsoniy va milliy urfodat mezonlaridan saboh beradi. O'quvchilar muomala odobini, muloqot olib borish yo'llarini asosan o'qituvchi timsolida anglab oladilar. Muallim bola uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo'lib qoladi. Afsuski, hamma muallimlar ham bolalar nazarida shunday bo'lib qolmaydi. O'zining qo'pol muomalasi bilan o'quvchini o'qishdan sovitib, dilini ranjitadigan o'qituvchilar ham uchrab turadi, albatta. hayotda, amaliyotda bunga ko'plab misollar topiladi. Bunday o'qituvchilar bolalar orasida obro' ortira olmaydilar, aksincha, o'zlariga ham bolalarga ham zarar etkazadilar. O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muloqotni tartibga soluvchi talablardan biri bolaning hulqini, muomalasini, bola bajargan ishni odilona, to'g'ri baholashdir. Pedagogik faoliyatda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muloqotning muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning turi nihoyatda ko'p bo'lib, o'qituvchi tomonidan muloqot jarayonida bu ishlarning hususiyati, bajarish jarayoni, natijasi haqida to'liq tushuntirishiga bog'liqdir.

Muloqotlar jarayonida o'qituvchi ayrim talablarga rioya qilishga to'g'ri keladi: o'z ishi jarayonida o'qituvchi qar bir o'quvchining qadrqimmatini inson sifatida hurmat qilishi, o'quvchiga nisbatan ishonchi;

bolaga mehribon, hamho'r bo'lishi, shodligiga ham, tashvishlariga ham sherik bo'lish; bolalar bilan har qanday muloqot jarayonida alohida yondoshish, pedagogik taktni saqlash.

O'qituvchi faoliyatida sharqona umuminsoniy qadriyatlardan

foydalanish. Milliy dastur, ta'lim to'g'risidagi qonundan kelib chiqadigan vazifalarni maktab o'quvchilari, o'quv yurtlarining pedagog hodimlari, professor o'qituvchilari amalga oshiradilar. Shu bois pedagog hodimlar o'zlarining kasbkor sha'ni va qadrqimmatlarini himoya qilishlari: odob-ahloq qoidalariga rioya etishlari, bola, o'quvchi va talaba, o'qituvchio'quvchi shahsining qadrhimmatini asrashlari; bolalarni mehnatga, qonunlarga, otaonalarga, ma'naviytarixiy, madaniymilliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, atrofmuqitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashlari, ibratli faoliyatlari va shahsiy namunalari bilan umuminsoniy ahloq qoidalariga, haqiqat, adolat, vatanparvarlik, yaqshilik va boshqa hayrli hislatlarga nisbatan e'tiborni qaror toptirishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimovning deyarli barcha asarlarida, so'zlagan nutqlarida o'zbek halqining ko'p asrlik ma'naviymilliy, qadriyatlari, ma'naviyatini belgilab beruvchi Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, Imom al Buhoriy, Imom at — Termiziy, Bahouddin Naqshband, Azzamaqshariy, Najmiddin Kubro, Axmad Yassaviy, Sufi Olloyor, Sulaymon Bohirhoni kabi mutafakkirlarning bebaHo merosini, Al Horazmiy, Abu Nasr Forobiy, Al Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Axmad Yugnakiy, Mirzo Ulugbek, Amir Temur, Bobur, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod kabi allomalarning jaHon fani va madaniyatiga qo'shgan bebaho hissalarini o'rganish, shu asosda yosh avlodni tarbiyalash zarurligi ta'kidlanadi.

Prezidentimizning ta'kidlashicha, yoshlarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda islom ta'limotining ahamiyati katta. Islom dini — bu otabobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham diyonat, ham ma'rifatdir. Tarihga nazar tashlar ekanmiz, din odamlarni o'zo'zini idora etishga, ijobiy hislatlarni ko'paytirib, halos bo'lishga chorlaganiga guvoh bo'lamiz. Imon e'tiqod, poklik, halolik, adolatdini bo'lgan Islom kishilarni ohir sinovlarga bardosh berishga, yorug' kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan, ishontirgan. Bunday da'vat o'z navbatida odamlarga kuchquvvat bag'ishlagan, irodasini mustahkam qilgan, birbiriga mehroqibatini oshirgan. «Demak, din halq ma'naviyatining yuksalishiga katta hissa qo'shib kelgan ekan. Bugungi davlatchiligimiz haqida so'z yuritganda, rejalar tuzganda dinni eng avvalo, ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatida e'tiborga tutishimiz lozim. (I.A.Karimov. O'zbekiston siyosiyijtimoiy va iqtisodiy istiqbolning asosiy tamoyillari. «Halq so'zi» gazetasi. 1995 yil. 24 fevral).

Islom dini o'tmishda yaratilgan barcha bilimlar, insoniy tajriba va fazilatlarni umuminsoniy qadriyat sifatida o'zida mujassamlashtirdi. Qur'oni Karim va Hadisu Sharifda bayon etilgan yaqshilikka, ezgulikka undovchi G'oyalar, insoniyat tammaduni hazinasini boyitdi, uni abadiyatga dohil

qildi.«Pedagogik mahorat» fanimizning 3mavzusida «O'qituvchi irodasi, sabrtoqati, o'zo'zini idora qilish, Histuy qularini, kayfiyatini boshqara olish, rostgo'ylik» kabi talablar mavjud. Bu talablarni bajarishda islom ta'limotidan foydalanish qo'l keladi. Islom ta'limotida yaqshilik qilish insonning tabiiy ehtiyoji bo'lib, Olloh insonga o'z ne'matlarini ehson qilganidek, inson ham boshHalarga yaqshilik Qilish, sahovatli bo'lish kerakligi ta'kidlanadi. E'tiqodli sabrtoqatli bo'lish yuksak ahloqiy fazilat sifatida ulug'lanadi. Sabr hamma fazilatlarning onasi, har bir fazilatning asosidir, Bu fazilat qiyinchiliklarni yo'qotish yo'lida uchraydigan muammolarga, insonlardan kelayotgan aziyatga bardosh berish fazilatidir.Insonga hos olijanob sifatlardan yana biri kechirimli bo'lishdir. Bu sifat keng qalbli, birovlarining adovati va aziyatiga chiday oladigan kishilarda bo'ladi. Insonlar ko'pincha hato qiladilar va hatolarning kechirilishiga muhtojlik sezadilar. «Yomonlikni yaqshilik bilan kaytaringlar» deyiladi. Qur'oni Karimda.Kishilar o'rtasidagi munosabatlarda ko'pgina muammolar o'ylamasdan, ehtiyotsizlik bilan aytilgan qo'pol so'zdan kelib chiqadi. O'qituvchining chiroyli so'zi esa yaqshi muomala, mehroqibat kalitidir. O'qituvchi shirinso'zligi va hushmuomalaligi shartlaridan biri ovozni baland ham, past ham qilmay, me'yorida gapirishdir. Shirinso'zlik va go'zal munosabat hech qachon, hech qaerda sotilmaydi. Bunga erishmoqlikning birgina yo'li bor, bu ham bo'lsa, tinimsiz shirinso'zni mashq qilish, kitob o'qish va ahborotlarni tinglash, ko'p eshitish va tahlil qilishdir. Muomala o'qituvchining kimligini ko'rsatuvchi ko'zgudir.Pedagogik mahorat fani o'qituvchisining maqsadlaridan biri — komil insonni o'qitish va tarbiyalash natijasidir. Komil inson g'oyasi — ham milliy, ham umumbashariy mohiyat va qadriyatga ega, odamzodga hos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni qamisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oyadir.

Komil insonni tarbiyalash g'oyasi azalazaldan halqimizning ezgu orzusi, uning ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Barkamol inson haqidagi yuksak, umuminsoniy g'oyalar Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarimizning asarlarida, ayniHsa teran ifoda etilgan.Hazrat Navoiyning «Kamol et kasbim, olam uyidin senga farz o'lmagay qamnoq chiqmoq. Jahondin notamom o'tmak biaynih, erur Ham momdin nopok chiHmoH», degan fikrlari har bir inson komillikni o'ziga shior qilib olishi zarurligini anglatadi.

Erkin fuqorolik jamiyatini ma'naviy barkamol, ezgu hoyalar hayotiy e'tihodi bo'lgan insonlargina bunyod eta oladi. Shunday ekan yangilanayotgan jamiyatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta'limtarbiya dasturini tubdan isloh, Qilish, ta'limtarbiya jarayonida milliy, umuminsoniy qadriyatlardan unumli foydalanish ahamiyati tobora ortib boraveradi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot olib borish yo'llari. (Biz V.A.Kan — Kalikning pedagogik muloqot haqidagi o'qituvchi va o'quvchilar uchun zarur bo'lgan maslahatlarini to'liq keltiramiz. (V.A.Kan — Kalikidr. «Pedagogicheskoe tvorchestvo», Moskva., 1990 god, izd. «Pedagogika»)).

Insonning mehnat faoliyati, mehnat, bilish, muloqot ... Biz ular haqida ko'p gapiramiz, tahlil qilamiz. Biroq aqlhushni bir erga to'plab, astoydil o'ylab ko'radigan bo'lsak, qaroyib bir manzaraga duch kelamiz. Inson mehnat faoliyatining shakl va usullarini o'rganish uchun ko'p vaqt ajratadi, dunyoni bilish usullarini o'rganish uchun ham ko'p vaqt sarflaydi. Biroh insonlararo muloqotga Hech kim hech qaerda mahsus o'rgatilmaydi. Bizda muloqot hilishning murakkab san'atiga o'qitadigan maktab Hozircha yo'q. U bevosita ish jarayonida shakllanib boradi.

Tasavvur qiling, siz sinfga kirib keldingiz. Pedagogik muloqotning yozilmagan ushbu qonunlarini yana bir bor eslatishga harakat qilamiz.

1. Pedagogik jarayon bizning bolalar bilan munosabatimizga asoslanadi, zotan huddi shu munosabatlar pedagogik o'zaro ta'sirda birlamchidir, har bir «pedagogik harakat»ga takrorlanmas shahsiylik ma'nosini beradi. O'quv material yoki pedagogik talabni takrorlanmas hissiyotlar yig'ndisi bilan bezaydi. Bularsiz esa bola qalbi sirini hech qachon anglab bo'lmaydi. O'zingizning bolalar bilan munosabatingiz haqida doimo o'ylang, bu munosabatlarni maqsadga yo'naltirilgan holda tuzishga Harakat qiling. Ular pedagogik jarayonga, qolaversa har bir bola shahsiga sezilarli darajada muntazam ta'sir etib holadi. Esda tuting, yozgan har bir konspekt, matn ortida tarbiyaviy ish rejasi zahirida sizning o'quvchilar bilan o'zaro munosabatingiz masalasi yashirinib yotadi.

2. Pedagogik muloqotni tashkil etishda faqat pedagogik maqsad va vazifalar bilan o'ralashib holmaslik zarur. Bunday cheklanish o'qituvchining «o'z tashabbusi» bilan muloqot qilishga olib keladi. Uning so'zlarida hukmronlik ma'nosini anglash qiyin emas. «Bu men uchun zarur. Bu pedagogik mahsad va vazifalar bilan bog'liq. Dastur va rejalardan kelib chiqadi» va boshqalar. Pedagogik muloqotning «o'z tashabbusi» tashkil qilishi o'qituvchi faoliyatini hat'iy cheklab Qo'yadi, o'quvchi uning harakat doirasidan tashqarida holadi Mashhur pedagoglarimizdan ko'p chiligi shunday deydi: «Biz kattalar, o'qituvchilar bola larga, asosan bizga hush keladigan narsalarni bajarishga ilishga majbur qilamiz, ularning ko'ngillariga harab ish tutish esa ko'p qollarda pedagogik faoliyatimiz doirasi dan tashqarida qolib ketadi». Shuning uchun bolalar bilan muloqotni yo'lga qo'yishda o'qituvchi tashabbusidan ko'ra «bola tashabbusi» asosida ish tutgan ma'Hul. Shunda bola doimo bizning pedagogik faoliyatimiz doirasida bo'ladi.

Shubha yo'q, muloqotni o'qituvchi tashabbusi bilan tashkil qilish oson. Ammo pedagogik muloqot — bu murakkab inshoot, demak uni muayyan qonun

asosida ko'rmoq kerak. Bu o'rinda o'quvchi tashabbusi bilan boshlangan muloqot yaqshi natija beradi, u o'quvchi shahsini to'laroq aks ettiradi, pedagogik vazifalarni amalga oshirishda samaradorlikni ta'minlaydi.

Pedagogik muloqotni tashkil qilar ekanmiz, o'z nutqimizni bir bola yoki o'quvchilar guruhiga yo'naltirishga harakat qilishimiz kerak. Bunday yo'l tutish ta'lim va tarbiyaning to'g'ri usullarini tanlash kabi muhimdir. Nutqni aniq yo'naltirish zarur deganda nimani nazarda tutmoq kerak. Avvalo, o'quvchining shahsiy hususiyatlarini, uning sinfda, sinfdoshlari bilan munosabatda egallaydigan o'rni hisobga olish darkor. Shunga muvofiq nutqni tez ifoda etish, fikrlarning ketmaketligiga erishish, uning mantiqqa to'g'ri kelishini e'tiborga olish o'qituvchining asosiy vazifasidir.

Shuni ham ta'kidlash joizni, pedagogik jarayondagi muloqotni faqat bir vazifa bilan, ya'ni ahborot bilan cheklash mumkin emas. Bu yo'lda muloqotning bir turidan — ahborot ayirboshlash, o'zaro munosabatlarni tashkil Qilib, bola shahsini o'rganish, kattalar va bolalarning birbiriga ta'sirini Hisobga olish va boshHa vositalardan foydalanish lozim. Biz pedagogik muloqotdagi mavjud yo'nalishlardan biriga bilibilmay amal qilmasligimiz mumkin. BiroH buning oqibati ertasidayoq ko'zga tashlanadi, tarbiya natijalarida uzilish yuz beradi. Shunday holning yuz bermasligi uchun o'qituvchi bola shahsini o'rganib borishi zarur.

17. Bolalar bilan munosabatga kirishar ekanmiz, muloqotni, ya'ni yuHoridan pastga qarab tashkil qilishdan saqlanishimiz kerak. Hatto juda kichik yoshdagi bolalar ham mustaqil ekanliklarini isbotlashga harakat qilishadi. O'qituvchilik diplomi bolalar bilan munosabatda etakchi bo'lish huquqini bermaydi. Bunday huquqni qo'lga kiritish uchun o'quvchilar jamoasida tutadigan o'rni, bu o'qituvchining rasmiy obro'si emas, balki uning insoniyligi bilan belgilanadi. Bolalar bilan o'zaro munosabatni shunday yo'lga qo'yish kerakki, etakchilik mavqei tabiiy ravishda pedagogik jarayon mantiHidan kelib chiHsin.Sinfdagi ruhiy muhitni sezishga harakat Qilishni o'rganish lozim. Chunki o'qituvchi sinfdagi ruhiy holatni bilmas ekan, o'quvtarbiya jarayoni mahsuldor bo'lmaydi. O'qituvchi har bir shahs ko'nglidagi sirlarni topishga yordam berishga Harakat Qilishi va bunday malaka va ko'nikmalarni o'zida shakllantirishi kerak. Masalan: sinfda matematika darsi bo'lmoqda. O'qituvchi o'quvchilarni yangi material bilan tanishtirmoqda. Matematikaga qiziqadigan bir o'quvchi, matematikani yaqshi ko'rgani uchun ham, bu darsga quloq solib tinglab turibdi. Ikkinchi o'quvchi esa, quloq solish bilan kifoyalaniib, ikki ko'zini o'sha javob beradigan o'quvchiga tikkanicha o'tiribdi. U chiroyli yoki yo'qligi haqida o'ylayapti. Huddi shu dam matematikani uncha hushlamaydigan, ammo sportni jondilidan sevadigan uchinchi o'quvchi yonidagi o'quvchiga kechagi sport o'yini haqida gapirib bermoqda. Matematikaning «M» harfini ham tushunmaydigan boshqa o'quvchining ko'zi tashqaridagi horga tushdi. Agarda

o'quvchilarning shu xususiyatlarini birmabir tahlil qilsak, darsning ruhiy vaziyatlari sonsanoqzligini ko'ramiz. Biroq har hil dars o'tganda unga bugungi kun nuqtai nazaridan yondoshish kerak bo'ladi bolalar bilan suhbatda kechagi kun mavzusi takrorlanishi mumkin, bunda mavzudagi arziyas bo'lib tuyulgan o'zgarish suhbatni butunlay boshqa ma'lumotlar bilan boyitib yuboradi. Shuning uchun sinfdagi ruhiy vaziyatni nazorat qila bilish juda ahamiyatlidir:Buning uchun:

bolalarni kuzata bilish;

bolalar ko'zidagi ifodani, ularning mimikasi va ko'rinishidagi o'zgarishlarni tushuna bilish zarur;

bolalar hulqidagi o'zgarishning, kayfiyatidagi barcha o'zgarishlarga e'tibor berish;

sinfning o'zini tutishiga nisbatan munosabatni bildirishga yumshoqlik va hozir javoblik ko'rsatish;

sinfdagi bugungi ruhiy muhitni kechagisi bilan qiyoslab, garchi doimo o'zgarib turgan bo'lsada, umumiy ruhiy holatini topish.

7. Har bir o'qituvchi o'ziga bolalar ko'zi bilan qarashni o'rganishi lozim. Buning uchun:

o'z faoliyatini teztez tahlil qilishi;

o'quvchilar o'rniga o'zini qo'yishga harakat qilishi;

Hamkasblarining darslarini kuzatishi va o'zini ularga hiyoslashi; o'zida qaysi nuqsonlar bolalar bilan ishlashga salbiy ta'sir etayotganligini aniqlash;

hatolarni ochiq tan olish, biron bir narsani bilmaganda uni ochiq aytishdan uyalmasligi;

mashqulotlardan bo'sh vaqtlarda bolalar bilan suhbatlashishni o'ziga har bir o'qituvchi odat qila olishi;agarda sinfdagi o'qituvchiga laHab qo'yishgan bo'lsa, undan hafa bo'lmaslik, bafurja o'tirib bu laqabni kelib chiqishi va mohiyatini aniqlashga harakat qilishi.

8. Bolalarni har handay savoliga javob berish va so'zlarini tinglashga harakat qilish. Agarda o'quvchi noto'g'ri gapirayotgan va o'zining fikrini bayon qilishga hiynalayotgan, o'qituvchining vaqti nihoyatda zih bo'lsan taqdirda ham unga etarlicha javob berib, Holganlarini kelgusi safar birgalikda muhokama etamiz, deb ogohlantirishi zarur.

Bunday ta'sir bola shahsiga e'tiborning eng muhim ko'rsatkichidir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning faol emasliklarining asosiy sababi — o'qituvchilarning bolalarning so'zlarini ohirigacha tinglay bilmasligidadir. Shuning uchun o'qituvchi quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha o'zini sinab ko'rishi shart. (V.A.Kan — Kalik., Ped. Tvorchevstvo. Moskva., izd. — «Pedagogika», 1990 god).

bolani ohirigacha eshitishga hamma vaqt ham hodirmisiz?

o'quvchi gapirayotganda, sizda uni to'htatishga ishtiyoj tuhilmaydimi ?

agar o'quvchi biron narsani bayon qilayotganda ortiqcha so'zlarni ko'p gapirsa, tutilib tutilib tushuntirsa jahlingiz chiqmaydimi?

Bola gapirayotganda u bilan hayolan qo'shilmasligingizni ifoda etishi yoki etmasligini kuzatganmisiz?

Bolalar javobiga kattalarga hos talablar g'o'yayotganligingizni sezasizmi?

O'qituvchi bolalar bilan muloqotni yo'lga g'o'yar ekan, ularning kayfiyatini tushunishga intilish, sinfdagi psihologik holatni ilg'ab olishga harakat qilish juda muhim. Shuni esda tutish kerakki, pedagogik jarayon ruhiy kechinmalari harakatchan, o'suvchan va o'zgaruvchidir. Bu holat o'qituvchidan habul qilishda yuksak madaniyatli bo'lishni talab qiladi. muloqotdagi ruhiy vaziyat, o'quvchi kayfiyatining o'zgarishi, bir tomondan sinfdagi ahvol, vaziyat haqida zarur ahborot bersa, ikkinchi tomondan ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashga ta'sir etadi. Sinfdagi doimiy va muntazam «ruhiy kuzatish», bolalar ruhiy holatini aniqlash o'zaro ta'sirning eng aniq vositalarini tanlash imkonini beradi.

O'qituvchining o'z ustida ishlashining quyidagicha tahminiy dasturini tavsiya etish mumkin

pedagogik jarayonning har qanday vaziyatida bolalarni muntazam kuzatib turish;

hamkasblarining darslarini kuzatish va sinfdagi ahvolni doimiy ravishda aniqlashga harakat qilishi;

o'z darsida o'quvchilar ruhiy holatining mantihi va rivojlanishidagi o'sishini hisobga olish, o'zgarish sabablarini aniqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yish;

darsdan so'ng o'quvchilar bilan suhbatlashish va dars davomida ulardagi ruhiy holatning o'zgarishiga nima sabab bo'lganini aniqlash;

dars boshida yoki o'quvchilar bilan shahsiy suhbat davomida ulardagi ruhiy holatning o'zgarishiga nima sabab bo'lganini aniqlashga harakat qilish;

pedagogik kuzatuvchanlikni rivojlantirish.

10. Pedagogik muloqot jarayonida turlituman nizolar kelib chiqishi mumkin.

Shuning uchun: esdan chiqarmaslik kerakki, nizo pedagogik savodsizlik oqibatida kelib chiqadi. Bunday holda u havflidir. Tezlik bilan bunday nizoni oldini olishga harakat qilish kerak;

nizo talablar, ko'rsatmalar, odat va ko'nikmalar to'qnashuvi natijasida bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda nizo sabablarini tahlil qilish lozim. Uning pedagogik jarayonda harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajarishi ehtimoldan holi emas.

shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, biz bolalardan hafa bo'lish huquqiga ega emasmiz. Pedagogik muloqotning o'ziga hosligi ham mana shunda.

O'quvchilarda o'qituvchilar bilan muloqot jarayonida munozara qilish ehtiyoji tuhilsa, bunga imkoniyat yaratishga intilish joiz. O'quvchi fikrining noto'g'riligini isbotlash uchun uning harakteridagi nuhsnlarni yuziga solish shart emas.

Ko'p hollarda yosh o'qituvchilar sho'h o'quvchilar bilan muloqotda qiyinchilikka duch keladilar. Agar siz bunday o'quvchilar qalbiga yo'l topmoqchi bo'lsangiz, o'quvchiga murojaatingizni «nima uchun», «Qanday qilib» kabi savollar bilan boshlashga harakat qiling. Bu muloqotning rivojlanishini ta'minlaydi. Lekin esda tutish kerakki, bunday o'quvchilar bilan suhbatda, jonli o'zaro munosabat ipining uzilishi havflidir. Muloqot doimiy va uzluksiz bo'lishi lozim. quyidagi reja bunga yordam beradi:

sizda o'quvchilar bilan muloqot jarayonida boshi berk ko'chaga kirish Hollari sodir bo'ladimi, buning sabablari nimada?

pedagogik ish faoliyatingizda bolalar bilan munosabatda ishingiz o'ngidan kelmagan paytlar bo'lganmi? Ularni qanday bartaraf etgansiz?

dars jarayonida har bir o'quvchi bilan ishlay olasizmi? Agar o'quvchi bilan tillasha olmayotganingizni sezsangiz, uni yo'lga qo'yishga harakat qilasizmi?

13.Bolalar bilan muloqotda tashabbuskor bo'lishni unutish, muloqotdagi tashabbuskorlik sizga bilish faoliyati ni muvaffaqiyatli bajarishga yordam beradi.

Muloqotda tashabbuskor bo'lish, bu:

kishilar bilan ruhiy alohani tez yo'lga g'o'ya bilish;

shahslararo o'zaro ta'sirni maqsadga yo'naltirilgan holda boshqarish, shahslararo munosabatning zarur darajasiga erishish;

tug'ilayotgan pedagogik vazifalarga muvofiq ravishda o'quvchilar bilan o'zaro harakat muloqot shakllari, uslubi, usullarini qayta ko'rish;

o'quvchilarning pedagogik jarayandagi sustkashlikla bar ham berish, ularni faol muloqotga jalb etish.

Maktab o'quvchilari bilan muloqotni tashkil qilar ekanmiz, hizlarga oid ayrim o'ziga hos ruhiy hususiyatlarni bilish lozim: ular hishayajonga tez beriluvchan va juda tez ranjiydigan bo'lishadi. Ular o'qituvchi harakteridagi hususiyatni tez anglaydilar, daHal munosabatda murosasiz bo'ladilar. Ayni vaqtda bolalardan farqli o'laroq o'qituvchiga nisbatan munosabatlarini idora qila biladilar, ya'ni yashira oladilar.

Bolalar bilan muloqotda bir hillikdan voz kechish kerak. Bir hillik huyidagilarda namoyon bo'ladi:

O'zini tutishda;

O'quvchilar hulqiga e'tibor bermaslikka;

Darsni rejalashtirilgan chizma asosida olib borishga ko'rko'rona intilishda;

O'qituvchining dars jarayonida o'zini inson sifatida namoyon qilishga intilmasligida;

O'zida shunday kamchiliklar bormi. Bu hususda hamkasblar bilan fikrlashgan ma'qul. Mabodo kamchiliklar borligi sezilsa, undan qutulishga harakat qilish kerak.

16. Ayrim o'quvchilarga nisbatan jamoatchilikda tug'ilgan salbiy fikrlarni yo'qotishga intilish zarur. Bu faqat o'qituvchining ular bilan munosabatiga, balki jamoadagi umumiy muhitga salbiy ta'sir etishi mumkin. O'quvchi to'g'ri sidagi salbiy fikr shunday holatlarda tuqilishi shubhasiz:

o'zaro munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi va bu masalani qayta ko'rib chiqishga harakat qilmaslik oqibatida sodir bo'ladi;

mazkur sinfda ishlaydigan hamkasblar fikri bo'iicha muayyan o'quvchiga nisbatan tug'ilgan salbiy munosabat natijasida sodir bo'ladi;

o'quvchining bo'sh o'zlashtirishi tufayli;

o'quvchilar jamoasida mazkur o'quvchiga nisbatan tuhilgan salbiy munosabat oqibatida; o'quvchining darsda o'zini ko'rsatishga intilishida;

turli masalalar bo'yicha o'quvchining o'qituvchi bilan tortishuvi natijasida.

17. Yodda tutish kerakki, maktab o'quvchisining hulqi, bilimi, turmush tarzini asossiz tanhid qilaverish befoyda. Bunday tanqid o'quvchini o'zinio'zi mudofaa qiluvchi kishiga aylantirib qo'yadi. Ohiri oqibatda o'zo'ziga baho berishda tubanlashib ketishiga sabab bo'ladi:

bolalar bilan muloqot chog'ida tanqid elementi hukmronlik ruhida bo'lmasligi kerak, aks holda suhbat do'stona bo'lmaydi. O'zingizni quyidagi o'lchovlar bo'yicha tahlil Qilib ko'ring; bolalar bilan muloqotda sizda tanhid qilish ruhi hukmron emasmi?

muloqot tizimingizda qanday talablar ko'proq: ta'kidlovchi, yo'naltiruvchi, betaraf.

bir dars davomida o'rta hisobda necha marta tanbeh berasiz?

yangi mavzuni tushuntirish choqida yoki o'quvchi javobini tinglayotganda intizom buzuvchiga tanbeh berish uchun darsni to'htatishga hodirmisiz?

darsda bolalar bilan muloqotni tanqiddan boshlash kerak deb o'ylaysizmi?

darsda bo'sh o'quvchi va a'lochi o'quvchi bolalarni birbiriga qaramaqarshi qo'yishga yo'lqo'ymaysizmi?

intizom buzilgan chog'ida faqat tanbeh bilan cheklanish kerakmi?

Yoki vaziyatni hazil mutoyiba bilan tuzatish mumkin deb hisoblaysizmi?

pedagogik muloqot jarayonida o'quvchilarga dahdaha qilish shartmi?

bolalar siz bilan muloqotda begonasirashayotganini yoki faqat ish yuzasidan murojaat Qilishayotganini sezasizmi?

18. O'qituvchi ko'proq tabassum bilan sinfga kirsa, o'qituvchining sinfga kirish chog'idagi o'qituvchining tabassumi o'quvchilar bilan uchrashish huzur baqshligidan dalolat beradi. Umuman o'qituvchining tabassumi umumiy ruhiy hushkayfiyatni yuzaga keltiradi, o'quvchilarni faol muloqotga chorlaydi.

O'zingizni kuzating:

darsda ko'p kulasizmi?

bolalar bilan birga ho's qilib kula olasizmi?

chehrangizdagi o'ychanlik va charchoq alomatlarini bolalarga bildirish shartmi?

Esda tuting, bolalar sizning kayfiyatingizdagi o'zgarishni o'qitayotgan faningiz bilan bohlaydilar, bu esa ularda salbiy fikrlar tug'ilishga olib keladi.

19. Bolalar bilan suhbat jarayonida ko'proq maqtov, qo'llab quvvatlovchi, rahbatlantiruvchi so'zlarni ishlatish zarur. Bu bolani o'z yutuqlarini sizning shahsingiz bilan bohlashiga olib keladi.

O'zingizni kuzating;

O'quvchilarni hamma vaqt ham to'g'ri javobi uchun

Nafaqat yaqshi o'quvchi, balki bo'sh o'qiydigan, lekin hatosini tuzatishga intilayotgan o'quvchini ham maqtashga tayyormisiz?

o'z bahoingizga «ofarin», «men buni ma'qullayman», «echimi to'g'ri», «rahmat» kabi so'zlarni qanchalik ko'p ishlatasiz;

Baholash chog'ida o'quvchining ismini aytib maqtagan ma'hulmi yoki familiyasini?

Bolalarning imkoniyatlariga ishonishingizni hamma vaqt ham sezdirasizmi?

Yodingizda bo'lsinki, maqtov, qo'llab-quvvatlash, do'stona muhithamkorlikdagi ijodiy ishning eng muhim shartidir.

Bolalar siz ularga qanday munosabatda ekanligingizni bilishlari kerak. Bolalarning ismlarini, ular shahsiga oid boshqa ma'lumotlarni bilib oling. Bu o'qituvchi uchun zarurdir.

O'quvchi bilan yakkamayakka suhbatlashish zaruriyati etilganini sezsangiz, bo'lg'usi suhbat rejasini tuzib chiqish kerak. Reja tuzayotganingizda quyidagilarni hisobga olish zarur:

suhbatdan asosiy maqsadingiz nima?

suhbat zarurmi yoki boshqa vositalardan foydalanish mumkinmi?

suhbat davomida handay savollar bermoqchisiz?

suhbat natijasi tarbiyaviy jihatdan foydali bo'lishiga ishonchingiz komilmi?

suhbatdan qanday salbiy yakun kutayapsiz

suhbatda qanday tarbiyaviy usul va yo'llardan foydalanmoqchisiz

suhbatni nimadan boshlaysiz va uni qanday o'tkazasiz

22. Endi yakkamayakka suhbat chog'ida o'quvchining o'zini tutishini ko'z oldingizga keltiring:

suhbat mavzusiga handay munosabat bildiradi, unga hatnasqadimi

suhbat aro yo'dda qolib ketmaydimi, agar shunday hol sodir bo'lsa, o'zingizni qanday tutgan bo'lardingiz agar o'quvchi janjal chiqarsa nima qilgan bo'lardingiz tashkil qilish uchun umumiy tavsiyanomalar bilan tanishing; berilgan savolning mohiyatini tushunib etmaguncha javob berishga

shoshilmang;

biron narsa aytgingiz kelib tursa ham o'quvchining so'zini bo'lmang; bola e'tiroziga jalbilan javob bermang, bu muloqotga halaqit beradi; suhbatni ovozni balandlatib tugatmang; suhbat davomida o'quvchilar bilan munosabatingizni rivojlantirish yo'llarini ahtaring. O'quvchilar, ayniqsa, o'smirlar o'zlarini shahs sifatida tan olishlarini istlaydilar, mana shuning uchun ham muloqot jarayonida ularga shahs sifatida qarash kerak.

Esda tutish kerakki, sinf bilan ko'p yillik muloqot jarayonida muloqotning muayyan Holipi yuzaga keladi va uni biz yildan yilga takrorlayveramiz. Lekin bolalar o'zgarishmoqda, ular voyaga etishmoqda. Biz esao'zgarishni hisobga olmay, eskicha ishlashni davom ettiraveramiz.

Bolalarning ijtimoiyruhiy ehtiyojlaridagi eng mayda o'zgarishlarni sezishga harakat Qilish joiz. Yoddan chiqarmaslik kerakki, maktab o'quvchilarining yosh hususiyatlari o'zgarishi va bizning o'zgarmas pedagogik muloqot shaklimiz o'rtasida paydo bo'lgan qaramaqarshiliklar o'zaro munosabatlarning uzilishiga olib keladi va o'quvtarbiya jarayoniga salbiy ta'sir qiladi. Darsda

kommunikativ tayyorlanishni unutmang!

Kommunikativ tayyorgarlik uchun quyidagi dasturni tavsiya etamiz:

Dars berishingiz kerak bo'lgan sinfni eslang;

Butunlay kommunikativ tayyorgarlik uchun esa quyidagi dasturni tavsiya etamiz: mazkur sinfda muloqotning qaysi tipidan foydalanish lozimligini ko'z oldingizga keltiring;

sinfning sizni va dars materialini handay qabul qilishini tasavvur eting;

konspekt ustida ishlar ekansiz, dars bo'laklarini rejalashtiring, sinfdagi umumiy ruhiy vaziyatni ko'z oldingizdan o'tkazing;

ayrim o'quvchilar bilan o'zaro munosabatingizni ham unutmang, ayrim bolalarga nisbatan shakllangan bir qolipdagi fikrlardan voz keching;

nihojat, darsda bo'ladigan muloqot muhitini his Qilishga harakat qiling. U sizga darsni ishonch bilan o'tka zishga yordam beradi.

26. Muloqot jarayonini tahlil qila biling. Agar darsda, tanaffusda kamchilik, uzilish sodir bo'lsa, u holda: pedagogik muloqotdagi hato sababini aniqlashga urining; sinf (o'quvchilar) bilan muloqotning eng zo'r modelini hayolan yaratishga intiling; mazkur sinf bilan navbatdagi muloqot davridagi vaziyatni ko'z oldingizga keltiring.

O'qituvchining sinf bilan muloqoti tizimiga, goho muloqotga halaHit beradigan ruhiy to'siqlar paydo bo'ladi. U darsning borishiga ham , o'qituvchilar va o'quvchilar kayfiyatiga ham salbiy ta'sir etadi.

Jamoadagi tarbiyaviy ishni rivojlantirayotganda umumiy pedagogik vazifalar bilan cheklanib qolmay, ijtimoiyruhiy tavsiyanomalar asosida ish olib borish. Buning uchun quyidagilarni hisobga olish lozim :

bolalar bilan o'zaro munosabatingizning umumiy darajasi;
sinfda boshqa o'qituvchilar bilan o'zaro munosabat turlari;
hamkorlik printsiplarining o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanish ehtimolligini;
sinfdagi shahslararo o'zaro munosabat tizimini, jamoaning jipslashganligi, uning faolligini; o'zaro harakatning umumiy, guruhiiy va shahsiy shakllarini;

29. Hamkasblari bilan o'zaro munosabatga alohida e'tibor berish zarur: ular o'quv-tarbiya jarayonining ijtimoiy-ruhiy holatiga jiddiy ta'sir etishlari mumkin.

hamkasblar bilan o'zaro munosabatni tashkil qilishda quyidagilarni hisobga olishni maslahat beramiz: pedagogik jamoaning boshqa a'zolariga nisbatan hayriyoh bo'lish;

hamkasblaringiz bilan sizni yaqinlashtirishi mumkin bo'lgan omillarni ahtaring;
hamkorlikka intilish, hamkorlikka ijodiy faoliyat ko'rsatishga Harakat Qilish;
Hamkasblaringiz tajribasidan o'zingiz uchun eng himmatli, hiziharli, foydali bo'lgan tomonlarini topishga harakat qilish, faqat kamchilik ahtarishga o'rganmaslik; pedagogik jamoadagi o'zaro munosabat umumiy maktab ruhiyatiga ta'sir etadi, buni o'quvchilar ham ko'radilar, sizga va maktabdoshlaringizga nisbatan munosabatni shu asosda belgilaydilar.

30. O'z nutqingizni tuzating. U shahsingizning in'ikosidir. Iste'moldan chiqqan dahal so'zlarni ishlatmang, o'quvchilar yo'l qo'ygan nutqiy hatolarni takrorlamang; Nutqingizda parazit so'zlarni (qani, demak, umuman va boshqalar) qancha ishlatasiz;

Asosiy fikrdan chalgimagan holda nutqingizni davom ettira olasizmi?

- Nutq suratiga e'tibor bering: chunki, bilimni o'zlash tirish samaradorligi ko'p jihattan unga bog'liq;
- Nutqingizdan bahrib aytiladigan dahal so'zlarni chiqarib tashlang, ular o'quvchilarga salbiy ta'sir qiladi;

31. Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan o'zaro munosabatni yo'lga qo'yish haqida ko'proq qayg'urish va o'ylash kerak. Buning uchun:

tarbiyasi qiyin o'quvchi ruhiy yoki pedagogik hato oqibatidir;

tarbiyasi qiyin o'quvchi salbiy illatlar ta'sirida bo'ladi, bu illatlarni boshqa o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar shakllantirganlar;

bolaga u yoki bu narsani zo'rlab qabul qildirib bo'lmaydi;

tarbiyasi qiyin bola bilan muloqot qilishning eng samarali yo'llarini ahtarish zarur. Har bir o'qituvchi bilishi kerak bo'lgan pedagogik muloqotni tashkil qilishning asosiy ruhiy pedagogik talablari shulardan iborat. Shubhasiz, uni yodlab olish va ko'rko'rona tadbiiq qilish etarli emas. Bu talabalar oddiiy talablar emas, balki harakat dasturidir. U o'qituvchiga o'quv-tarbiya jarayoniga eng asosiiy komil — inson omiliga samarali ta'sir etishga yordam beradi.

11-mavzu: PEDAGOGIK TEHNOLOGIYA larning ilmiy asoslari va turlari.

(2 soat)

Reja:

1. Halkaro ta'lim islohatlari va pedagogik texnologiya muammosi.
2. Pedagogik va ahborot texnologiya tushunchasi
3. Pedagogika va ahborot texnologiyasi tarakkiyoti.
4. Pedagogik va ahborot texnologiyasi turlari.

1. Halqaro ta'limi el ohi va pedagogik ahborot texnologiyasi muammosi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin XX asrning 50-60 yillaridan boshlab, uz mustakilligiga erishgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerika davlatlari va urushga bevosita ishtrok etgan Evropa va Amerika mamlakatlari uz halk hujaligining hamma sohalarida, jumladan, ta'lim tizimk-da katga pslo.halar amadga-oshira boshladilar. islohlarnish asosiy maksadi va vazifasi Osiyo, Afrika davlatlari uchun uz milliy ta'lim-tarbiya maktablarini tashkil etish bulsa, Evropa, Amerika, Yaponiya va boshka mamlakatlari uchun umumiy urta maktabda ta'lim mazmuni, uqitish texnologiya, ta'lim-tarbiya shakllarini tashkil etish takomillashtirish bilan b'ir katorda ukuvchilarni fan, texnika va ishlabchikarish talabiga javob beradigan, chukur bilimli kunikma va mal akal i ishchi-texnik kadrlarni tayyorlashdan iborat edi) Bu masalani ya'ni umumiy urta maktabni isloh etish muammolarini muhokama kilish uchun 1990-1991 ukuv yilida Amerika «Educational testing-Servicc»-ilmiy-tadkikot instetuti tashabbusi va uning bevosita rahbarligida dunyoning 19 ta: Angliya, Braziliya, Vengriya, Izrail, Iordaniya, Irlandiya, Ispaniya, Kanada, Hitoy, Mozanbik, Portugaliya, Shveytsariya, SSSR, amerika, Haylan, Frantsiya va shotlandiYa mamlakatlari ishtrok i da halkaro imliy-tadkikot simpoziumi utkazildi. Bu simpoziumda hozirgi davrda dunyo mikiyosida umumiy urta maktabni isloh kilish masalalari kurib chikildi. Bu muammoga karatilgan masalalar: isloh ilinadigan urta maktab kanday bulishi kerak. Hozir ishlab turgan maktablarni butunlay buzib uni yangidan, chet el maktablari andozalariga, namunalariga asoslangan holda tashkil etish kerakmi. Isloh kilingan maktablarda ta'lim-tarbiya joriy etishda pedagogika nazariyasiga ya'ni ukituvchilar tajribasiga tayanish kerakmi. Urta maktab ta'lim-tarbiya mazmunini ukitish metodlarini kanday uzgartishi lozim Ukuvchilarning bilimlarini, kunikma malakalarini passaytirish hisobiga ularning ukishga, rivojlanishiga erishish mumkinmi Isloh kilinadigan urta maktablarda ukuvchilarning bilimi, rivojlanishi urtasidagi kaeftsent kanday bulishi kerak va boshka masalalar chukur muhokama kilindi.

Bu halkaro simpoziumga yukorida kursatilgan ilmiy-tadkikot tashkiloti tashabbusi bilan va uning bevosita rahbarligida utkazilgani tasodifiy hol emas edi.

Bu halkaro simpozium utazilganicha SSSR da ta'lim-tarbiya takomillashtirish uchun turt martaba 1958, 1963, 1977 va 1984 yillarda islohlr utkazgan bulsa, amerikada esa 1983 yildan boshlab urta maktab isloh etish bilan

chukur shugullana boshladi.

Amerika hukumati 1990 yilda urta maktabni isloh etishga e'lon qilgan deklaratsiyasida: «agar mamlakatda - amerikada urta maktabni hozirgi zamon talabiga mos kelmasa, biz iqtisodda dunyo miqyosidagi rahbarlikdan (liderlikdan) mahrum bulamiz» deyilgan edi.

AKShda urta maktabni isloh etishda asosiy diqqat vazifa akademik predmetlar o'qitish - ta'lim mazmunining asosini tashkil etishga yunaltilgan bo'lib, bilan bir katorda islohdan kisman aniq vazifa, o'qitishda tabiiy fanlar va matematikadan beriladigan bilimlar dunyo miqyosida birinchi urinni egallashi zarur ekanligi kursatilgan edi.

12.Mavzu: Ta'lim muassasalarini boshqarish

Reja

1.Ta'lim tizimini tashkil qilishning asosiy tamoyillari.

2.Boshqaruvning asosiy omillari.

3. Ichki va tashqi nazorat turlari.

Ta'lim—tarbiya jarayoni o'z tarkibiga yoshlarning, talabalarning fikrlash faoliyatlarini, kasb egallash va o'zlarida komil inson sifatlarini shakllantirishning bir nechta bevosita va bilvosita ta'sir qiluvchi, bir —birini to'ldiruvchi faktorlarini oladigan murakkab jarayondir.

Ta'lim—tarbiya jarayonini bosh strategik maqsadi davlat tomonidan yoshlarga, mutahassislariga qo'yiladigan talablar asosida jamiyatning yoshlarga buyurtmasi sifatida belgilanadi. Huddi shunday bizning davlatimizda ta'lim—tarbiyaning hozirgi bosh strategik maqsadi 1997 yil avgustda qabul qilingan kadrlar yorlash milliy dasturi asosida: "Zamon talablariga, bozor iqtisodiyoti talabalariga javob beruvchi o'zida komil inson sifatlarini shakllantirgan etuk mutahassislar tayyorlashdan iborat" —, deb belgilandi.

Bozor iqtisodiyotini o'zini nazariy va amaliy rivojlan — tiruvchi tabiiy omili insonlarning ma'naviy va amaliy faolligidir. Inson ma'naviy — amaliy faolligini ham buyruqlar bilan yoki ko'rsatmalar bilan ishga tushirib bo'lmaydi.

Inson ma'naviy — amaliy faolligi to'la ishga tushishi uchun inson mohiyati to'la oqilib tabiiy omillar ishga tushishi kerak.

Ijtimoiy — iqtisodiy taraqqiyotda bosqichma — bosqich bozor iqtisodiyotiga o'tish birlamchidan rivojlanishning tabiiy omillarini ishga tushirayotgan bo'lsa, ikkinchidan, insonlarning har bir kishi o'z uquvi, qobiliyati, qiziqishi va taqdiriga ega bo'lgan nodir betakror siymoligi kabi asl insoniy mohiyati tiklanmoqda.

Insonlar asl mohiyatini tiklanishi taraqqiyotining hali to'la ishga solinmagan yangi — yangi omillarini ishga tushirish mohida. Buni qanchalik dolzarb vazifa ekanligini Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy

majlisining birinchi majlisida so'zlagan ma'ruzalarida: "O'zbekistonning siyosiy—ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolning asosiy tamoyillarini ko'rsatib, bizning asosiy vazifamiz — odamlar o'z qobiliyat va ehtiyojlarini to'la namoyon qilishlarini va amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan dastlabki teng imkoniyatlarni, shu jarayonni vujudga keltiradigan huquqiy mehanizmni yaratib berish— dan iborat. Shundan keyin insonning jamiyatdagi o'rni uning salohiyatiga, mehnat qilish istagiga, buronligiga bogliq bo'ladi"—, degan edilar.

Ma'lumki, kishilar judda katta in'om va ishonch bilan yaratilgan. Insoniyat ong, aql zakovat bobida shunchalik katta imkoniyatlarga egaki, hali bu imkoniyatdan juda kam foydalaniladi. Masalan, insonshunoslik fanlarning aniqlashlaricha, intellektual eng etuk kishilar o'z aqliy —faoliy imkoniyatlaridai faqat 5 — 6% foydalanar ekanlar holos. Endi shuning uchun e'tiborni ko'proq inson o'ziga haratish davri keldi. Demak, eng asosiy hazina insonning o'zida yashiringan. Inson tabiatning bo'lagi bo'lib, u krinot, tabiat, jamiyat oldida ma'naviy javobgar hamdir. Chunki ma'naviy etuk bo'lmagan insonning qo'liga ulug' qudrat, hikmat, imkoniyatlar berib qo'yilsa, u tabiatning, o'zini va jamiyatni halokatga mahkum etishi mumkin.

Insonning aqliy — intellektual itmkoniyatlarining, u fikr va sraoliyat bobida mustaHil bo'lsagina ro'yobga chiqadi. Insonga ijtimoiy ong formasi deb qarash uning individual o'ziga hos nodirlik sifatlarini ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qilib kelgan. Bu o'z navbatida ilmning hamma bosqichlarida aks etdi. Endi ta'lim tizimi va jarayoni uning mazmuni o'zlashtirish yoki ayrim hollarda tadbirlarni ko'rsatishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki yoshlarni ma'naviy istiqbolli faollikka tayyorlovchi qilib qurilmoqda.

Oliy bilimgohtar faqat yuqori mag`akali mutahassislar tayyorlovchi o'quv yurtlari emas, balki har bir sohada zamon ruhida ilm malakaga ega bo'lgan, eng oliy ma'naviy, insoniy fazilatlarini o'zida shakllantirgan, shu sohaning kelgusida rivojlanishini ko'ra oladigan, sotsiad ijtimoiy — iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyot uyqunligini ta'minlay oladigan kishilarni tarbiyalab etkazish kerak. Hozirgi paytda oliy o'quv yurtini tugatib chiqqan mutahassislarning ko'pchiligi hatto o'z mutahassisligi ham ayrim yuqori malakali ishchilardan kam bilim, ko'nikma va malakaga ega yoki faqat nazariy bilimlarni bilishadi, amaliy ko'nikma va malakalari yuqori emas, degan shikoyatlar ko'p eshitiladi. Usha aytilgan nazariy ko'nikma, bilimlar ham eski darsliklar hajmidagi bilimlar bo'lib qolmoqda. Bunga sabab aslida faqat talabalar, o'qituvchilar emas. Albatta ta'lim tarbiyani takomillashtirish uchun, ya'ni ta'limning mazmuni, ta'lim — tarbiyada talabalarning mustaqilliklarini oshirish bo'yicha ta'limda ma'ruzalar va boshqa mashqulotlarning sifatini yaqshilash bo'yicha ancha harakatlar, ishlar qilinmoqda. Lekin bu ishlar zamon ruhidagi tub yangilanishlarni beltolab

bera olmaydi. Chunki milliy ta'lim modeli asosida akademik litseylar, kasb — hunar kolg`ejg`ari va va oliy ta'g`imda ham haqiqiy yangilanish me — zonini topish va pgu mezon asosida ta'lim tarbiyani to'la qayta hurishni kadrlar Tayyorlash milliy dasturi talab qilmoqda. Albatta, oliy o'quv yurti1'a kirishida aksariyat yoshlar hayot yo'llarni tanlagan bo'lishadi. kasbga doir faoliyat va munosabat turla-rini egallash, ma'naviy insoniy fazilatlarining rivoji, taraqqiyotni ta'ming`ashdan iborat. Bu sohada hozirgi paytda qanday tendentsiyalar kuzatilmoqda. Birinchidan, oliy o'quv yurtlarida Ham o'qitiladigan fanlarning sonini kamaytirish hisobiga talabalar hissasini oshirishga harakat qilinmoqda. Agar hamma o'qitiladigan fanlarni guruhlariga bo'lsak, ular ijtimoiy —metodologik fsshlar: falsafa, siyosiy iqgisod, tarix, jamiyatshunoslik, ma'naviyatshunoslik, pedagogika, psiholopta; mutahassislik bo'yicha fanlar, ular nazariy va amaliy failarga bo'linadi; amaliy praktikalar, jismoniy tarbiya, G'arbiy tayergarlik. Albatta, bunday qaraganda bu fanlar — ning hammasi juda zarur. Ammo hamma gap bu fanlarning tuzishshi va ularning o'qitilishi hamda shu egallanayotgan kasbga qanchalik aloqadorligidadir. Ha, ayrim paytlarda bu fandar kasbdan tashqari komil inson, shahsni tarbiyalash uchun kerak deyishadi. Ammo ko'p hollarda komil inson, shahs tushunchasi abstrakt holda ishlatilib, amaliy kategoriyalarga bo'ysundirilmagan.

Metodologiya fanlarini o'rganish ham umumiy jamiyat qurilishining yoki metodologik fanlarni o'zini fan sifatida o'rganishda iborat. Mutahassislik uchun kerak bo'ladigan fanlar esa masalan, Politehnika institutida matematika, fizika fanlarini olsak, bu fanlarni o'rganish shu fandan nazariy, epizodik amaliy bilimlarni o'rganishdan iborat bo'lib qolmasdan, kasb yo'nalishi bilan uzviy bo'lishi lozim. Mutahassislik fanlari Ham bevosita shu mutahassislik bo'yicha faoliyat va munosabatlarini shakllantirish sifatida emas, balki nazariy amaliy hismlarga ajratilib, alohida amaliyotlar, amaliy mashqulotlar sifatida o'tiladi.

Oliy o'quv yurtlarida fanlarni o'qitish shu fanlarni fan sifatida o'rganishdan iborat deb qaralib kelinmoqda. Hozirgi maytda har bir fan shupchalik rivojlanib ketdiki, endi bu fanlarni 4 — 5 yilda urganish mumkin emas. Bu fanlarni tushunchalar to'plamini o'rganishdan iborat deb qaralishi shu fan va uning amaliy va ma'naviy sohasida faoliyat vd munosabat ko'rsatishga tayyor bo'lmay holadi. Endi bilim tushunchasiga yangicha yondoshib, unga faoliyat va munosabatga undovchi ong deb qaralsa, har bir o'rganilayotgan mutahassislik faoliyati bulan juda uzviy bog'lanishi lozim. Shuning uchun har bir fan shu soha shahsning qanddy mutahassys va qanday ma'naviy insoniy sifat, fazilatlarini rivojlantirish mumkinligi va ularni rivojlantirish tashkiliy formalar va amaliy nazariy metod va usullardan foydalanish lozimligi aniqlanishi kerak.

Metodologik fanlar umumiy metodologiya zahirida egallanayotgan soha kasb yo'nalishidagi faoliyat va munosabat ko'rsatishning elimiy, manaviy, amaliy asoslarini egallashga xizmat qilishi lozim.

Mutahassislik fanlari shu soha kasbdagi amaliy va nazariy faoliyat uyg'unlashgan holda olib borilishi kerak. Demak, hamma fanlar har bir sohaga, kasbga mos. Amaliy, nazariy va ma'naviy insoniy funktsiyalari ochilishi lozim. Endi bitta darslik bilan bir necha turli mutahassislik beruvchi bir necha oliy o'quv yurtida dars berish mumkin emas. Masalan, ko'p hollarda matematik analiz kursi texnika oliy o'quv yurtlarida, pedagogika oliy ilmgohlarida, hishloh ho'jaligi ilmgohlarida bir hil darslik tipidagi kitoblardan o'qitiladi. Bunday mi sollarni boshqa fanlardan ham keltirish mumkin.

Oliy ilmgohlarda ta'lim —tarbiya ishi ko'proq talabalarning mustaqil faoliyatlari asosida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Chunki biror mutahassislik yoki ma'lum sohaga hos faoliyat va munosabat faqat mustaqil egallanishi mumkin. Shuning uchun har bir mutahassislik sohaga hos faoliyat va munosabatni aniqlovchi, intellektual taraqqiyotni ta'minlovchi fanlar amaliy va ma'naviy faoliyatlar majmuasi rejasi aniqlanishi kerak.

Mashg'ulotlarni tashkil qilish faoliyat va munosabat sifatini baholashni ham takomillashtirishni hayot taqozo qilmoqda.

Ma'ruzalar muammoli, kichik—kichik tadqiqotlarni amaliy savol javoblarni o'z ichiga olishdan tashqari faqat bilimlarni bayon qilishdan iborat bo'lib qolmasdan talabalarni nazariy va amaliy fikrlash, tafakkur qilishga o'rgatish, nazariy va amaliy ishlar uyg'unlashgan holda o'tilishini zamon taqozo qilmoqda.

Amaliy mashqulotlar esa bir necha hilda olib borilishi ko'proq egallanayotgan soha kasbga mos ishlab chiqarish tashkilotlari bilan, ish jarayoni bilan uzviy amalga oshirilishi kerak.

Umumiy mashqulotlardan tashqari har bir talaba shu sohani kasbni egallash bo'yicha individual rejaga ega bo'lishi, bu reja o'z ichiga mustaqil amalga oshiriladigan nazariy va amaliy ishlarni olishi kerak. Shundan, individual rejaga ega bo'lgan 5—10 ta talaba bitta yuqori malakali o'qituvchiga berkitib qo'yilishi foydali ekanligini ilg'or davlatlar tajribalarini ko'rsatmoqda.

Ta'lim — tarbiyaning sifatiga salbiy ta'sir qilayotgan yana bir narsa bilim malakalarini sifatini aniqlash bo'yicha imtihon sinov tizimini eskirganligidir. Aksariyat talabalar bu tizimda faqat sessiya davrida baho olish uchun o'qishlarini faoliyat va munosabat malaka sirlarini egallashga e'tibor bermasliklari hozir hammaga ayon. Shuning uchun faoliyat butun semestr davomida amaliy va nazariy topshiriqlar individual dasturning bajarilishi asosida tekshirilib, ma'lum belgilar qo'yib borilishi kerak. Bu vaqtda baho yod olingan ahborotga emas, balki haqiqiy egallangan faoliyatga qo'yilib

borilib, sessiyalarda esa yakunlar chiqari, g'ishi kerak. Talabalar faoliya — tini bunday baholash ham Aqsh, Yaponiya, Angliya va boshqarav — latlarda ishlatilib kelinmoqda. Umuman, oliy ta'limning hamma sohalarida zamon talabiga javob beruvchi kelgusi taraqqiyotni belgilovchi o'zgarishlar qilish lozimligini hayot talab qilmoqda.

Boshqaruv organlari barkamol avlodni o'qitish va tarbiyalash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishlari, etilgan masalalarni o'z vaqtida va ijodiy hal etishlari, barcha o'quv yurtlarining ish saviyasi hozirgi zamon talablariga muvofiq oshirilishini ta'minlashlari kerak.

Kadrlar hayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdan bosh maqsad va pirovard natija har jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash, XXI asrning erkin fikrli, o'z vatani va halqini manfaatlariga sadohatli yorqin shahslarni voyaga etkazishda namoyon bo'ladi. Bu maqsadga erishish umumiy demokratik yangilanishlar jarayoni, jamiyatni erkinlashtirish, mamlakatda yangi ijtimoiy — siyosiy muhitni shakllantirish bilan bog'liqdir. Kadrlar hayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, hayotga tadbiiq qilish, hech bir mubolahasiz, strategik maqsadlarimiz farovon qudratli demokratik davlat, erkin fuqorolik jamiyati barpo etishimizning asosi bo'lmog'i lozim. Bu barcha davlat va jamoat tashkilotlari, tabiiyki, eng avvalo, uzluksiz ta'lim tizimi muassasalari faoliyati mazmunini tubdan haytadan ko'rib chiqishni taqozo etadigan murakkab jarayondir. Ijtimoiy amaliyot, jamoatchilik tarbiyasi, ta'lim va tarbiyaning aniq maqsadga haratilganligi — erkin shahsni shakllantirishning asosini tashkil etadi.

erkinlashtirish, jamiyatni ma'naviy yangilash, birinchi navbatda, esh avlod an'analari insonparvarlik va demokratik qadriyatlarni singdirish orqali ta'minlanadi.

Jamiyatni ma'naviy yangilash jarayonida, shunga asoslangan holda Vatan madaniyati va milliy san'atigsh rivojlantirish, ularning yutug'ini horijiy mamlakatlarida targ'ib va tashviq etish, yoyish, milliy va halqaro tanlovlar, ko'riklar o'tkazish kabi chora—tadbirlarni farqlik bilan amalga oshirish ayniqsa, yoshlar badiiy ijodiyotini yanada rivojshntirish alohida ahamiyatga egadir, O'zbek halqi va uning davlatchilik tarixi, O'zbekiston halqlarining badiiy, falsafiy va pedagogik tafakkuri shakllanishi va rivojlanishi tarixi, etnografiya, etnogenez, adabiyotshunoslik, ijtimoiy—gumanitar fanlariing barcha yo'nalishlarini yangi saviyaga ko'tarish talab qilinadi. Mazkur muammolar doirasida ilmiy izlanishlar olib borishning kontseptual asoslari O'zbekiston Prezidentiyushg "Tarixiy hotirasiz — kelajak yo'q" risolasida chuqur tahlil etilib, boshlab berilgan.

Ma'naviy yangilanish jarayoni milliy bayramlar, urf — odatlar, o'yinlar shaklida mavjud bo'lgan tarahhiy parvar milliy qadriyat va an'analarni qayta tiklash, ularni rivojlantirish va zamonaviy hayotga joriy etish bilan ham uzviy

bog'liqdir.

Ta'lim tarbiya tizimiga rahbarlik qilish printsiplari ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish ta'lim tizimini boshqarish va unga rahbarlik qilish faoliyatining saviyasiga bog'liq. Kelajagi butok jamiyatning rivojlanish talablaridan kelib chiqib, maorifning o'rnini va roliga yangi avlodni tarbiyalash nuqtai nazaridan qarab, Oliy Majlis materiallarida, Prezidentimiz ma'ruzalarida, mahsus harorlarida rahbarlikning yuqori ilmiy darajada amalga oshirish zarurligiga alohida e'tibor berib kelmoqda. Ta'lim tizimiga ilmiy rahbarlik asoslarini ishlab chiqish pedagogik uchun asosiy yo'tgalishdir. Barkamol avlodni o'qitish va tarbiyalash tajribalarini o'rganish, umumlashtirish, bu jarayonning qonuniyatlarini ochib berish, pedagogika nazariyasining asosiy masalalarini ta'lim amaliyotiga va fan yutuqlarini nazarda tutgan holda I.A.Karimov asarlari asosida ijodiy hal qilish pedagogikaning burchidir.

I.A.Karimov o'z asarlarida kelajagi buyuk O'zbekiston Res-publikasining organlarini tashkil etish, boshqarish va ularning rahbarlik faoliyatiga doir muhim printsipalarini har taraflama mufassal ishlab chiqdi.

Ilmiylik printsipti - bu printsin halq ta'limi organlari va maktabning hamma ishini O'zbekiston Respublikasi davlatining ko'rsatmasiz, fan va texnika yutuqlari hamda ijtimoiy taraqqiyotning ob'ektiv qonuniyatlari asosida amalga oshirishni talab etadi. Chunki idora qilish uchun ishni bilish kerak. Hamma narsadan habardor bo'lmasdan, to'la — to'kis bilimga ega bo'lmasdan turib, idora qilish ilmini bilmasdan turib boshqarish mumkin emas. Halq ta'limi ishlarini, maktab ishini, kasb — hunar kollejlari ishini va unga rahbarlik qilishda ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun milliy mafkura, milliy g'oya, pedagogika, pedagogika tarixi, psixologiya, hususiy metodika, mantiq, etika va estetika kabi fanlar erishgan yutuqlarni muntazam o'rganib borish, tahlil qilish hamda bu muvaffahiyatlarini keng qo'llanishi zarur.

Boshqaruv muassasalari barkamol avlodni o'qitish va tarbiyalash sohasida yagona davlat siyosatini muttasil etilgan masalalarini o'z vaqtida va ijodiy hal etishlari, barcha o'quv yurtlarining ish saviyasi hozirgi zamon talablariga muvofiq oshirish ishini ta'minlash kerak.

Demokratik markazlashgan printsipti ta'lim tizimini boshqarishda markazlashgan rahbarlikni keng demokratiya bilan mustaqillik va tashabbuskorlikni rivojlantirish bilan birga qo'shib olib borish, o'ziga hos hususiyatlarni va shart — sharoitlarni hisobga olish imkonini beradi.

Yuqoridan turib, bir hil andoza bichib berish demokratiya va markazlashgan rahbarlikka butunlay yot narsadir. Barcha tadbirlarda, mahalliy hususiyatlarda ishga qanday munosabatda bo'lish usullarida, nazoratni amalga oshirish usullarida, har hil yo'llarini qo'llash asosiy, muhim bo'lgan birliklarni

buzmaydi, balki bu birlikni ta'minlaydi.

Ilmiy rejalashtirish ta'limning insonparvarlik (tamoyillari), ta'limda yoshlarni shahsiy o'quv qobiliyatini ro'yobga chiqarish va ularni rivojlantirish va boshqa printsiplari mavjud ishlab chiqarish va ta'lim tizimi O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'quv ishlab chiqarish majmuasining (markazlarini) tashkil etish va ularni rivojlantirish, zamonaviy uskunalar, apparat va asboblari bilan jihozlash raHbatlantiriladi, deyiladi. Kadrlar qayyorlash va birgalikda ilmiy—tehnologik echimlar yaratishda korhonalarning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalaniladi. Ishlab chiqarishda kadrlar tayyorlash qo'llab quvvatlanadi.

Ta'lim tizimini hayot bilan va mustakil O'zbekiston davlatining siyosati bilan bog'langanlik printsiplari - ta'lim tizimi hayot bilan, davlatimiz siyosati bilan boshlash printsiplari O'zbekiston maktablari, kasb —hunar kollejlari oldida turgan barcha nazariy va amaliy vazifalarni hal etishda asosiy printsiplari bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi.

Ta'lim tizimini boshqarishga siyosiy yondoshish ta'lim — tarbiya ishlaridagi hodisa, fakt va jarayonlarga mustaqil O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini nuqtai nazaridan turib munosabatda bo'lish demakdir.

Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida O'zbekiston halqining irodasi va manfaatlarini ifodalab, kelajagi buyuk davlat qurishga va dadil qadamlar bilan bu vazifani amalga oshirishga qodir bo'lgan barkamol avlodga ta'lim - tarbiya berishni ta'limning asosiy vazifasi deb hisoblaydi. Yoshlarni milliy mafkura ruhida tarbiyalash, milliy ongini shakllantirish, Prezidentimizning hayoti va faoliyati timsolida, tajribasi negizida tarbiyalash zarur.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida halq ta'limini keng yoyilishi, miqdor va sifati jihatidan jadal o'sishi, turli hildagi ta'lim tizimi va ta'lim muassasalaridan tashqari o'quv—tarbiya maskanlarining ishlab turishi, ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarishning juda zarurligini taqozo etadi. Sosial boshqarish masalalari ilmiy bilimning mahsus sohasi qilib ajratiladi. Pedagogik jarayonlarni, hodisalarni va ob'ektlarni boshqarishda pedagogika qonuniyatlarini hisobga olish zarur. Bu holda pedagogik boshqarish tushunchasi qo'llaniladi.

Barcha tipdagi o'quv yurtlari, maktabdan tashqari muassasalar, halq ta'limi bo'limlari va boshqalar asosiy boshqarish ob'ektlariga kiradi. Ta'lim—tarbiyani tashkil qilish va boshqarishga doir ishlarning hammasi pirovard natijada yagona

Ta'lim — tarbiya jarayonini tashkil qilish, ta'lim tizimini boshqarish O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ko'rsatib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi: ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga

oshirish; ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlariga rahbarlik qilish; ta'limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish; ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash; ta'lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash; — boshqa davlatlarning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruhsatnomalar berish; qonun hujjatlariga muvofiq horijiy davlatlarning ta'lim to'g'risidagi hujjatlarini tan olish va bu hujjatlar

ning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash; davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash; davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi Hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini;

Davlat grantlari miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;

davlat oliy ta'lim rektorlarini tayinlash; ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim muassasadan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash.

Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquqiy doirasi.

Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquq doirasiga quyidagilar kiradi:

ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish:

ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy masalalarda rahbarlik qilish;

davlat ta'lim standartlari, mutahassislarining bilim saviyasi va kasb tayyorgarlik bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash; davlat ta'lim muassasalarini moliyalash Respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari, shuningdek, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. Ta'limni rivojlantirish fondlari.

Ta'limni rivojlantirish fondlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shahslarning, shu jumladan chet ellik yuridik shahslar va jismoniy shahslar-ning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin. Halq ta'limi vazirligi O'zbekiston Respublikasida maorifga bevosita rahbarlik qiladi. U barcha tipdagi maktablar, rahbarlik qiladi. Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligi barcha universitetlarga, kasb — hunar kollejlariga, litseylariga, bilim yurtlariga rahbarlik qiladi. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv rejalari va dasturlar ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Halq ta'limi vazirligi "Ta'lim Haqida"gi qonuni bajarilishi, maktablarda o'quv — tarbiya jarayonining yo'lga qo'yilishi, uning moddiy bazasi, o'qituvchilarning malakasi va kattalar ta'limini tashkil etishi uchun javob beradilar. Halq ta'limi vazirdigida turli hil o'quv — metodika bo'limlar tashkil etiladi. Ular pedagogika jamoatchiligini halq ta'limi bo'limlari va maktabga yordam berishga jalb etadilar. Tuman, halq ta'limi bo'limlari o'zlariga Harashli

maktab — lari faoliyatini, maHaliy va milliy hususiyatlarini hisobga olgan holda nazorat qiladilar. Boshkarish va raHbarlik printsiplari. O'zbekiston Respublikasi maktab va boshqa o'quv — tarbiya muassasalari barcha ishlab chiqarishning asosida boshqariladi. Demokratik sentralizm, rejalilik va ilmiylik bu prinsiplarning asosiysidir. Demokratik sentralizm printsipti markazlashtirilgan raHbarlik demokratiya, joylarda aniq sha — roitlarni (milliy hususiyatlar, u yoki bu ishlab chiHarish sohalarining ustunligi shahar yoki qishloq, tuman va boshqalar) hisobga oluvchi tashabbuskorlikning rivojlanishi bilan birga Qo'shib olib borishni nazarda tutadi. Rejalilik printsipti — ta'lim va tarbiyaga oid ishlarning hammasi yuqoridan pastgacha rejalashtirishni bildiradi. Halq ta'limnning barcha sohalarini rivojlantirish rejalari tuziladi, barcha o'quv — tarbiya muassasalarining ish mazmuni belgilanadi, Har bir maktabda perepektiv reja (reja kamida uch yillik), yillik ish rejasi tuziladi. Yillik reja maktabning o'tgan yili ichidagi ishning tahlilini, umumiy ta'limni ta'minlash (mahsus maktablarda esa bolalarni tanlab blish) tadbirlarini o'quv — tarbiya ishlarining vazifalari va mazmu — nini, tashkiliy pedagogik tadbirlar va Hokazolarni o'z ichiga oladi. Direktorning, uning muovinarining ishrejalarini alohida tuziladi. Savollar va toppgariqlar1. Ta'lim tarbiya jarayonining tarkibiy hismlarini tushuntirib bering. Ta'lim tarbiyani boshqaruv yo'nalishlari qaysilar Ta'limni boshqaruv organlarini aytib bering. Ta'lim bo'g'inlarini boshqaruv organlarining vakolatlari nimalardan iborat Boshqaruvda nizom, ta'lim qonunining o'rinlarini tushuntirib bering. Ta'lim tarbiyani ilmiy metodologik ta'minlash tizimini aytib bering. Ta'limda malaka oshirish tizimining vazifasi nimalar — dan iborat

ADABIYOTLAR:

1. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 1997 y, 29

avgust.

2.Toshmurodova H.A. "Ta'lim — tarbiyani rejalashtirish hu — susiyatlari". 1993.

3.Tursunov Y., Nishonaliev U. Pedagogika kursi. —T., 1996. .

O'qituvchi qanday pedagogik qobiliyatlarga ega bo'lishi lozim

O'qituvchi obro'si va uning zarurligi nimada?

Sevimli maktab o'qituvchingizni eslang

ADABIYOtlAR:

1 Karimov I.A. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T., 1997.

2.Karimov I.A. Donishmand halqimizning mustahkam iro-dasiga ishonaman. -T., 2000.

3.O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni. -T., 1997.

4.Milliy istiqlol G'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. — T.: O'zbekiston. 2000.

5.Pedagogika (o'quv qo'llanma). prof A.Munavvarov umumiy tahriri ostida. - T.: O'qituvchi. 1996.

6.Ochilov M. Bo'lg'usi o'qituvchining ahloHiy shakllanishi. — T.: O'qituvchi.

13. PEDAGOGIK G'OYALAR RIVOJINING TARIXI VA TA'LIM-TARBIYANING ZAMONAVIY KONTSEPTSIYASI/ REJA/

1. Qadimgi G'arb mamlakatlarida pedagogik g'oyalar rivoji.
2. Konfutsiy ta'limotining o'ziga xos jixatlari .
3. Yan Amos Komenskiyning pedagogik nazariyasi.
4. XIX- XX –asrlarda g'arbiy evropa davlatlarida ta'lim va tarbiya soxasidagi pedagogik g'oyalar.

Tabiatning oliy mahsuli, siymosi inson o'z aql-zakovati bilan o'zini himoya qiladigan va boladigan mustaqil, erkin qilib yaratilgan. Shuning uchun tabiat hodisalari, jarayonlarini o'rganish, ulardan yashash uchun oqilona foydalanish asosida insonlar sekin —asta madaniylashuvi, ijtimoiylashuvi asosida ma'naviy qadriyatlar shakllana boshlagan, rivojlana boshlagan.

Ilk davrlarda ta'lim yoshlarga ota — onalarning yashash uchun tabiatdan foydalanishi, uy — ro'zg'or yuritish, o'zaro va tabiatga munosabat ahloqi, odobi sifatida shakllana boshlagan bo'lsa, bilimlar hajmi kengaya boshlagach, mahsus tarbiyachilarga ehtiyoj tuHila boshlagan. Ma'lum qabila, elat, millat miqyosidagi ta'lim — tarbiya qoidalari majmuasi kontseptsiyalar ko'p hollarda alohida kishilar tomonidan takomillashtirilgan. Shuning uchun ham ta'lim kontseptsiyalari ko'p hollarda ma'lum muallifning nomi bilan bog'lanmaydi. Antik pedagogikada tabiatga, atrof — muhitga, o'zaro insoniy munosabatlarda ongli, ahlohiy munosabatlar majmuasi bo'lgan donishmandlik pedagogikasi shakllangan. Bu vaqtlarda tarbiyaning bosh maqsadi ham yoshlarda donishmandlik sifatlarini shakllantirish bo'lgan. Donishmandlik pedagogikasida yoshlarda mehnatsevarlik, ma'naviy — ahloqiy sifatlar bilan uyg'un rivojlantirilishi maqsadga muvofiq ekanligi ilgari surilgan. Bu pedagogik qarashlar mashqur "Avesto" (er.av. VII asr) asarida va Qadimgi Hitoyning Daos maktabi (er.av.Sh asr) tajribalarida aks etgan edi. Eramizdan avvalgi II asrlarga kelib O'rta Osiyo, Qadimgi Hindiston pedagogikasida sahiylik, sofdillik, inson qalbi tushunchalari ilgari surildi.

610 yillarga kelib, ilohiy asar ulug' qur'oni Karimda in — son mohiyati to'la ochib berilib, komil inson tarbiyasi bosh maqsad qilib qo'yilgan edi.

Qur'oni Karimdagi ta'lim—tarbiyaga oid ulug' hazina Al— Buhoriy Hazratlarining hadislarida beriladi. Ta'lim — tarbiya insoniy munosabatlarning falsafiy asoslari tasavvuf ilmida ochib berila boshladi. Antik falsafada ham zohiriy va botiniy ilmlar uyg'un edi. Demokrit, Pluton, Arastu asarlarida insonparvarlik g'oyalari ilgari surilgan edi. Al — Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino asarlarida ong va fan uzviyligi ilgari surildi Al — Horazmiy, Umar Hayyom, Ahmad Farg'oni ta'limda amaliy faolIyat ustuvorligi Hoyasini ilgari surishdi. Abdulholih hijduvoni, Bahouddin

Naqshbandiy Hazratlarining ulug' tariqatlarida mehnatsevarlik, insonparvarlik, poklik, soflikning asosi ekanligini nazariy va amaliy isbotlab: "Qo'ling mehnatda bo'lib, Olloh qalbingda bo'lsin" shiorni ilgari surdilar va unga o'zlari hayotlarda ibratona amal qildilar. Mirzo Ulug'bek ta'limda tadqiqot, kuzatish, umumlashtirish g'oyasini ishlab chiqdi, bu g'oyani amalda tadbiq qilib maktablar ochdi, darsliklar yozdi, observatoriya tashkil qilindi. XV- XVI asrlarda Alisher Navoiy boshchiligidagi mutafakkirlar insonparvarlik g'oyasi nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ulug' ishlar qildilar, Gelvetsiy, Didro, R. Qenlar tarbiyani ustvorligi g'oyasini ilgari surishdi. K.D. Ushinskiy, L.N. Tolstoy ta'lim va tarbiyani uyg'unligi g'oyasini ilgari surishdi. S.G. Shatskiy, L.V. Zankov, Suhom Liyskiylar ta'limda amaliyotni tadbiqiy, ongli o'zlashrish ahamiyatiga ega ekanligini ishlab chiqishdi. Sharq faylasuflari inson aqlini yuksakka ko'tardi va uning qobiliyatiga ishonadi. Barkamol avlod tarbiyalash insoniyatning eng erqin orzusi bo'lib kelgan. Biroq dunyo halqlarining barchasi ham bu haqda o'ylayvermagan. Buchday orzudagi insonlar azaliy ma'rifatga, madaniyatga mansub bo'lgan yurtlarining donishmandlari eng mo'tabar ziyolilar, hukmdorlari hisoblanganlar. Ularning orasida O'zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashagan bobokalonlarimizning o'z o'rnini, hurmati bor. Bu jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan Barkamol avlodni tarbiyalash orzusiga o'z tariximizdan juda ko'p dalillar keltirishimiz mumkin. Al — Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi g'oyani yodga oling. Unga ko'ra jamiyat — ning har bir fuqarosi — mansabi, tutgan o'rnini, ya'ni kim bo'lishidan qat'iy nazar fozil kishi. Fozil inson o'z davlatining barcha qonun — qoidalarini yaqshi biladi, unga amal qiladi, fikrlaydi, o'z kasbining ustasi, lozim bo'lganda Vatani uchun jonini fido qiladi. Fozillar shahri aholisi bir — biriga hurmatda bo'ladi. Ota — ona va farzand, ustozu shogird o'rtasida sharqona nazokat, mehr va ehtirom bo'ladi. Avvalo bunday fikr yuritishimizning o'z bobolarining ma'naviy darajasi naqadar yuksak bo'lganligini va albatta bunday fikr aytish bu borada ko'p asrlik meroslarni o'rganish natijasida vujudga kelishini ta'kiddash joiz. Demak, bizning barkamol avlodni tarbiyalash haqidagi niyatimiz uchun ma'naviy asos bor. Millatimiz urf — odatlaridagi, qonidagi marifat tushunchasi, ilm va bilimga intilish hislati bir necha ming yillar davomida shakllangan. "Kalila va Dimna", "Qobusnoma", Nizomul — mudkning "Siyosatyoma", "Ro'shnoinoma", M. Qoshg'ariyning "Devoni lug'oti turk", Yusuf Hos Hojibning "Qutadg'u bilig", A. Navoiyning "Mahbub ul — Qulo'b", H.V. Koshifiyning "Ahlohi Muhsiniy" asarlarida ilg'or pedagogik qarashg'ar ham ifodalangan, O'rta asr uyg'onish davrida Sharqda dunyoviy ta'lim keng rivojlandi. Lekin O'rta Osiyoning Rossiyaga tobelanishi oqibatida ma'rifiy — pedagogik tafakkur ham o'zgarib bordi.

Lekin bu davrda ilm va ma'rifatni doimo yuksaklikka ko'taruvchi g'oyalar baralla kuylanib turdi. Bunda o'lkaning ilg'or —fozil kishilari muhim rol o'ynaydi.

XXI asr ohirlari va XX asrning boshlarida ijod qilgan adabiyot namoyondasi Furqat ma'rifatparvarlik maktabining asoschisi bo'lgan. U zamonaviy madaniyat va taraqqiyotning yo'li ilm olishda deb ta'kidlaydi. Furqat ma'rifatparvar shoir sifatida muhim asarlar yozib qoldirgan. Uning "Gimnaziya", " Ilm hosiyati", "Akt majlisi hususida", "Vistavka hususida" kabi she'rlari, "Suvorov Haqida" nomli dostonini Toshkentda yashagan vaqtida rus madaniyati bilan tanishish orqali olgan taassurotlaridan yaratgan. Jahon—ravshan ziyoi ilmdandur, Ko'ngil sofi safoi ilmdandur deydi Furqat. Bu davrda Avaz O'tar ijodida ham ma'rifatparvarlik g'oyalarini ifoda etuvchi bir Hancha asarlar mavjud. Shuning eng sarasi bu "Til" she'ridir. Bunda ma'rifatparvar yoshlarga murojaat etib, har tilni bilishga, uni o'z ona tilidek bilishga chaqiradi.

A. O'tarning boshqa bir qancha she'rlarida ham ilg'or ma'rifiy g'oyalar kuylanadi.

O'lkada ochilgan rus tuzem maktablari, gimnaziyalari ta'sirida ta'lim—tarbiya ishlari ham ta'lim metodlarini qayta qurish ishlari avj oldi. Natijada erli xalq vakillarining yangi metoddarga suyangan usullari "jadid", "usuli savtiya" nomidagi maktablar paydo bo'la boshladi. Dastlabki ma'lumotlarga qaraganda, usuli jadid maktablari 1890 yillarda paydo bo'la boshlagan. Turkistonda yangi maktablarning karvonboshchisi M.Behbudiy edi. U jadid maktablari uchun ham ham amaliy jihatlarida jonbozlik ko'rsatdi. Aslida "Jadid" so'zi arabchadan olingan bo'lib, "yangi" degan ma'noni beradi. Demak, usuli jadid ham, usuli savtiya ham yangi usul maktablari degan ma'noni beradi, Usuli jadid o'lka ommaviy afkori ma'rifat nuri sari etakladi. Ushbu maktabda o'qigan talabalar hatto, chet o'lkalarda o'qishni davom ettirganlar. Ushbu maktab ijodkorlari M.Behbudiy, S.Sadiyazizov, A.Avloniy, S.A.Siddihiy, Munavvar qori, A.Shakuriy edi. O'zbek pedagogikasi tarixi shunday turli —tuman oqimlar, jarayonlar bilan rivojlanib keldi.

Hozirgi zamon ta'lim —tarbiya kontseptsiyasi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, u yuksak umuminsoniy qadriyatlar asosida taraqqiy topib bormoqda, bu kadrlar tayyorlashning milliy dasturi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlarida ko'rsatib berilgan. Ushbu qonunlar milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb —hunar madaniyatiga ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljallangan to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqlol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodni shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Milliy dasturning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan

holgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la holos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir.

Endi hayot jarayonidagi islohiy o'zgarishlar, yangiliklar ta'lim jarayoniga, tizimiga kirib ketishi o'qitish, tadbiq uslublarining asosini tashkil qilishi kerak.

I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, milliy mafkurada: "Gap milliylik haqida ko'p gapirishda emas, balki milliylikni asosini tashkil qiluvchi tabiiy omillarni ishga tushirish-da".

Ta'limning yangi texnologiyasida milliy ta'lim modeli markazida turuvchi shahsni ma'naviy — amaliy kamoloti bilan boshqa bo'g'inlar orasidagi haqiqiy o'zaro rivojlantiruvchi omillarni funktsional jarayonlar tashkil qilish asosida ishga tushirish lozim.

Milliy ta'lim modeli

V. Davlat va jamiyat

IV. Ishlab chiqarish

Ta'lim tizimida odatdagi ta'lim jarayoni asosan I, P va 1P bo'g'inlar orasidagi bog'lanish bo'yicha hurilgan bo'lib, IV va V bo'g'inlar bilai boshlanish ayrim misollardagina bo'lib, ta'lim jarayonining tashkil qiluvchi tizimni haqiqiy bo'g'iniga aylangan edi. Shunnng uchun ga'lim oldida qo'yilgan ijtimoiy buyurtma to'la bajarilmasligi va biz Tayyorlanayotgan mugahassislarning ishlab chiqarish davlat va jamiyat talablariga to'la javob bera olmasliklari tabiiy.

Endi shu beshta bo'tinni uzviy bog'liqligiga asoslangan shahs kamolotini, yoshlar, mutahassislarning ma'naviy —amaliy sifatlarini davlat va jamiyat, ishlab chiqarishdagi Hayotiy jarayonlarda bunyodkorona ishtirok etishi asosida shakllantirishga qaratilgan ta'lim — tarbiya jarayoniga o'tish lozim.

Bu ishlarning milliy g'oya, milliy mafkura asosida ma'naviy insoniy yo'naltirilishi haqida Prezidentimiz I.A.Karimov 2000 yil iyun oyida "Fidokor" gazetasi muhbiri bilan "Donishmand halqimizning mustahkam irodasiga ishonaman" mavzusidagi muloqotlarida: "Endigi eng dolzarb vazifamiz — bu jarayonlarnish ilmiy—nazariy asoslarini, ularning yangiyangi qirralarini mukammal ochib berash va ularni yangi hayot, zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol va jo'shqin ishtirokchilariga aylantirishdan iborat"—,degan edilar. Mustaqillik yillarida yoshla — rimizning faolliklari oshayotganligini fahrlanib, Prezidentimiz "Komolot" yoshlar ijtimoiy harakatining ta'sis qurultoyi qatnashchilariga yo'llagan maktublarida (2001 yil 26 aprel). Vatanimizning buyuk kelajagini ko'rish, oldimizda turgan katta muammolarni echish, mustaqilligimizni himoya qilish, hayotda milliy va umumbashariy qadriyatlar uygunligi tamoyiliga amal qilib yashashdek vazifalarni yosh avlodimiz o'zinish -

muqaddas burchi deb bilayotgani, ayniqsa e'tiborga sazovordir"~ deb aytdilar. Bu ishni amalga oshirish uchun esa ta'lim mazmuni, uning strukturasi, ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish, talabalarning faoliyatlarida o'zgarishlar bo'lishi lozim. har bir o'quv fani bo'yicha ta'limning mazmunini strukturasi ta'limning amaliy — mahsuliy faoliyati olib kirilishi kerak. Bu mutlaqo mustaqil ish formasida emas, boshqa adabiyotlardan o'rganish emas. Bu o'quv fani dasturidagi shunday bo'g'inki, uni amaliy— ijodiy faoliyatda to'lg'azish mumkin. Bu bo'g'inni auditorinda o'tish ham mumkin emas. Bu bo'g'in har bir fan o'qituvchisi tomonidan o'quv fanining amaliy ijodiy ob'ektlarida bajarilvdigan qilib tanlanadi. Bu o'quv fan yoki hayotiy yangiliklarga olib keluvchi bo'g'in bo'lishi kerak. Bu bo'g'inni fan yo'nalishi va o'qitish maqsadiga qarab turli usulda tanlash mumkin. Masalan, Universitetlarning birinchi ikki yilida umumiy amaliy — ijodiy harakterga, ikkinchi bosqichda soha mutahassislik amaliyotidan, uchinchi bosqichda esa muammoli yirikroq harakterga ega bo'lishi lozim. Ammo bu bo'g'in abstrakt modellar bilan ham hammavaqt almashtirilmasligi, balki ko'proq hayotiy harakterga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday amaliy — mahsuliy bo'g'inlar har bir o'quv fani dasturida bir nechta bo'lishi va ularning bajarilishi katta yutuq sifatida talabalardan qabul qilishi lozim. Bu ma'lum soatlarda auditoriyada dars jadvali orqali hatto ayrim hollarda kunlik asosida qabul qilishi kerak. hatto har bir fan o'qituvchining faoliyati ayrim ilg'or universitetlar tajribalarida huddi shunday soatlar yig'ndisi bilan belgilanadi va u zacht vaqti deb aytiladi Chunki professor — o'qituvchidan ham, talabadan ham katta mahorat, bilim, malaka va hayotiy ko'ra bilishni talab qiladi. Amaliy mahsuliy topshiriqg'arni yakka yoki guruh harakteriga ega bo'lishi mumkin. Har bir o'quv fanini egallash o'rganish emas, balki egallash yakuniy sistemalashtirish hisoboti bilan yakunlanadi. Bunda talaba o'quv fanini tugal tasavvur qilishga uni ongli egallashga o'rganadi. Amaliy — mahsuliy topshirihar mustaqil ish formalariga halaqit bermaydi. Ular o'z o'rnida zarurat bo'lganda ishlati laveradi. Bu ish oliy o'quv yurtlarida, hususan universitetlarda yuklama soatlari ketidan quvishga chek qo'yadi. Chunki yuklama aslida professor o'qituvchining ish ko'rsatkichi talabani, bo'lajak mutahassisning bilimi, ongi, saviyasi, istiqbolni ko'ra bilish mahorati va tarbiyasidir. Ha, shu jarayon haqiqiy tarbiyani ham o'z ichiga oladi. Chunki amaliy — mahsuliy topshiriq bo'g'inlarida ilmiy — amaliy, iqtisodiy, ekologik ma'naviy — insoniy sifatlar amalda bajarilishi bilan birga insonning asl ma'naviy — mahsuliy siymolik mohiyati ishga tushadi.

Aslida haqiqiy tarbiya ana shudir. Hamma o'quv fanlari shunday strukturaviy jarayonga o'tgach, hozirgi o'kuv rejasidagi mashqulotlar jadvallaridagi vaqt tihlli ligiga chek qo'yiladi. Savol va topshiriqlar

Tarbiyaning ilk shakllarini aytib beringAntik davri pedagogikasida qanday

ta'lim tarbiya kon — sepiyalariga amal qilingan
"Avesto"da ta'lim tarbiyaning qanday g'oyalari ilgari surilgan
qur'oni Karimdagi "Inson mohiyati" za "Komil inson tarbiyasi" g'oyalarini
tushuntirib bering. Ta'limda amaliy faoliyat uyg'unligi va kontseptsiyasini
qaysi mutafakkirlar ilgari surishgan "qo'ling mehnatda, Olloh qalbingda
bo'lsin" da'vatining ma'nosini tushuntirib bering. Uzluksiz ta'lim
kontseptsiyasini milliy ta'lim modelida Handay amag`ga oshirilayotganligini
tushuntirib bering.

ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. 1997 y, avgust.
- 2.Tursunov I., Nishonaliev U. Pedagogika kursi. —T., 1997.
- 3.O'zbek halq pedagogikasi antologiyasi. — T: O'qituvchi. 1995. 2 jild-

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.Karimov I.A Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T, 1997.
 - 2.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. — T, 1997.
 - 3.Barkamol avlod orzusi. To'plam. — T: P1arH. 1999.
 - 4.Karimov I.A. "Turkiston" gazetasi muhbirining savol — lariga javoblari. 1999Y, 3 fevral.
 5. Karimov I.A. "Jamiyatimiz mafkurasi, millatni millat, halkni halq Qilishga hizmat etsin" G`G` "Tafakkur" №2. 1998.
- Karimov I.A. Buyuk kelajak sari. —T., 1998.

